



KARSHI
INTERNATIONAL
UNIVERSITY

TA'LIM VA ILMIY INNOVATSIYALAR



2/2025

ISSN:3093-8708

MUASSISLAR:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI XALQARO
UNIVERSITETI

**TA'LIM VA ILMIY
INNOVATSIYALAR**

ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy elektron
jurnali
2025-yildan
nashr etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va
ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligining 2025-yil
28-aprel oyida №741546
raqamli nashr guvohnomasi
berildi.

**TEXNIK
MUHARRIRLAR:**

E.Rajabov
M.O.Meyliyeva
Sh.U.Jabborov
T.S.G'aniyev

JURNAL MANZILI:

O'zbekiston Respublikasi,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumani, Kat MFY,
Mustaqillik ko'chasi, 71-uy.
E-pochta: ilmiy-jurnal@kiu.uz
Telefon: +998901264010
Pochta indeksi: 180200
Sayt: kiu.uz

BOSH MUHARRIR:

Panjiyev Ulug'bek Rustamovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MUHARRIR:

Marasulova Umida Norqo'ziyevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Yakubov Axtam Nusratilloevich	- Yuridik fanlari doktori (DSc)
Boymurodov Shuxrat Toshkentovich	- Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Turdiyev Shoxrux Razzakovich	- Pedagogika fanlari doktori (Dsc), professor
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	- Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Kurbanova Aziza Uktamovna	- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Avaznazarov Odiljon Rahmatulloevich	- Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Abdullayeva Umida Abdukadirovna	- Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Ibragimov Suxrob Latifovich	- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Xusainov Oybek Djabbarovich	- Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Choriyev Sanjar Anvarovich	- Falsafa fanlari doktori, professor
Erkayev Abduraxim Panjiyevich	- Falsafa fanlari nomzodi, professor
Mirqosimova Marg'uba Mirqobilovna	- Pedagogika fanlari doktori, professor
Ergasheva Yulduz Alimovna	- Tarix fanlari doktori, professor
Fayziyeva Mavluda Xudayarovna	- Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Omonov Bahodir Nurillayevich	- Falsafa fanlari doktori (Dsc), professor
Fayzullaev Maqsud Abdullayevich	- Geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Bozorov Orif Chamanovich	- Filologiya fanlari nomzodi (PhD), dosent
Qanoatova Feruza Boboqulovna	- Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Sohibov Akrom Rustamovich	- Pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Qarshi xalqaro universitetining 2025-yil 19-avgustdagi 1-son
Kengashi qaroriga asosan nashrga tavsiya qilindi.**

*Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan
foydalanilganda*

*“Ta’lim va ilmiy innovatsiyalar” ilmiy jurnalidan olindi deb
ko’rsatilishi shart.*

*Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish
majburiyatini olmagan.*

*Maqolada keltirilgan dalillar va ma’lumotlar uchun muallif
javobgar.*

*Jurnalning elektron shaklida joylashtirilgan barcha materiallar
nashr qilingan hisoblanadi va mualliflik huquqi ob’ekti
sanaladi.*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdiraimova Gulrux</i> UZVIYLIK VA IZCHILLIK TAMOYILLARINING KOGNITIV O'SISHGA TA'SIRI VA ULARNING PEDAGOGIK TADQIQOTLARDAGI NAZARIY ASOSLARI BO'YICHA TAHLILYI YONDASHUV.....	11
<i>Jumayeva Muxlisa</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	17
<i>Ruziyeva Iroda Payzilloyevna</i> MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA ADOLAT VA MA'NAVYI QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	21

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raximova Maloxatxon Odiljon qizi</i> TERMINLARNING EPITET SIFATIDA QO'LLANILISHI.....	28
<i>Rahimqulova Lobar Hamro qizi</i> IJTIMOIY TARMOQ YOZISHMALARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI.....	34
<i>Shomurodova Makhliyo Mingnor qizi</i> THE ROLE OF TEACHERS IN FOSTERING CRITICAL THINKING SKILLS.....	44
<i>Mannonova Maftuna Shukrillo qizi</i> O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI	48
<i>Rahmonova Mohinur Zohid qizi</i> TILNING TURLI XIL KONTEKSTLARDA RIVOJLANISHI	53
<i>Poyonova Dilorom Odiljon qizi</i> SUN'YI INTELLEKT DAVRIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING KELAJAGI: GLOBAL ISTIQBOL	58

IJTIMOIY FANLAR

<i>Shermatov Javoxir Sherzotovich</i> O'SMIRLIK DAVRIDA ZO'RAVONLIK HISSINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING ROLI	67
<i>Yqubova Gulhayo</i> O'SMIRLAR UCHUN SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI PSIXOLOGIK XIZMATLARDA MAXFIYLIK VA ETIKA MUAMMOLARI	73
<i>G'ayratov Boburmirzo Alisher o'g'li</i> OLY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA HUQUQIY XIZMAT FAOLIYATINING IJTIMOIY-HUQUQIY TA'SIRI VA SAMARADORLIGI.....	78
<i>Qahramonov Shahzod Burhonovich</i> OLY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR AKADEMIK VA IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MENEJER XODIMLAR FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI VA SAMARADORLIGI	85

TABIY VA ANIQ FANLAR

<i>Panjiyev Ulug'bek Rustamovich</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI	91
<i>Murodov Shukrilla Abdusaid o'g'li</i> GOOGLE COLAB ONLAYN PLATFORMASI VA UNDA TA'LIM JARAYONIDA MAQSADLI FOYDALANISH.....	95

IQTISOD FANLARI

<i>Xusainov Oybek Djabbarovich</i> CHORVACHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	105
--	-----

Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li <i>JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</i>	111
Tog'ayeva Gulixon Zafar qizi <i>QASHQADARYO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI.....</i>	118
Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi <i>IQTISODIY JARAYONLARNI O'RGANISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING ROLI.....</i>	125
Ochilova Maftuna <i>QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGI TIZIMIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....</i>	133
Xidoyatova Nigora Shorakibovna <i>URBANIZATSIYA VA AGLOMERATSIYA: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR UCHUN TAHLILY YONDASHUV.....</i>	138
To'rayev Doston Erkin o'g'li <i>NANO-O'LCHAMLI MATERIALLARDA ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIKNING PASAYISHI SABABLARI.....</i>	146

УЧРЕДИТЕЛИ:

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН
КАРШИНСКИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ

**ОБРАЗОВАНИЕ И
НАУЧНЫЕ
ИННОВАЦИИ**

Журнал является
научным, методическим и
духовно-просветительским
электронным изданием..
Начал издаваться с 2025
года.

Свидетельство о
регистрации №741546
выдано 28 апреля 2025
года Агентством
информации и массовых
коммуникаций при
Администрации
Президента Республики
Узбекистан.

**ТЕХНИЧЕСКИЕ
РЕДАКТОРЫ:**

Э.Раджабов
М.О.Мейлиева
Ш.У.Джабборов
Т.С.Ганиев

**АДРЕС РЕДАКЦИИ
ЖУРНАЛА:**

Республика Узбекистан,
Кашкадарьинская область
Каршинский район, Кат улица
Мустакиллик, дом 71.
E-rochta: ilmiy-jurnal@kiu.uz
Телефон: +998901264010
Почтовый индекс: 180200
Сайт: kiu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Панжиев Улугбек Рустамович
доктор философии по химии (PhD), доцент

РЕДАКТОР:

Марасулова Умида Норкузиевна
кандидат педагогических наук, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Якубов Ахтам Нусратиллаевич	- доктор юридических наук (DSc)
Боймуродов Шухрат Ташкентович	- доктор философии по истории (PhD), доцент
Турдиев Шохрух Раззакович	- доктор педагогических наук (DSc), профессор
Хаккулов Фазлиддин Фахриддинович	- доктор философии по экономике (PhD)
Курбанова Азиза Уктамовна	- доктор философии по педагогике (PhD)
Авазназаров Одилжон Рахматуллоевич	- доктор философии по филологии (PhD), доцент
Абдуллаева Умида Абдукадировна	- доктор философии по филологии (PhD)
Ибрагимов Сухроб Латифович	- доктор философии по педагогике (PhD), доцент
Хусаинов Ойбек Джаббарович	- доктор философии по экономике (PhD)
Чориев Санжар Анварович	- доктор философских наук, профессор
Эркаев Абдурахим Панджиевич	- кандидат философских наук, профессор
Миркасымова Маргуба Миркабилловна	- доктор педагогических наук, профессор
Эргашева Юлдуз Алимовна	- доктор исторических наук, профессор
Файзиева Мавлуда Худояровна	- Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Оманов Баходир Нуриллаевич	- доктор философских наук (DSc), профессор
Файзуллаев Максуд Абдуллаевич	- доктор географических наук (DSc), доцент
Бозоров Ориф Чаманович	- кандидат филологических наук (PhD), доцент
Канатова Феруза Бабакуловна	- кандидат философских наук, доцент
Сохибов Акром Рустамович	- кандидат педагогических наук, профессор

**Рекомендован к публикации решением Совета
Каршинского международного университета
№1 2025 года**

*При использовании материалов, опубликованных на
страницах журнала, обязательна ссылка: Взято из
научного журнала «Образование и научные инновации»*

*Редакция не принимает на себя обязательств по
рецензированию и возврату представленных статей.*

*За достоверность приведённых в статье фактов и
сведений ответственность несёт автор.*

*Все материалы, размещённые в электронной версии
журнала, считаются опубликованными и являются
объектами авторского права.*

СОДЕРЖАНИЕ

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

- Абдираимова Гулрух*
АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ВЛИЯНИЮ ПРИНЦИПОВ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ
И СИСТЕМНОСТИ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ
ОСНОВЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ 11
- Мухлиса Джумаева*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО И
КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ..... 17
- Рузиева Ирода Пайзиллоевна*
ФОРМИРОВАНИЕ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ
КОРРУПЦИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ..... 21

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

- Рахимова Малохатхон Одилжон кизи*
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОВ В КАЧЕСТВЕ ЭПИТЕТОВ..... 28
- Рахимкулова Лобар Хамро кизи*
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА ПЕРЕПИСКИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ..... 34
- Шомуродова Махлиё Мингнор кизи*
РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ 44
- Маннонова Мафтуна Шукрилло кизи*
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ
УЗБЕКСКОГО ГОНЧАРНОГО ДЕЛА..... 48
- Рахмонова Мохинур Зохиловна*
РАЗВИТИЕ ЯЗЫКА В РАЗНООБРАЗНЫХ ЯЗЫКОВЫХ КОНТЕКСТАХ..... 53
- Дилором Поёнова Одилжон кизи*
БУДУЩЕЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ЭПОХУ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ГЛОБАЛЬНАЯ ПЕРСПЕКТИВА 58

СОЦИАЛЬНЫЕ НАУКИ

- Шерматов Джавахир Шерзатович*
РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА
НАСИЛИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ 67
- Якубова Гульхаё*
ПРОБЛЕМЫ КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ И ЭТИКИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ
УСЛУГАХ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ПОДРОСТКОВ 73
- Гайратов Бобурмирзо Алишерович*
ПРАВОВАЯ СЛУЖБА В ВЫСШИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ:
СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ ВЛИЯНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ 78
- Кахрамонов Шахзод Бурхонович*
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
МЕНЕДЖЕРОВ В РАЗВИТИИ АКАДЕМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ
АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ 85

ЕСТЕСТВЕННЫЕ И ТОЧНЫЕ НАУКИ

- Панжиев Улугбек Рустамович*
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ 91
- Муродов Шукрилла Абдусайд угли*
ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМА GOOGLE COLAB И ЦЕЛЕВОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ..... 95

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

<i>Хусаинов Ойбек Джаббарович</i> <i>ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В</i> <i>ЖИВОТНОВОДСТВЕ.....</i>	105
<i>Рамазонов Шамил Улугбек угли</i> <i>ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО</i> <i>НАЛОГА С ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</i>	111
<i>Тогаева Гулихон Зафаровна</i> <i>МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ</i> <i>ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ.....</i>	118
<i>Мухиддинова Гулзода Шукур кизи</i> <i>РОЛЬ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ</i> <i>ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ.....</i>	125
<i>Мафтуна Очилова</i> <i>ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗЕМЕЛЬ НА</i> <i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ</i> <i>СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИЕЙ.....</i>	133
<i>Хидаятова Нигора Шоракибовна</i> <i>УРБАНИЗАЦИЯ И АГЛОМЕРАЦИЯ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД</i> <i>ДЛЯ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....</i>	138
<i>Тураев Достон Эркинович</i> <i>ПРИЧИНЫ СНИЖЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ В</i> <i>НАНОМАСШТАБНЫХ МАТЕРИАЛАХ.....</i>	146

FOUNDERS:

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATION MINISTRY
KARSHI INTERNATIONAL
UNIVERSITY

**EDUCATION AND
SCIENTIFIC
INNOVATIONS**

scientific-methodical,
spiritual-enlightening
electronic journal published
since 2025.

The Agency for Information
and Mass Communications
under the Administration of
the President of the
Republic of Uzbekistan
issued a publication
certificate No. 741546 on
April 28, 2025.

**TECHNICAL
EDITORS:**

E.Rajabov
M.O.Meyliyeva
Sh.U.Jabborov
T.S.Ganiyev

MAGAZINE ADDRESS:

Republic of Uzbekistan,
Kashkadarya region,
Karshi district, Kat MFY,
Mustakillik street, house 71.
Email: ilmiy-jurnal@kiu.uz
Telephone: +998901264010
Pochta index: 181200
Website: kiu.uz

EDITOR-IN-CHIEF:

Ulugbek Rustamovich Panjiyev
Doctor of Philosophy in Chemical Sciences (PhD), associate professor

EDITOR:

Umida Norqozievna Marasulova
Candidate of Pedagogical Sciences, associate professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Akhtam Nusratilloevich Yakubov	-	Doctor of Legal (DSc)
Shukhrat Toshkentovich Boymurodov	-	Doctor of Philosophy in History (Phd), associate professor
Shokhrukh Razzakovich Turdiyev	-	Doctor of Pedagogical Sciences (Dsc), professor
Fazliddin Fakhriddinovich Haqqulov	-	Doctor of Philosophy in Economics (Phd)
Aziza Uktamovna Kurbanova	-	Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (Phd)
Odiljon Rakhmatulloyevich Avaznazarov	-	Doctor of Philosophy in Philological Sciences (Phd), associate professor
Umida Abdukadirovna Abdullayeva	-	Doctor of Philosophy in Philological Sciences (Phd)
Sukhrob Latifovich Ibragimov	-	Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (Phd), associate professor
Oybek Jabbarovich Khusainov	-	Doctor of Philosophy in Economics (Phd)
Sanjar Anvarovich Choriyev	-	Doctor of Philosophy, professor
Abdurakhim Panjiyevich Erkayev	-	Candidate of Philosophy, professor
Marguba Mirqobilovna Mirqosimova	-	Doctor of Pedagogical Sciences, professor
Yulduz Alimovna Ergasheva	-	Doctor of History, professor
Mavluda Khudayarovna Fayziyeva	-	Doctor of Psychology (DSc)
Bahodir Nurillayevich Omonov	-	Doctor of Philosophy (Dsc), professor
Maqsud Abdullayevich Fayzullaev	-	Doctor of Geography (DSc), associate professor
Orif Chamanovich Bozorov	-	Candidate of Philological Sciences (PhD), associate professor
Feruza Bobokulovna Qanoatova	-	Candidate of Philosophy, associate professor
Akrom Rustamovich Sokhibov	-	Candidate of Pedagogical Sciences, professor

**Recommended for publication by Decision No. 1 of the
Council of Karshi International University dated 2025.**

When using materials published on the pages of the journal, it is mandatory to indicate that they were taken from the scientific journal "Education and Scientific Innovations".

The editorial board is not obligated to review and return submitted articles.

The author is responsible for the facts and information presented in the article.

All materials posted in the electronic form of the journal are considered published and are subject to copyright.

TABLE OF CONTENTS

PEDAGOGICAL SCIENCES

Gulrukh Abdiraimova <i>AN ANALYTICAL APPROACH TO THE IMPACT OF CONTINUITY AND CONSISTENCY PRINCIPLES ON COGNITIVE DEVELOPMENT AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS IN PEDAGOGICAL RESEARCH</i>	11
Mukhlisa Jumayeva <i>PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE AND CRITICAL THINKING IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS</i>	17
Ruziyeva Iroda Payzilloyevna <i>FORMATION OF JUSTICE AND SPIRITUAL VALUES IN COMBATING CORRUPTION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS</i>	21

PHILOLOGICAL SCIENCES

Rakhimova Malokhatkhon Odiljon qizi <i>USE OF TERMS AS EPITETS</i>	28
Rahimkulova Lobar Hamro qizi <i>LINGUISTIC EXPERTISE OF SOCIAL NETWORK CORRESPONDENCE</i>	34
Shomurodova Makhliyo Mingnor qizi <i>THE ROLE OF TEACHERS IN FOSTERING CRITICAL THINKING SKILLS</i>	44
Mannonova Maftuna Shukrillo qizi <i>LINGUOCULTUROLOGICAL INTERPRETATION OF THE TERMINOLOGY OF UZBEK CERAMICS</i>	48
Mokhinur Rakhmonova Zokhidovna <i>LANGUAGE DEVELOPMENT IN VARIED LINGUISTIC CONTEXTS</i>	53
Dilorom Poyonova Odiljon qizi <i>THE FUTURE OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A GLOBAL PERSPECTIVE</i>	58

SOCIAL SCIENCES

Shermatov Javohir Sherzotovich <i>THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF THE SENSE OF VIOLENCE IN ADOLESCENCE</i>	67
Gulhayo Yoqubova <i>CONFIDENTIALITY AND ETHICAL ISSUES IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE BASED PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR ADOLESCENTS</i>	73
G'ayratov Boburmirzo Alisherovich <i>LEGAL SERVICE ACTIVITIES IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS: SOCIO-LEGAL IMPACT AND EFFECTIVENESS</i>	78
Qahramonov Shahzod Burhonovich <i>THEORETICAL FOUNDATIONS AND EFFECTIVENESS OF MANAGERS' ACTIVITIES IN DEVELOPING STUDENTS' ACADEMIC AND SOCIAL ACTIVENESS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS</i>	85

NATURAL AND EXACT SCIENCES

Ulugbek Panjiyev Rustamovich <i>THEORETICAL BASIS FOR TRAINING FUTURE ENGINEERS</i>	91
Murodov Shukrilla Abdusaid ogli <i>GOOGLE COLAB ONLINE PLATFORM AND ITS TARGETED USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS</i>	95

ECONOMIC SCIENCES

<i>Xusainov Oybek Djabbarovich</i> <i>CHALLENGES TO IMPROVING ECONOMIC EFFICIENCY IN LIVESTOCK.....</i>	105
<i>Shamil Ulugbek ogli Ramazonov</i> <i>WAYS TO IMPROVE THE ADMINISTRATION OF LAND TAX ON INDIVIDUALS.....</i>	111
<i>Gulikhon Zafarovna Togayeva</i> <i>METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ANALYZING AND ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF KASHKADARYA REGION.....</i>	118
<i>Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi</i> <i>THE ROLE OF MATHEMATICAL MODELING IN THE STUDY OF ECONOMIC PROCESSES.....</i>	125
<i>Maftuna Ochilova</i> <i>ASSESSMENT OF THE IMPACT OF AGRICULTURAL LANDS ON THE EFFICIENCY OF PROVIDING THE POPULATION WITH AGRICULTURAL PRODUCTS.....</i>	133
<i>Hidoyatova Nigora Shorakibovna</i> <i>URBANIZATION AND AGGLOMERATION: AN ANALYTICAL APPROACH FOR DEVELOPING COUNTRIES.....</i>	138
<i>Doston Erkinovich Turayev</i> <i>CAUSES OF REDUCED THERMAL CONDUCTIVITY IN NANOSCALE MATERIALS.....</i>	146

UZVIYLIK VA IZCHILLIK TAMOYILLARINING KOGNITIV O'SISHGA TA'SIRI VA ULARNING PEDAGOGIK TADQIQOTLARDAGI NAZARIY ASOSLARI BO'YICHA TAHLILY YONDASHUV

Abdiraimova Gulrux

Qarshi xalqaro universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Email: gulruhabdiraimova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7766-6336>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada kognitiv o'sishni ta'minlashda uzviylik va izchillik tamoyillarining roli va ularning pedagogik tadqiqotlardagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda bu tamoyillar o'quv jarayonining mantiqiy ketma-ketligi va mazmuniy bog'liqligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotda uzviylik tamoyili o'quvchining bilimlarini bosqichma-bosqich va uyg'un tarzda shakllantirish zaruriyatini asoslab beradi, izchillik tamoyili esa bilimlarning ketma-ket va tizimli ravishda o'zlashtirilishini kafolatlaydi. Muallif mazkur tamoyillarning pedagogik tajriba va nazariyalardagi ifodasi, ularning didaktik ahamiyati hamda kognitiv rivojlanish strategiyalaridagi o'rnini tahlil qiladi. Xulosa sifatida, ta'lim jarayonida bu tamoyillar uyg'unligini ta'minlash kognitiv salohiyatni shakllantirish va o'quv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.*

***Tayanch so'zlar:** kognitiv rivojlanish, uzviylik, izchillik, pedagogik tadqiqot, tamoyil, tahliliy yondashuv, o'zlashtirish, o'quv jarayoni, didaktika, strategiya, tafakkur, intellektual faoliyat, ilmiy asos, o'quv samaradorligi*

АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ВЛИЯНИЮ ПРИНЦИПОВ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ И СИСТЕМНОСТИ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Абдираимова Гулрух

старший преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук

Каршинский международный университет

Эл. почта: gulruhabdiraimova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7766-6336>

***Аннотация.** В данной статье рассматривается роль принципов системности и последовательности в обеспечении когнитивного развития, а также их теоретические основы в педагогических исследованиях. Указывается, что эти принципы являются важными факторами, обеспечивающими логическую последовательность и содержательную целостность учебного процесса при развитии когнитивной деятельности. В исследовании подчеркивается, что принцип системности обосновывает необходимость поэтапного и гармоничного формирования знаний у обучающихся, тогда как принцип последовательности гарантирует усвоение знаний в логической и структурированной форме. Автор анализирует проявление указанных принципов в педагогической практике и теории, их дидактическое значение и роль в стратегиях когнитивного развития. В качестве вывода отмечается, что согласованное применение данных принципов в образовательном процессе способствует формированию когнитивного потенциала и повышению эффективности обучения.*

***Ключевые слова:** когнитивное развитие, системность, последовательность, педагогическое исследование, принцип, аналитический подход, усвоение, учебный процесс, дидактика, стратегия, мышление, интеллектуальная деятельность, научная основа, эффективность обучения.*

AN ANALYTICAL APPROACH TO THE IMPACT OF CONTINUITY AND CONSISTENCY PRINCIPLES ON COGNITIVE DEVELOPMENT AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS IN PEDAGOGICAL RESEARCH

Gulrukh Abdiraimova

Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences,
Qarshi International University

E-mail: gulruhabdiraimova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7766-6336>

***Annotation.** This article analyzes the role of the principles of continuity and consistency in ensuring cognitive development, as well as their theoretical foundations in pedagogical research. These principles are recognized as essential factors that provide logical sequencing and meaningful coherence within the educational process during the development of cognitive activity. The study emphasizes that the principle of continuity substantiates the need for the gradual and harmonious formation of learners' knowledge, while the principle of consistency ensures the structured and sequential assimilation of learning content. The author examines the manifestation of these principles in pedagogical theory and practice, their didactic significance, and their role in strategies for fostering cognitive growth. In conclusion, it is noted that ensuring the integration of these principles within the educational process contributes to the formation of cognitive potential and enhances the effectiveness of learning.*

***Keywords:** cognitive development, continuity, consistency, pedagogical research, principle, analytical approach, assimilation, learning process, didactics, strategy, thinking, intellectual activity, theoretical foundation, learning efficiency*

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kognitiv rivojlanishni ta'minlashda uzviylik va izchillik tamoyillari muhim metodologik asoslardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu prinsiplar o'quv faoliyatida bilimlar, ko'nikma va kompetensiyalarning bosqichma-bosqich, mantiqiy asoslangan tarzda rivojlanishini ifodalaydi va o'z navbatida shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda asosiy mezon hisoblanadi.

Uzviylik prinsipi o'quv jarayonining barcha bosqichlari o'rtasida ichki bog'liqlikni, oldingi bosqichda o'zlashtirilgan bilimlarning keyingi bosqichda tayanch vazifasini bajarishini nazarda tutadi. Ushbu prinsip Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u bolalarning aqliy taraqqiyoti ketma-ket bosqichlardan iborat ekanini ta'kidlaydi [7]. Bunda har bir yangi bilim oldingilar asosida quriladi, ya'ni bilimlar ierarxiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi. Ta'limda bu yondashuv o'quv materialining ketma-ketlikda taqdim etilishini, yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan integratsiyalashgan holda berilishini talab qiladi.

Izchillik prinsipi esa o'quv jarayonida intellektual yuklamaning me'yor asosida taqsimlanishini, o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga mos tarzda bilim berilishini ifodalaydi. Ushbu prinsipga ko'ra, o'quv dasturlari va metodik ta'minotlar o'quvchining tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan, murakkablik darajasi esa bosqichma-bosqich ortib boradigan tarzda tuziladi (12). Shu jihatdan, izchillik prinsipi kognitiv rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda, o'quv yuklamosining doimiy va barqaror oshishini nazorat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki prinsip — uzviylik va izchillik — nafaqat didaktik tizimlarning, balki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalarining ilmiy asosini tashkil qiladi. Xususan, D. B.

Elkonin va V. V. Davydov tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida bilimlarni faol egallash, ularni mustaqil qo'llash va tahlil qilish mexanizmlari aynan uzviylik va izchillik tamoyillari orqali amalga oshiriladi [8].

Bugungi kunda konstruktivistik yondashuv asosida yaratilayotgan ta'lim modellari ham mazkur prinsiplar asosida shakllanmoqda. Masalan, J. Bruner kognitiv rivojlanishni ta'minlash uchun "spiral o'qitish" modelini taklif qilgan bo'lib, u ilmiy mazmuni takroriy, lekin har gal chuqurlashtirilgan holda qayta ko'rib chiqishni tavsiya etadi [11]. Bu esa uzviylik va izchillik prinsiplarining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham pedagogik jarayonlarga singdirilganini anglatadi.

Umuman olganda, uzviylik va izchillik prinsiplarining kognitiv rivojlanishga tatbiqi o'quv faoliyatining mantiqiy va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bu prinsiplar nafaqat ta'lim jarayonining strukturaviy asoslarini belgilaydi, balki o'quvchilarning intellektual va reflektiv kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ushbu prinsiplarning ilmiy-nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Kognitiv faoliyatda uzviylik — bu tafakkurning ichki tartibida, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikda, bilimlar tizimi ichidagi mantiqiy zanjirlarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematikadan formulalarni tushunish, tarixiy voqealarni izchil anglash, til qoidalarini qo'llash kabi faoliyatlarni faqat mavjud bilimlarga tayangandagina samarali kechadi.

Pedagogik nuqtai nazardan izchillik - bu ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarining o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich, ketma-ketlikda tashkil etilishi deganidir. Ushbu prinsip har bir yangi bilimning avvalgi bilimlarga tayanishi, ularni chuqurlashtirishi va kengaytirishini taqozo etadi. Natijada o'quvchi o'zlashtirayotgan bilimlar tizimligi, barqarorligi va mustahkamligi ta'minlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ham izchillik prinsipi ta'limda mantiqiylik, bosqichlilik va uzviylikni ta'minlovchi markaziy omillardan biri sifatida qaraladi. Masalan, A.V.Xutorskiy va Yu. K. Babanskiylarning didaktik ishlanmalarida izchillik tushunchasi o'quv faoliyatining mantiqiy tuzilishini, uning samarali va natijaviy rivojlanishini kafolatlaydigan omil sifatida talqin etiladi. Shu boisdan ham izchillik nafaqat lingvistik yoki lug'aviy kategoriya, balki chuqur metodologik hamda pedagogik kategoriya sifatida zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan.

Shu o'rinda taniqli chex pedagogi Komenskiyning qarashicha – maktabda o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, o'quvchilarni so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatishi kerak. Mehnat qilish kishini ulug'laydi, – deydi Komenskiy. Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish kerakligini ilgari suradi. 1632-yil "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi" darslik va qo'llanmalarini yaratgan.

Komenskiyning "Hamma narsani bilish, hammaga bilim berish" shiori ostida yozilgan asarlari ilg'or fikrli inglizlarda zo'r qiziqish uyg'otgan [17]. Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rinni egallaydi. Bunda u tabiiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda

bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari hisobga olinib, darsni tabiat borlig'iga moslab olib borish kerak, degan g'oya ilgari suriladi. Masalan, Qush o'ziga uya yasaydi, uya issiq va yumshoq bo'lishi kerak. Maktab ham xuddi shunday bo'lishi kerak. Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Onglik va faollik.

2. Ko'rsatmalilik.

3. Izchilik va tizimlilik.

4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash. Onglilik va faollik tamoyili ta'lim jarayonida o'quvchilarning passiv bo'lib materialni tushunmay mexanik ravishda quruq yodlashi emas, balki bilim va malakalarini faol ravishda anglab chuqur va asosli bilim olishi zarur. Ta'limda ko'rsatmalilikdan foydalanish qadimiydir. Komenskiyning fikricha, ko'rsatmalilik tamoyili ko'rsatib o'tish usuli emas, balki barcha sezgi organlari narsalar va hodisalarni eng ravshan, asosli mustahkam puxta o'zlashtirib olishga jalb qilish vositasidir. Ko'rsatmalilik tamoyilini joriy etishda quyidagilarga amal qilish zarur:

1) mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish;

2) narsalarning modelini yoki nusxasini ko'rsatish;

3) narsa va hodisalar tasvirlangan suratlarni ko'rsatish. Ilm sirlarini bilib olish uchun yoshlardan quyidagilar talab qilinadi.

1. Sof aqlga ega bo'lish;

2. O'rganish zarur bo'lgan narsani ko'rish;

3. Diqqatni to'play olish;

4. Kuzatish lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda ketma-ket ko'rsatish.

Sezgilar vositasida mukammal idrok qilingan narsalar, hodisalar xotirada uzoq vaqt mustahkamlanadi. Komenskiy shunday yozadi: "Agar kishi biror marta qand yegan bo'lsa, tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi". Ko'z bilan ko'rilgan narsani isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun Komenskiy maktablar va muallimlar darslarda ko'rsatma qurollarni ko'proq ishlatishi zarur deb bildi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda uzviylik va izchillik uyg'unligi. Har ikkala prinsipning uyg'un holda qo'llanishi, ayniqsa, murakkab tushunchalarni o'zlashtirishda, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda, ijodiy fikrlashni shakllantirishda yuqori samara beradi. Ta'lim jarayonida bu yondashuvlar kognitiv strategiyalar (masalan, taqqoslash, mantiqiy izlash, sabab-oqibatni aniqlash, tushunchalarni xaritalash) bilan uyg'unlashganda o'quvchi fikrining izchilligi, nutqining aniqligi va tafakkurining chuqurligi ortadi.

Zamonaviy pedagogikada konstruktivistik yondashuvlar (masalan, faol o'rganish, muammoli vaziyatlar, loyihaviy o'qitish) aynan shu uzviylik va izchillik tamoyillariga tayanadi. Chunki bilim shaxsning faol ishtirokida, uning mavjud tajribasiga suyangan holda va bosqichma-bosqich quriladi.

Shu asosda aytish mumkinki, kognitiv faoliyatni rivojlantirishda uzviylik va izchillik prinsiplariga asoslangan metodik yondashuvlar — bu nafaqat nazariy zarurat, balki

ta'lim jarayonining amaliy natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biridir.

Mamlakatimizning yetakchi pedagog olimlari R.Mavlonova va boshqalar hammuallifligida nashr etilgan "Umumiy pedagogika" asarida ta'lim prinsiplari ko'p yillik izlanishlar va munozaralar natijasida pedagogikada yuzaga kelgani hamda dars o'tishning asosiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilganligi haqida bayon qilingan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: -onglilik va faollik, -ko'rgazmalilik, - tizimlilik va muntazamlilik – mustahkamlik, - tushunarlilik, -ilmiylik, -nazariya va amaliyot birligi. Mazkur tamoyillar pedagogik omma tomonidan *umumiy tamoyillar* deb qabul qilingan[14].

Bu tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy qonuniyat sifatida olinadi. Shu bilan birgalikda tizimlilik va muntazamlilik tamoyili mazmunan uzviy va izchil tarzda bayon qilinadi. "Uzviylik" – to'xtovsiz, muntazam davom etuvchi jarayon tushunchasini anglatadi. "uzviylik" tushunchasi yuqoridagi g'oyaga asosan – ma'naviy va intellektual shaxs ta'lim – tarbiyasini uzluksiz yo'lga qo'yishni anglatadi. Faqat uzluksiz davom etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonlardagina shaxs shakllanishi mumkin. Shaxsni shakllantirmasdan, rivojlantirmasdan turib, davlatni ham, jamiyatni ham, rivojlantirish mumkin emas. Uzluksiz ta'lim shaxs rivojlanishiga jadal ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omildir.

Xulosa. Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda uzviylik va izchillik tamoyillarining uyg'unligi o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu tamoyillar o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich, tizimli hamda mantiqiy ravishda shakllantirish imkonini beradi. Uzviylik tamoyili kognitiv rivojlanish jarayonining ichki uyg'unligini, izchillik esa bilimlarning tartib va ketma-ketlikda o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu tamoyillar o'quv dasturlarini loyihalash, interaktiv metodlarni tanlash, va differensial yondashuvlarni qo'llashda asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Uzviylik va izchillik uyg'unligi asosida tashkil etilgan ta'lim kognitiv faoliyatni faollashtirib, mustahkam bilimlar negizini shakllantiradi, mustaqil fikrlash, muammo yechish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu boisdan, zamonaviy pedagogik jarayonlarda kognitiv rivojlanishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalari va metodikalar uzviylik hamda izchillik tamoyillariga asoslanishi zarur. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini to'laqonli namoyon etishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining [PF-5847-coH](#) 08.10.2019. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
3. [Vazirlar Mahkamasining 157-coH 27.03.2024. "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"](#) qarori

4. «Управление познавательной деятельностью школьников в процессе обучения» " Москва. "Педагогика"- 1988
5. Коротаева, Е.В. Активизация познавательной деятельности учащихся. – Екатеринбург, 1995. – 83с.
6. Зимняя И.А. “Педагогическая психология” Москва. “Логос”. 2005
7. Ausubel, D. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart & Winston.
8. Gagné, R. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction. New York: CBS College Publishing.
9. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books.
10. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
12. Shodmonov Sh.Sh. (2022). Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
13. Norkulov, B. (2020). Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Mavlyanova, N.Raxmankulova. – “Umumiy pedagogika”. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013
15. Marzano, R. J. (2007). The Art and Science of Teaching. ASCD.
16. Shokirova, D. (2023). “Kognitiv yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari”, O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, №2.
17. Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI <http://mamun.uz/uz/page/56>. 2022
18. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining “O'zbekiston til va madaniyat” jurnali ISSN 2181-922X. 2023
19. Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. [International journal of artificial intelligence vol. 4 no. 02 \(2024\): volume 04 issue 02 nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students | international journal of artificial intelligence \(academicpublishers.org\)](https://academicpublishers.org/). 2024-05-04
20. KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI. G.Abdiraimova. “Pedagogik mahorat” jurnali 6-son 2025

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING
KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI****Jumayeva Muxlisa**

Qarshi xalqaro universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Email: jumayevamuxlisa40@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0081-4783>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi davr har bir insondan dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini chuqur tushunish, turli millat va elatlarning dunyoqarashi, g'oyalari hamda manfaatlarini bilish qobiliyatini talab etayotgani ta'kidlanadi. Bunday bilim va tushunchalarni egallash esa kreativ hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishini zarur qiladi. Shuningdek, maqolada bo'lajak o'qituvchilarda ushbu fikrlash turlarini shakllantirish uchun mavjud shart-sharoitlar, ularni rivojlantirish yo'llari va usullari tizimli tarzda yoritib berilgan.*

***Tayanch so'zlar:** kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich sinf, o'qituvchi, rivojlanish, dunyoqarash, jamiyat, metodologiya, muammoni yechish ko'nikmasi, aqliy o'sish.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ
КРЕАТИВНОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****Мухлиса Джумаева**

Преподаватель кафедры Социально-гуманитарные науки

Каршинский международный университет

Эл. почта: jumayevamuxlisa40@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0081-4783>

***Аннотация.** В статье подчёркивается значимость способности каждого человека понимать окружающий мир, всесторонне воспринимать законы жизни и общества, а также осознавать мировоззрение, идеи и интересы разных народов и наций. Для этого необходимо развитие как креативного, так и критического мышления. Особое внимание уделяется условиям, в которых будущие педагоги должны формировать эти навыки, а также систематически изложенным методам и подходам к их развитию.*

***Ключевые слова:** креативное мышление, критическое мышление, начальная школа, учителя, развитие, мировоззрение, общество, методология, навыки решения проблем, интеллектуальный рост*

**PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE AND
CRITICAL THINKING IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS****Mukhlisa Jumayeva**

Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences

Karshi International University

E-mail: jumayevamuxlisa40@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0081-4783>

***Annotation.** This article highlights the importance of individuals being able to perceive the world, understand the principles of life and society from multiple perspectives, and recognize the worldviews, beliefs, and interests of different nations and cultures. Developing this capability relies on fostering both creative and critical thinking. The article also explores the current environment in which future educators should cultivate these skills and outlines systematic methods and strategies for their effective development.*

***Keywords:** Creative thinking, critical thinking, primary school, teachers, development, worldview, society, methodology, problem-solving skills, intellectual growth*

Bugungi kunda xalqaro miqyosdagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tahliliy fikrlashga ega, murakkab masalalarni chuqur tahlil qila oladigan, ularning yechimiga samarali yondasha biladigan, shuningdek, turli nuqtayi nazarlarni baholab, asosli fikr almashuvini amalga oshira oladigan shaxsni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Ularda zamonaviy ta'lim tendensiyalariga mos tarzda asosli fikrlar bildirish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, isbot va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari sifatida tayyorlanayotgan yoshlarda ijodiy yondashuv va real hayotdagi muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha zarur me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilmoqda. "Kadrlar bilim va malakasini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu esa pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayonini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bilan bog'liq konseptual asoslar O'zbekiston olimlari — A. Abduqodirov, B. Abdullayeva, U. Begimqulov, Z. Nasimova kabi tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Shuningdek, MDH olimlari A. V. Korjuev, V. A. Popkov, Ye. L. Ryazanova hamda xorijiy mutaxassislar — P. P. Blonskiy va L. N. Kogan asarlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotchi N. A. Podgoreskayaning fikricha, kreativ fikrlash tasodifiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Unga ko'ra, kreativ fikr yuritish — bu insonning bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiyasidir, u shaxsga murakkab va noan'anaviy vaziyatlarda samarali yechimlar topishga imkon beradi. Ta'lim tizimining asosiy vazifasi — o'quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan qurollantirishdan iborat. Ushbu yondashuv zamonaviy global muhitga moslashuvchan, raqamli savodxonlikka ega va doimiy o'zgaruvchan mehnat bozoriga tayyor kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida ular yangi texnologiyalarni qo'llash, hali mavjud bo'lmagan sohalarida faoliyat yuritish, mashinalar bajara olmaydigan ishlarni ado etish va global muammolarga innovatsion yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, ayniqsa ularning divergent (ijodiy-ijodkorona) va konvergent (mantiqiy-analitik) tafakkur turlarini uyg'un holda rivojlantirish, ushbu jarayonning pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va samarali modelini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

O'quvchilarda mustaqil fikr va shaxsiy nuqtai nazarni shakllantirish;
turli g'oyalarni solishtirib, ularning ustun jihatlarini asoslab berish malakasini rivojlantirish;

Murakkab vaziyatlarda muammo yechimini topish ko'nikmasini shakllantirish;
asosli dalillarga tayanib fikr bildirish va bahs-munozaralarda ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish;

Umumiy qarorga kelish uchun jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish;
shaxsiy tajriba va dunyoqarashning fikrlar va tasavvurlarga qanday ta'sir ko'rsatishini anglash.

Tanqidiy va kreativ fikrlashni samarali rivojlantirishda, nazariy bilimlarni quruq o'zlashtirish emas, balki talabalarni faol fikrlashga undovchi, amaliyot bilan uyg'unlashgan ta'lim shakllari ko'proq natija beradi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning real muammolarni aniqlab, ularga mustaqil tarzda yechim izlash jarayonida faol ishtiroki kreativ va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topiladi:
Nazariy usullar: tahliliy-sintetik tahlil, qiyosiy taqqoslash, analogiyalar orqali tushuntirish, modellashtirish;

Diagnostik usullar: so'rovnomalar, testlar, kuzatuvlar, loyiha asosida ishlash;
Prognostik usullar: ekspert baholash, mustaqil fikrlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
Tajriba-sinov ishlari: pedagogik tajribalar o'tkazish;
Matematik-statistik usullar: statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va grafik ko'rinishda ifodalash.

Ushbu tizimli va kompleks yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish — ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kreativ tafakkurga ega bo'lgan o'qituvchilar yangicha pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, dars jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish va o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otish orqali ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyat orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanib boradi. Bu esa ularga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: Fikrlash faoliyati jadallashadi va murakkab vazifalarni hal qilishga bo'lgan intilish kuchayadi; O'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yish va bu maqsadlarga erishish yo'llarini izlab topish ko'nikmalari rivojlanadi; O'zaro muloqotga ochiqlik va samarali aloqa o'rnatish malakasi ortadi; Yangi bilim va axborotlarga bo'lgan qiziqish oshadi; O'quv faoliyatida faollik va ishtirok etish darajasi ortadi; Turli fikr va nuqtai nazarlarni tinglash, ularni tahlil qilishga bo'lgan ichki ehtiyoj kuchayadi; O'z fikrlarini erkin va ishonch bilan ifoda etish istagi yuzaga keladi; Egallangan bilim va tushunchalarni

qayta tahlil qilish, ularni asoslangan fikr va mulohazalarga aylantirish qobiliyati shakllanadi.

Bu kabi kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, balki ularni zamonaviy ta'lim muhitining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri — shaxsni kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan ta'minlashdir. Bunday shaxs nafaqat fikrlarni tahlil qila olishi, balki ularni asoslab, muammoning tub mohiyatini anglab yetib, turli yechimlarni aniqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u haqiqatni shaxsiy fikr yoki taxminlardan ajrata olishi va dalillarga tayangan holda xulosalar chiqarishi zarur.

Oliy ta'lim jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hayotiy muammolarni ijodiy hal etishga yo'naltirish, shuningdek, ularning o'z-o'zini rivojlantirish va tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Kreativ va tanqidiy fikrlash – bu g'oya va imkoniyatlarni ijodiy tarzda uyg'unlashtirish, mavjud tushunchalar va konsepsiyalarni qayta ko'rib chiqish, ularni yangi nuqtai nazardan talqin etish jarayonidir. Bu jarayon bilim olishning turli bosqichlarida bir vaqtning o'zida faol va interaktiv tarzda kechadi. Bunday fikrlash faqat yuzaki mulohazalar bilan cheklanmaydi, balki faktlarning sabablari va oqibatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. U shubhalanish, mavjud haqiqatlarga tanqidiy nazar solish, turli qarashlarni ishlab chiqish va mantiqiy dalillarni himoya qilish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ma'qul va noma'qul me'yorlarni to'g'ri tushunib, ularni tahlil qila olishlari kerak. Vaziyatlarni chuqur anglagach, ular kreativ va tanqidiy tahlil jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu jarayon ongli fikrlash tamoyiliga asoslanib, tahlil bilan haddan tashqari chuqurlashish o'rtasidagi tafovutni anglashni talab qiladi. Innovatsion faoliyat esa shaxsiy tashabbus va izlanishlarga bog'liq bo'lib, yangi g'oyalar va yondashuvlarni yaratish uchun muammolarni turli yo'llar bilan hal etishni o'rganish zarur. Shu tariqa inson har qanday hodisaga o'ziga xos yondashuvni ishlab chiqib, uning mazmuni va yashirin jihatlarini chuqur anglashga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.-"FAN" nashriyoti, 2009. -145 b.
2. Braun T.P. Adaptation of students to training conditions in high school as the factor of active interaction of the individual with the educational environment // Bulletin of the Kostroma University named after N. A. Nekrasov, 2007, № 3. P. 20–26.
3. Eshmuradov A.M., Xaytbaev A.F. Masofaviy o'qitishning asosiy maqsadi, xususiyatlari va muammolari. "Hozirgi sharoitda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2021. 74-76-bet.

4. Fayzullaeva B.B., Axmedov B.I. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. "Hozirgi sharoitda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2021. 143-146-bet.

5. Durmenov Sh.N. Muammoli-qidiruv texnologiyalari o'quvchilarning chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikda kreativ va tanqidiy fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish strategiyasi sifatida. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference / Hosted from Paris, France / <https://conferencepublication.com> February 27th 2021. 93-97-b.

6. Mahmudov M. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 6. 84-88-b. www.xtjurnali.zn.uz

7. Niyozova I.N. Kreativ va tanqidiy rivojlantiruvchi strategiyalar haqida nazariyalar va ulardan foydalanishning mohiyati. Synergy: Journal Of Ethics And Governance. Volume: 01 Issue: 06 | 2021. ISSN: 2181-2616. 28-37-betlar. 28-37-betlar.

8. Qarajayeva D.N. Huquqshunos faoliyatida kreativ va tanqidiy fikrlashning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences August 2022. 215-221-b.

9. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish shartlari va bosqichlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021 yil №3.

10. Rasulova Z.D. Texnologiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish/ "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10/ 2021 yil. 471 - b

11. Raximov Z. Ta'lim islohotlarini amalga oshirishda pedagogda mujassam bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy sifatlar. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie. 2022, 5 (114). 25-32-b.

12. Robert H. Ennisning kreativ va tanqidiy fikrlash moyilligi: ularning mohiyati va baholanishi. Norasmiy mantiq jildi 18, № 2 & 3 (1996): 165-182, 166-bet.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA ADOLAT VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Ruziyeva Iroda Payzilloyevna

Shahrisabz shahar 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

E-mail: irodaru31@mail.ru ;

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4071-7157>

***Annotatsiya:** maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda adolat tamoyillari hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ongida halollik, poklik va ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalash, shuningdek, pedagogik jarayonda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishning metodik mexanizmlari ilmiy asoslangan. Maqolada korrupsiyaning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, uning ijtimoiy-axloqiy ildizlari hamda maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaviy xatti-harakatlarning oldini olishning ma'naviy-ma'rifiy omillari yoritiladi.*

Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida adolat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish, bolalarda halollik va fuqarolik ongini shakllantirish, pedagoglar faoliyatini ma'naviy-axloqiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, korrupsiyaga qarshi kurash, adolat tamoyili, ma'naviy qadriyatlar, halollik tarbiyasi, pedagogik yondashuv, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy-ma'rifiy omillar, innovatsion ta'lim, fuqarolik ong.

ФОРМИРОВАНИЕ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ КОРРУПЦИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Рузиева Ирода Пайзиллоевна

директор государственного дошкольного образовательного учреждения №11 города Шахрисабз

E-mail: irodaru31@mail.ru ,

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4071-7157>

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические основы формирования принципов справедливости и национально-духовных ценностей в процессе противодействия коррупции в дошкольных образовательных учреждениях. Научно обоснованы методические механизмы воспитания у детей дошкольного возраста честности, чистоты и социальной ответственности, а также формирования в педагогическом процессе непримиримого отношения к коррупции. В работе раскрываются негативные последствия коррупции для общественной жизни, её социально-нравственные корни, а также духовно-просветительские факторы профилактики коррупционных проявлений в системе дошкольного образования. Анализируется передовой зарубежный опыт и обосновываются инновационные педагогические подходы, направленные на формирование справедливости и духовных ценностей в условиях Узбекистана. Результаты исследования способствуют повышению эффективности противодействия коррупции в дошкольных образовательных учреждениях, формированию у детей честности и гражданского сознания, а также совершенствованию деятельности педагогов на духовно-нравственной основе.

Ключевые слова: дошкольное образование, противодействие коррупции, принцип справедливости, духовные ценности, воспитание честности, педагогический подход, социальная ответственность, духовно-просветительские факторы, инновационное образование, гражданское сознание.

FORMATION OF JUSTICE AND SPIRITUAL VALUES IN COMBATING CORRUPTION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ruziyeva Iroda Payzilloyevna

Director of Preschool Educational Institution No. 11, Shahrisabz city

E-mail: irodaru31@mail.ru ,

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4071-7157>

Abstract. The article analyzes the theoretical and practical foundations of fostering the principles of justice and national-spiritual values in combating corruption within preschool educational institutions. Methodological mechanisms are scientifically substantiated for nurturing honesty, integrity, and social responsibility in preschool children, as well as for instilling an uncompromising attitude towards corruption in the pedagogical process. The study highlights the negative impact of corruption on social life, its socio-moral roots, and the spiritual-educational factors for preventing corrupt practices in the preschool education system. Advanced international experiences are examined, and innovative pedagogical approaches tailored to the conditions of

Uzbekistan are substantiated for the development of justice and spiritual values. The research results contribute to enhancing the effectiveness of anti-corruption efforts in preschool educational institutions, fostering honesty and civic awareness among children, and improving the professional activities of educators on a moral and ethical basis.

Keywords: *preschool education, anti-corruption, principle of justice, spiritual values, honesty education, pedagogical approach, social responsibility, moral and educational factors, innovative education, civic awareness.*

Kirish

Ta'lim tizimi va jamiyat barqarorligining o'zaro bog'liqligi — zamonaviy sotsiopedagogik tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biridir. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi korrupsiya resurslarning noodatiy taqsimlanishi, imkoniyatlar tengsizligi hamda pedagogik jarayonning shaffof emasligi orqali ijtimoiy adolat tamoyillarini zaiflashtiradi; natijada bu holat bolalar va ularning oilalarining imkoniyatlarini cheklaydi hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Maktabgacha ta'lim esa bolalar ongining dastlabki shakllanish davri sifatida halollik, adolat, hamkorlik va fuqarolik ongini integrativ tarzda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga korrupsiyani oldini olishda preventiv muhit rolini o'ynaydi.

O'zbekiston tajribasi so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida jiddiy qayta tashkil etish va kengayish bosqichini boshdan kechirmoqda. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, sohada asosiy ko'rsatkichlar va tashkil etilgan yangi joylar haqidagi rasmiy relizlarda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar va tanaffuslar soni, yangi joylar yaratish bo'yicha yillik ko'rsatkichlar e'lon qilingan [1]. Xususan, so'nggi yillarda qator hududlarda qishloq va shaharlarda yangi bolalar joylari yaratilishi natijasida qamrov keskin oshirilgan; 2024-yilda yaratilgan qo'shimcha joylar va 2024 yil oxiriga qadar umumiy qamrov 70% dan yuqori ko'rsatkichlarga yetqazilgan[2]. UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlarning tahlillari esa O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida 2017–2022 yillardagi islohotlar natijasida qamrov darajasi va sifat ko'rsatkichlarida sezilarli yaxshilanish kuzatilganini ta'kidlaydi; 2022-yil boshida taxminan 2 million atrofidagi 3–6 yoshdagi bolalarga xizmat ko'rsatildi.

Korrupsiyaning ta'lim sohasiga oid xususiyatlari xalqaro tadqiqotlarda ham keng yoritilgan: ta'lim sektoridagi shaffoflik va hisobdorlikning yetishmasligi nafaqat sifatsiz xizmatga, balki ijtimoiy adolatning buzilishiga olib keladi. Transparency International tomonidan e'lon qilingan davlatlararo indekslar O'zbekistonning jamoat sektori darajasidagi korrupsiya idrokini o'rtacha darajada ekanini ko'rsatadi, bu esa ta'lim muassasalaridagi korrupsiyaga qarshi strategik choralarni kuchaytirishni talab qiladi [4].

Maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish uchun pedagogik jihatdan adolat va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishning roli bir necha asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Tarbiyaviy-metodik ishlar orqali bolalarda adolat va halollik tamoyillarini yoshdan boshlab singdirish;
2. Pedagoglarning etik va ma'muriy mas'uliyatini mustahkamlash, ularning ish faoliyatiga shaffof nazorat mexanizmlarini joriy etish;

3. Muassasa ichida va jamiyat darajasida resurslarning taqsimlanishida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash.

Bu jihatlar jamiyatdagi ijtimoiy ko'rsatkichlar va makro darajadagi siyosatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi va shu bois ularni ilmiy asosda tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola O'zbekiston maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyaga olib keluvchi strukturaviy va pedagogik omillarni aniqlash, adolat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodologiyasini ilmiy asoslash hamda xalqaro tajribani hisobga olgan holda mamlakat amaliyotiga mos takliflar ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: mahalliy statistik va institutsional ma'lumotlar asosida maktabgacha ta'lim tizimining korrupsiya xatarlarini xaritalash, adolat va ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalash bo'yicha samarali pedagogik usullarni aniqlash va baholash, xalqaro amaliyot va standartlar asosida O'zbekiston kontekstida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar paketini taklif etish.

Nazariy-emperik tahlili va asosi

Korrupsiyaga qarshi kurash va adolat tamoyillarini shakllantirishning nazariy asosi bir nechta fundamental konsepsiyalarga tayanadi. Birinchidan, **ijtimoiy adolat nazariyasi** (J. Rawls) ta'lim tizimida teng imkoniyat va resurslarni adolatli taqsimlashni asosiy shart deb belgilaydi [8]. Ushbu yondashuvga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy imkoniyatlari va yashash hududidan qat'i nazar, bir xil sharoitda sifatli tarbiyaga ega bo'lishi ta'minlanishi kerak.

Ikkinchidan, **ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasiga** ko'ra, yosh davridayoq bolalarda halollik, poklik, boshqalarga hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantirish korrupsiyaga nisbatan barqaror immunitet hosil qiladi [9]. Bu jarayonning pedagogik mexanizmlari xalqaro adabiyotlarda "*early ethics education*" yoki "*moral literacy*" atamaları bilan izohlanadi [10].

Uchinchidan, **institutsional nazorat nazariyasi** korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy ildizlarini tahlil qiladi va ta'lim muassasalarida shaffof boshqaruv, resurslar ustidan nazorat mexanizmlarini yaratish orqali korrupsiya xavfini kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi [11]. O'zbekiston sharoitida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari qator davlat dasturlari, xususan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi" bilan mustahkamlangan [12].

Shu tariqa, nazariy asos shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy va boshqaruviy mexanizmlar bilan emas, balki bolalarning ongiga yosh davrdan adolat va ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali samarali bo'lishi mumkin.

Metodologiya

O'zbekiston bo'yicha 2022-yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 67,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 70 % dan oshdi [6]. Shu bilan birga, qamrovning hududlar kesimidagi tafovutlari sezilarli: Toshkent shahri va viloyatlarda qamrov yuqori (80 % dan ortiq), ayrim chekka qishloqlarda esa 50 % dan past

ko'rsatkichlar qayd etilgan [9]. Bu tafovut resurslarni taqsimlashdagi nomutanosiblik va mahalliy darajadagi boshqaruvning yetarli darajada shaffof emasligi bilan bog'liq.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Singapurda maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyani oldini olish uchun "zero tolerance" siyosati joriy qilingan va tarbiyachilarning maosh darajalari davlat tomonidan yuqori darajada kafolatlanadi [9]. Estoniyada esa barcha ECCE muassasalari ochiq elektron reyestr orqali boshqariladi, bu esa resurs taqsimotida shaffoflikni ta'minlaydi [10].

Tahlil va tavsiyalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida so'nggi yillarda qamrov va infratuzilma jihatidan ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, korrupsiya xatarlarini kamaytirish uchun qo'shimcha choralar zarur.

Asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. **Adolat tamoyilini tarbiyaviy dasturlarga integratsiya qilish:** bolalarga yosh davridan boshlab halollik va adolat haqidagi ma'naviy-axloqiy tushunchalarni singdiruvchi metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.

2. **Pedagoglarning ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish:** halollikni rag'batlantiruvchi, korrupsiya xavfini kamaytiruvchi iqtisodiy sharoitlar yaratish.

3. **Shaffof boshqaruv mexanizmlari:** maktabgacha ta'lim muassasalarida resurs taqsimotini kuzatuvchi elektron platformalarni joriy qilish.

4. **Xalqaro tajriba asosida milliy model ishlab chiqish:** Singapur va Estoniya tajribalariga asoslanib, O'zbekiston sharoitiga mos korrupsiyaga qarshi ECCE modeli yaratish.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy yoki tashkiliy chora-tadbirlar bilan emas, balki ma'naviy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish orqali samarali natija berishi mumkin.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda adolat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy, metodologik va empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi immunitetni yosh avlod ongida erta shakllantirish kelajak jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Maktabgacha ta'lim davri shaxsning asosiy axloqiy tamoyillari, qadriyatlari va dunyoqarashi shakllanadigan bosqich bo'lgani uchun bu jarayonda adolat, halollik, ma'naviy poklik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga samarali integratsiya qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat huquqiy choralar emas, balki ijtimoiy ongni o'zgartirishga qaratilgan ta'limiy va tarbiyaviy yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tizimi o'ziga xos boshlang'ich "platforma" vazifasini bajaradi. Chunki aynan shu bosqichda bolalarda ijtimoiy normalar va qadriyatlarga rioya qilish, adolatli muomala, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Shu jihatdan maktabgacha ta'limda korrupsiyaga qarshi tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uzoq muddatli ijtimoiy samara beradi.

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning keng qatlamlari korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy tarbiyaning erta bosqichdan boshlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, mavjud tizimda ayrim muammolar ham mavjud: pedagoglarning bu boradagi tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, maxsus metodik vositalarning cheklanganligi va o'quv-tarbiyaviy dasturlarda adolat hamda halollik tamoyillariga yetarlicha e'tibor berilmayotgani kuzatiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim jarayonining amaliy mexanizmlari o'zaro uyg'unlikda olib borilishi lozim.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi siyosiy irodasi ta'lim tizimida ham izchil islohotlarni talab qiladi. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, Milliy strategiya hamda ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya bo'yicha qabul qilingan dasturlar bu borada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq ularni amalda samarali qo'llash uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va xalqaro tajribaga asoslangan tarbiyaviy dasturlarni keng joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda adolat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish – bu nafaqat tarbiyaviy jarayonning bir qismi, balki kelajak avlodning ijtimoiy ongini yuksaltirish, fuqarolik madaniyatini rivojlantirish va korrupsiyasiz jamiyat qurish yo'lidagi eng muhim strategik omildir. Shu sababli, bu yo'nalishda quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

- pedagoglarning korrupsiyaga qarshi tarbiya bo'yicha maxsus tayyorgarligini kuchaytirish;
- ta'lim dasturlarida halollik va adolatga oid mazmuni tizimli integratsiya qilish;
- ota-onalar va jamoatchilikni bu jarayonga faol jalb etish;
- xalqaro ilg'or tajribalar asosida innovatsion tarbiya vositalarini joriy etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashda maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat siyosati va jamiyatning umumiy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish.

Shu tariqa, maktabgacha ta'lim tizimida adolat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha olib boriladigan har bir sa'y-harakat, korrupsiyaga qarshi kurashning keng ko'lamlı strategiyasida eng ishonchli va uzoq muddatli investitsiya sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. Main Statistical Indicators of Preschool Education in the Republic of Uzbekistan (press release / Stat.uz). 28.08.2023.URL: https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/maktabgacha-talim_28_08_2023_eng.pdf (accessed 15.09.2025).

2. XalqTa'limInfo. What has been done by the Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan (on-line article). — 26.12.2024. URL: <https://xalqta'liminfo.uz/en/post/1021> (accessed 15.09.2025).

3. UNICEF Uzbekistan. Towards Achieving Universal Early Childhood Education in the Republic of Uzbekistan (brief). — 2022. — URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5046/file/Brief%20on%20ECE%20results%20%28eng%29.pdf> (accessed 15.09.2025).

4. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024 Uzbekistan country profile. 2024. URL: <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan> (accessed 15.09.2025).
5. World Bank. Building Foundational Skills through Early Childhood Education and Inclusive Learning in Europe and Central Asia (project page / report). 15.04.2025. URL: <https://projects.worldbank.org/en/results/2025/04/15/building-foundational-skills-through-early-childhood-education-and-inclusive-learning-in-europe-and-central-asia> (accessed 15.09.2025).
6. UNICEF/United Nations. Uzbekistan Education Sector Analysis (report). 2021. URL: https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An_UNICEF%202022_0.pdf (accessed 15.09.2025).
7. Raikes, A., et al. Global tracking of access and quality in early childhood care and education. *International Journal of Child Care and Education Policy (IJCCEP)*. 2023. — URL: <https://ijccep.springeropen.com/articles/10.1186/s40723-023-00116-5> (accessed 15.09.2025).
8. Rawls J. *A Theory of Justice*. — Harvard University Press, 1971.
9. Kohlberg L. *The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice*. — Harper & Row, 1981.
10. Narvaez D. *Moral Literacy and Moral Character Education*. — *Journal of Moral Education*, 2002. — Vol. 31, №2.
11. Rose-Ackerman S. *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. — Cambridge University Press, 1999.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2017.
13. Davlat statistika qo'mitasi. *Maktabgacha ta'lim bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar*. — Toshkent, 2024.
14. Transparency International. *Corruption Perceptions Index 2024*. — Berlin: TI, 2024.
15. Kang, C. *Early Childhood Education in South Korea: Policy and Practice*. *International Journal of Early Childhood*, 2013.
16. Ministry of Education Singapore. *Preschool Education Annual Report*. Singapore, 2022.
17. OECD. *Early Childhood Education and Care Policy Review: Estonia*. Paris: OECD Publishing, 2021.

UO'K: 413.164=943.75

TERMINLARNING EPITET SIFATIDA QO'LLANILISHI**Raximova Maloxatxon Odiljon qizi**Qarshi xalqaro universiteti
Iqtisodiyot va muhandislik kafedrası o'qituvchisiE-mail: malohatrahimova995@gmail.com

ORCID: 0009-0008-8727-2944

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik va stilistika nuqtayi nazaridan terminlarning epitet sifatida qo'llanilish xususiyatlari o'rganiladi. Epitet — obrazli ifoda vositasi sifatida adabiy matnlarda keng qo'llaniladi, biroq ilmiy va ommaviy uslubda terminlarning epitetlik funksiyani bajarishi til birligining semantik va pragmatik imkoniyatlarini kengaytiradi. Maqolada terminlarning obrazlilik kasb etish holatlari, ularning metaforik, metonimik yo'sinda epitetga aylanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli matn turlarida (ilmiy, publitsistik, badiiy) terminlarning epitet sifatidagi funksional yuklamasi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Ushbu yondashuv orqali til birliklarining ko'p funksiyaliligi hamda stilistik boyliklari ochib beriladi

Kalit so'zlar: Metafora, epitet, o'xshatish, termin, nominasiya, lisoniy, nutqiy, emotsional-ekspressiv, poeziya.

УДК: 413.164=943.75

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОВ В КАЧЕСТВЕ ЭПИТЕТОВ**Рахимова Малохатхон Одилжон кизи**Преподаватель кафедры экономики и инженерии
Каршинского международного университетаmalohatrahimova995@gmail.com

ORCID: 0009-0008-8727-2944

Аннотация: В данной статье изучаются особенности использования терминов в качестве эпитетов с точки зрения лингвистики и стилистики. Эпитет широко используется в художественных текстах как средство образного выражения, однако выполнение эпитетных функций терминами в научном и популярном стиле расширяет семантические и прагматические возможности языковой единицы. В статье анализируются случаи приобретения терминами образности, процессы их превращения в эпитеты метафорическим, метонимическим способом. Также на примерах показана функциональная нагрузка терминов в качестве эпитетов в разных типах текстов (научных, публицистических, художественных). Такой подход раскрывает многофункциональность и стилистическое богатство языковых единиц.

Ключевые слова: Метафора, эпитет, сравнение, термин, номинация, языковой, речевой, эмоционально-экспрессивный, поэтический

UDC: 413.164=943.75

USE OF TERMS AS EPITETS**Rakhimova Malokhatkhon Odiljon qizi**Teacher, Department of Economics and Engineering,
Karshi International Universitymalohatrahimova995@gmail.com

ORCID: 0009-0008-8727-2944

Abstract: This article studies the features of the use of terms as epithets from the point of view of linguistics and stylistics. Epithet is widely used in literary texts as a means of figurative expression, but the performance of epithet functions of terms in scientific and popular style expands the semantic and pragmatic possibilities of a language unit. The article analyzes the cases of acquisition of figurativeness of terms, the processes of their transformation into epithets in a metaphorical, metonymic way. Also, the functional load of terms as epithets in different types of texts (scientific,

journalistic, artistic) is shown on the basis of examples. This approach reveals the multifunctionality and stylistic richness of language units.

Key words: Metaphor, epithet, simile, term, nomination, linguistic, speech, emotional-expressive, poetry

KIRISH. Ma'lumki, tilda terminlarning lingvopoetik xususiyatlari, badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish e'tiborli masalaga aylanib bormoqda. Ana shu ma'noda, badiiy matnda terminlarni epitet sifatida qo'llanilishi masalasi ham terminlarni poetik aktuallashuvini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi. Bu masalani yoritish ham terminlarning mohiyat-mazmunini, funksional- uslubiy xususiyatlarini tekshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Epitet badiiy til vositasi sanaladi. U nutq jarayonida til faktida bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqib hosil qilinadi. Shuning uchun ham u har bir muallifning o'ziga xos, uning qiyos doirasi bilan bog'liq holatda, tasvirlamoqchi bo'lgan narsasiga nisbatan qarashlarini, munosabatini ifodalash asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham bu hodisa ko'proq adabiyotning, she'riyatning muhim vositasi sifatida qaralib kelinadi. Ayniqsa, g'azallarda poetik figura sifatida keng qo'llanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Terminlarning epitet sifatida qo'llanilishi lingvistik va adabiy tadqiqotlarda qiziqarli va yangi yondashuv sifatida ko'rilmog'da. Epitet tushunchasi an'anaviy ravishda adabiy san'at vositasi sifatida ko'p tahlil qilingan bo'lsa-da, so'nggi yillarda terminlarning ham epitet sifatida ishlatilishi yuzasidan ilmiy izlanishlar ortmoqda.

Lug'atshunoslik va stilistika sohasida taniqli olim Jahongirov (2010) epitetni ob'ekt yoki hodisani yanada ta'sirchan va jonli ifodalash vositasi deb ta'riflaydi. Mamatqulov (2015) esa epitetning til obrazlilik darajasini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, terminlarning ham epitet sifatida ishlatilishi ularning an'anaviy ma'nosidan tashqarida yangi, figurativ ifodalarga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

Terminlar haqida ilmiy manbalarda ularning aniq, noaniq bo'lmagan ma'noda ishlatilishi asosiy vazifa sifatida qaraladi (Abdukarimov, 2012). Biroq, Karimov (2018) terminlarning faqat texnik ma'noda emas, balki matnga o'ziga xos stilistik rang beruvchi vosita sifatida ham ishlatilishi mumkinligini bildiradi. Islomova (2020) terminlarning epitet funksiyasini o'rganib, ularning matnga yanada yangi ma'no qatlamlari qo'shishini qayd etadi.

Masalan, Sattorov (2021) "atom energiyasi inqilobi" kabi ifodalarda terminlarning epitet vazifasini bajarishini ko'rsatadi, bu esa matni yanada boyitadi va ta'sirligini oshiradi.

Mintaqaviy lingvistik tadqiqotlarda ham terminlarning epitet sifatida qo'llanilishi borasida ishlar olib borilgan. Qodirov (2019) va Nurmatov (2022) tomonidan chop etilgan maqolalarda terminlarning adabiy matnlar, reklama va kommunikatsiya sohasidagi epitet sifatida ishlatilishi o'rganiladi. Ularning tadqiqotlari terminlar va epitetlarning funksional chegaralari qanchalik o'zaro aralashishini ko'rsatadi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, terminlar lingvistik kontekstdagi an'anaviy roldan tashqari, stilistik jihatdan epitet sifatida ham samarali qo'llanilishi mumkin, bu esa ularning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi va matnning ifodaviyligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Epitetlarning lug'aviy va adabiy manbalardagi ta'riflari va misollarini o'rganish uchun adabiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Bu usul yordamida terminlar ichidagi epitetlarning semantik va stilistik xususiyatlari aniqlanadi. Epitetlarning umumiy adabiy nutqdagi ishlatilishi bilan terminlardagi qo'llanilishi taqqoslandi. Bu usul orqali epitetning terminlarda o'ziga xosliklari va farqlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot bosqichlari :

1. Mavzuni aniqlash va tadqiqot maqsadini belgilash
Epitetlarning terminlarda qanday qo'llanilishini o'rganish uchun asosiy savollar va maqsadlar aniqlanadi.
2. Adabiyotlarni o'rganish Epitetlar, stilistika va terminologiya bo'yicha ilmiy manbalar, lug'atlar, terminologik izohli matnlar o'rganiladi.
3. Matnlar va terminlarni tanlash Terminologik sohalardan (masalan, tibbiyot, texnika, fan) foydalanilgan matnlar to'planadi.
4. Epitetlarni aniqlash va belgilash Tanlangan matnlardan epitet sifatida ishlatilgan so'zlar va iboralar ajratib olinadi.
5. Tahlil qilish Epitetlarning terminlarda qanday funktsiyalarni bajarishi, ularning semantik va stilistik o'ziga xosliklari aniqlanadi.
6. Natijalarni taqqoslash va umumlashtirish Epitetlarning terminlarda qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtiriladi.
7. Xulosa va tavsiyalar yozish Tadqiqot natijalariga asoslangan xulosa va kelajakda olib borilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Epitet shunday tasvir vositasiki, tasvirlanayotgan narsa-hodisani obrazli tarzda o'quvchi ko'z o'ngida yorqin gavdalantiradi. Ya'ni, epitet doim konkret, obyektiv va sintaktik ajratilgan narsaning sifatini, xususiyat va belgisini anglatib keladi. Epitet ritoriklar tomonidan tilga olingan bo'lmasa ham, juda qadimdan adabiyotshunoslar, keyinchalik tilshunoslar e'tiborini tortgan nutq hodisasidir. U XV asrdayoq fors va o'zbek adabiyotshunosligida istiora tarkibida o'rganila boshlangan. Bu hodisa XIX asrda G'arb tilshunosligining ham e'tiborini tordi. Uning epitet atamasi bilan o'tgan asrda yashagan Adelung, shuningdek, A. Ben asarlarida tilga olinganligini ko'rish mumkin. Badiiy til vositalariga bag'ishlangan asarlarda epitet tilga olingan holda unga qisqagina ta'rif berib o'tiladi. Lekin bu hodisa o'ziga xos uslubiy vosita sifatida alohida mohiyatlidir. Ya'ni, ba'zan amalda bu hodisani unga yaqin va o'xshash bo'lgan o'xshatish, metafora va boshqa tavsir vositalaridan farqlash kabi nozik masalalar kuzatiladi.

Z. Tohirov bu xususda quyidagi fikrlarni ilgari suradi: *"Epitetli birikmalar o'xshatish qurilmasi va qo'shma ot bilan qorishtiriladi. Epitetli birikma bilan*

o'xshatishli qurilma bir-biriga nihoyatda o'xshashdir. Lekin tuzilish jihatdan ular ma'lum farqlarga ega. O'xshatish qurilmasidagi asos va shakliy nutqiy tejamga uchrasa, epitetli birikma bo'ladi. Ularning ma'nosi esa farq qilmaydi, lekin uslubiy jihatdan ayrim farqlarga ega bo'ladi." Jumladan,

Mayli orom olgin, ey bobo yurtim! (A. Oripov)

misolidagi bobo yurtim epitetli birikmadir. Agar uni bobo kabi kekxa yurtim deb berilsa o'xshatish qurilmasi bo'ladi. O'xshatish qurilmasida kabi o'xshatish shakli va kekxa asosi epitetli birikmaga nisbatan ortiqcha qayd qilinadi. Epitetli birikma bilan o'xshatishli qurilma o'rtasida ma'no farqi yo'q, lekin uslubiy farq mavjud. O'xshatish qurilmasida birinchi o'rinda keksalik belgisi bo'lib, bu keksalikni bobo keksaligiga qiyoslash ikkinchi o'rinda turadi. Epitetli birikmada birinchi o'ringa to'g'ridan-to'g'ri bobo keksaligi chiqarilgan bo'ladi". Shuningdek, metafora hodisasi bilan ham zich bog'langan. Amalda bu ikki hodisani ajratish ham o'quvchidan zukkolikni talab etadi. Shu ma'noda qaraladigan bo'lsa, epitet ham tilshunoslikda o'rganilishi lozim bo'lgan muhim vosita sanaladi.

O'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum bir qismini tashkil etuvchi terminlar badiiy adabiyotda, asosan, ko'pchiligi voqealar va narsa-qurollarning nomi sifatida ishlatilsa, ayrimlari ko'chma ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Fikrimizni dalillash uchun misollarga o'tsak:

Oq bulut, oq par bulut,

Ko'kdagi kaptar bulut.

Senga dardim so'zlasam,

Bo'lur ming daftar bulut. (M. Yusuf, Bulut)

Keltirilgan misolda par, kaptar, daftar atamaları epitetni hosil qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, epitet oddiy aniqlovchidan farqli o'laroq narsa va hodisaga xos xususiyatlarni obrazli tarzda, bo'rttirib ifodalaydi. Misolda oq bulut birikmasi oddiy aniqlovchi sifatida qo'llangan bo'lsa, keyingi misralarda esa bulutga xos belgi-xususiyat obrazli tarzda bo'rttirilib, kuchaytirilib borilgan. Bulutga xos sifatlar shoir tomonidan qofiyadoshlik asosida go'zal obrazli ifodani yuzaga keltirgan.

Natijada, turli sohaga oid par, kaptar, daftar terminlari badiiy bo'yoqdorlik kasb etgan va bulutning pardek yumshoqligi, kaptardek osmonda uchishiga qiyoslash orqali inson (shoir) ruhiy olamiga xos ichki his-tuyg'u va kechinmalarning chek-chegarasizligi kabi holatlar tasvirlangan metaforik epitet hosil bo'lgan.

Garchi ipak devoring,

Seni hech kim qurgan yo'q.

Ammo ikki dunyoda

Sendan baland qo'rg'on yo'q. (M. Yusuf, Chimildiq)

Keltirilgan misralarda ipak (gazlamaga xos atama) termini epitetni hosil qilgan. Misolda shoir "chimildiq"ni ipak devor deb ataydi. U devor oddiy devor emas, ipakdan lekin nozik va ayni paytda eng mustahkam devor ekanligi obrazli tarzda tasvirlangan.

Yumshoq narsa(ipak) ga xos belgi, xususiyat qattik narsa(devor)ga nisbatlangani holda metaforik epitet yuzaga kelgan. Shu birgina epitet(okkozional tasvir vositasi) orqali shoir o'zbek xalqining eng noyob qadriyatlarini ulug'lamoqchi bo'lganini va yoshlarni oila degan asriy, muqaddas qo'rg'onni ardoqlashga undaganini tushunish mumkin.

*Ular ustoziga quldayin kimsa,
Mehribon homiysi shogirdlarining.(M.Yusuf)*

Yuqoridagi misolda qul(esk.tarixiy) va xomiy(iqt.at.) atamalari epitet sifatida qo'llangan. Bu epitetda insonlar o'rtasidagi munosabatlar obrazli tarzda ko'rsatib o'tilgan. Vaziyatga qarab bunday munosabatlar ijobiy yoki salbiy xarakter kasb etishi mumkin. Albatta, bu holatda matn mazmuni muhim rol o'ynaydi.

*Muhabbatim, qaydasan qalb ardog'im,
Jayron ko'zim,qirlarda qolgan oxum.
Qo'lim tegmay to'kilgan qizgaldog'im,
Endi seni izlab qaydan toparman.(M.Yusuf)*

Mazkur she'rda shoir muhabbatni o'z nazdida shu darajada bo'rttirib tasvirlaganki, qoyil qolmasdan iloj yo'q. Shu oddiy so'zlar orqali ifodalangan bunday original epitetlar kamdan kam shoirlarda uchraydi. Muhabbat haqida gap ketganda ko'pincha eng oliy tuygu deymizu lekin uning sifatlarini tasvirlashda ojiz qolamiz. Bunday obrazli tasvirga lolmiz, ya'nikim belgi ichida belgi:

*Qo'lim tegmay to'kilgan – qizg'aldoq,
qirlarda qolgan – jaron ko'z, oxu
qalb ardog'i - muhabbat.*

Misralarda qo'llangan jayron,oxu, muhabbat atamalari yuqori darajadagi emotsional ottenkaga ega bo'lgan va matnda epitet vazifasini bajarishga xizmat qilgan.

*Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam,lochin ko'z bolam,
Bo'g'zimga tig'urgan o'z bolam...
Men dardimni kimga aytaman.(M.Yusuf)*

Mazkur misolda mergan (sport. a.), lochin (zool. a.), ko'z (anatom.a.) atamalari she'rda epitet sifatida qo'llangan.O'z o'ylagan maqsadini amalga oshirmoqchi bo'lgan inson (farzand) ning hatti-harakatlari lochinga va merganga mengzangan.Chunki mergan ham mo'ljalga behato uradi, lochin ham o'z o'ljasini uzoqdan ko'ra oladi, tashlanadi va bir hamlada oladi. Ya'ni shoir Abdulatifning otasi Ulug'bekni o'ldirishi bilan bog'liq reja vamaqsadlarini obrazli tarzda ifodalagan. Matnda qo'llangan mergan atamasi sodda epitet, lochin ko'z atamasi esa murakkab epitet hisoblanadi.

*Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek sen g'aribning ham parvonang yo'q.(M.Yusuf)*

Keltirilgan matnda qizil yuz, qon dil birikmalari qo'llangan bo'lib, birinchisi oddiy aniqlovchili birikma sanaladi. Ikkinchi birikma esa epitet. Ya'ni tibbiyotga oid qon termini epitet vazifasini bajargan. Shoir qizg'aldoqdagi qizillik belgisini qonga qiyoslaydi vanatijada inson qalbidagi og'ir kechuvchi istiroblarni obrazli tarzda tasvirlab betakror epitet yaratgan. Bu sodda epitet hisoblanib, "rang" semasi bilan qo'llangan.

Bundan tashqari, qon atamasi ibora komponenti sifatida ham tilda keng qo'llanadi va turli ruhiy holatlarni ifodalovchi iboralarni yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Masalan: qon qilmoq, qon bo'lmoq, qon yutmoq (ich-ichidan kuchli darajada ruhan azoblanmoq). Bunga yana sinonim sifatida yuragi qon bo'lmoq, yurak-bag'ri qon bo'lmoq (diltang: kimdandir yoki nimadandir qattiq xafa bo'lmoq, siqilmoq) iboralari ham qo'llanadi. Lekin ular o'zaro emotsional ottenka ifodalash darajasiga ko'ra farqlanadi. Ya'ni qon bo'lmoq iborasiga nisbatan qon yutmoq iborasidabelgi darajasi o'ta kuchli bo'ladi. Ertadan beri do'ppi, qiyiqcha, jiyak tikaverib yuragi qon bo'lgan qizlar, xuddi qafasdan qutilgan qushdek, tomma-tom sakrab..

*Ona chumchuq aylanib ketmas,
Ko'ngliga qil sig'masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig'lasa kerak. (M. Yusuf)*

Ushbu misrada qo'llangan ona (ped.a) termini oddiygina chumchuqning belgisi emas, aksincha obrazli ifoda bo'lib, onadagi fidokorlik, jonsaraklik, oilasi uchun parvona kabi har narsaga yugurib yelishi, butun bir oila tashvishlarini yelkasida ko'tarib yurishi kabi muhim sifatlar chumchuqqa nisbatlangan. "Ona chumchuq" shunchaki chumchuq emas. Bu o'rinda ona so'ziga alohida urg'u berilgan bo'lib, u ramziy ma'noda qo'llangan. Badiiy matnda shoir yoki yozuvchi nainki ijodkor epitet vositasida biror narsa yoki shaxsga xos bo'lgan belgini boshqa narsaga yoki shaxsga nisbatan obrazli tarzda ko'chirish, qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchi yoki kitobxonda badiiy, obrazli tafakkurni shakllantiriga, tasavvur doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

*Bulbuli yo'q bahordan
Qumri to'la kuz yaxshi.
G'alamis bergan g'aznadan
Burda arpa non yaxshi. (M. Yusuf)*

Yuqorida keltirilgan misolda bulbul, qumri (zool.a.), arpa (qishl.xo'j.a.) terminlar qo'llangan bo'lib, matnda obrazli ifoda sifatida yo'q, to'la, burda so'zlari bilan birikkan holda murakkab epitetni hosil qilgan. Bu holatda bulbulning belgisi yoki qumrining belgisi boshqa biror predmet yoki belgiga nisbatlanmagan deyish mumkin yoki nisbatlash semasi mavhum. Ya'ni metaforik (davriy ramziylik) ma'noda qo'llangan. Mazkur holat bilan bog'liq tagma'no o'quvchi ixtiyorida qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada terminlarning epitet sifatida qo'llanishi lingvistik va stilistik nuqtai nazardan o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, terminlar faqat aniq, ma'lum bir soha yoki fan atamasi sifatida emas, balki badiiy va ommaviy uslub matnlarida obrazli ifoda vositasi sifatida ham samarali ishlatiladi. Terminlarning epitetlik funksiyasini bajarishi matnga yangi semantik va pragmatik qatlamlar qo'shib, ifodaviylik va emotsional boylikni oshiradi.

Shuningdek, terminlarning metafora va metonimik yo'llar orqali epitetga aylanish jarayonlari tahlil qilindi, bu esa til birliklarining ko'p funksiyaliligi va stilistik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Turli matn turlarida terminlarning epitet sifatidagi qo'llanilishi (ilmiy, publitsistik, badiiy) ularning kommunikativ va stilistik funksiyasining o'ziga xosligini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, terminlar nafaqat fan tilining aniq vositasi, balki badiiy va ommaviy nutqda ham obrazli va ta'sirchan ifoda vositasi sifatida keng qo'llanilishi mumkinligi tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochadi va tilning boy stilistik resurslarini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi, terminlarning lingvopoetik xususiyatlari, epitetning metafora va boshqa badiiy tasvir vositalaridan farqi taqdim etildi. Shu bilan birga til va ma'daniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish, epitet badiiy matndagi anglashlarni chuqur anglashga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **G'afurov, N.** (2007). *Stilistik vositalarning tahlili*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. **Jo'raev, M.** (2012). *O'zbek tilining funksional uslublari*. Toshkent: Fan.
3. **Abduazizov, A. A.** (2008). *Til va uslub*. Toshkent: Universitet.
4. **Sa'dullayeva, D.** (2005). *Adabiy til uslublari*. Toshkent: O'qituvchi.
5. **Karimov, E.** (2016). *Lingvistik stilistika asoslari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. **Vinogradov, V. V.** (1950). *O yazike khudozhestvennoy literatury*. Moskva: Nauka.
7. **Arnold, I. V.** (2002). *Stylistics: Modern approach*. Moscow: Drofa.
8. **Serebryakova, N. D.** (1992). *Lingvisticheskaya stilistika i terminologiya*. Moskva: Vysshaya Shkola.
9. **Alieva, T. A.** (1985). *Epitet kak sredstvo obraznosti*. Moskva: Nauka.
10. **Khodjayev, A.** (1998). *Terminologiya masalalari*. Toshkent: Fan.
11. **O'zbek tili izohli lug'ati** (5 jildlik). (2006–2008). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

UO'K 372.6(021)

**IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARINING LINGVISTIK
EKSPERTIZASI****Rahimqulova Lobar Hamro qizi**
Qarshi xalqaro universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini o'qituvchisi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

lobarlobar102@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6238-322>

Anotatsiya. Internet tarmoqlari barcha sohalarida kutilmagan burilish yasadi. Ilm-fan, texnika taraqqiyoti va hamkorligiga xizmat qilish bilan bir qatorda jinoyatlar va huquqbuzarliklar sonining oshishi va kengashiga ham sabab bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kompyuter va intranetdan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlar, qonunbuzarliklarning hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, messenjerlar orqali jinoyatlar, kiberjinoyatlar, ta'qib qilish, tovlamachilik, ekstremizm va terrorizm, korporativ josuslik, obro'ga putur yetkazish, anonim tahdidlar, haqorat kabi jinoyatlarning hajmi va turi jadal o'sishda davom etmoqda. Kimningdir nomini o'zlashtirish yoki anonim tarzda sodir etilayotgan kiberjinoyatlardan aziyat chekayotganlar esa talaygina. Jinoyat sodir etuvchi shaxs shaxsini ochiqklamagan holatda o'zining g'araz maqsadlarini amalga oshirishda qonuniy vositalar ya'ni internet tarmoqlaridan unumli foydalanmoqda.

Kalit so'zlar: Internet tarmoqlari, lingvistik ekspertiza, psixolingvistik ekspertiza, anonim yozishmalar, metodologiya, sud-fonografiya ekspertizasi.

УДК 372.6(021)

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА ПЕРЕПИСКИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Рахимкулова Лобар Хамро кизи

Каршинский Международный Университет
Филология и преподаватель кафедры Преподавание иностранных языков,
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы докторант университета

lobarlobar102@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6238-322>

Аннотация. Интернет-сети совершили неожиданный поворот во всех областях. Наряду с обслуживанием развития науки, технологий и сотрудничества, они также вызывают рост и увеличение числа преступлений и правонарушений. Исследования показывают, что объем преступлений и правонарушений, совершаемых с использованием компьютеров и Интернета, увеличивается с каждым годом. Объем и тип преступлений, таких как преступления, совершаемые через социальные сети, электронную почту, мессенджеры, киберпреступления, преследования, вымогательство, экстремизм и терроризм, корпоративный шпионаж, ущерб репутации, анонимные угрозы, оскорбления, продолжают стремительно расти. Есть много тех, кто страдает от киберпреступлений, совершенных анонимно или выдавая себя за кого-то. В то время как преступник преступления не раскрывает свою личность, он эффективно использует законные средства, то есть Интернет, для достижения своих корыстных целей.

Ключевые слова: Интернет-сети, лингвистическая электронная экспертиза, психолингвистическая экспертиза, анонимная переписка, методология, судебно-фонографическая экспертиза..

UDC 372.6(021)

LINGUISTIC EXPERTISE OF SOCIAL NETWORK CORRESPONDENCE

Rahimkulova Lobar Hamro qizi

Karshi International University "Philology and teacher of the
department of "Language Teaching", Tashkent State University

of Uzbek Language and Literature university doctoral student
lobarlobar102@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6238-322>

Annotation. Internet networks have made an unexpected turn in all areas. Along with serving the development of science, technology and cooperation, they are also causing an increase and increase in the number of crimes and offenses. Studies show that the volume of crimes and offenses committed using computers and the Internet is increasing year by year. The volume and type of crimes such as crimes committed through social networks, e-mails, messengers, cybercrimes, harassment, extortion, extremism and terrorism, corporate espionage, damage to reputation, anonymous threats, insults continue to grow rapidly. There are many who suffer from cybercrimes committed anonymously or by impersonating someone. While the perpetrator of the crime does not reveal his identity, he effectively uses legal means, that is, the Internet, to achieve his own selfish goals.

Keywords: Internet networks, linguistic e-examination, psycholinguistic examination, anonymous correspondence, methodology, forensic phonographic examination.

Kirish. Identifikatsiyaning moslashuvchanligi va dissotsiativ anonimlik kibermakonda jinoyat xatti-harakatlarni rag'batlantirishi mumkin.¹Bu kabi jinoyatga qonun doirasida yechim topish va ularning oldini olish chora-tadbirlari huquqshunoslik, lingvistika, psixologiya, sotsiologiya, media sohalarining hamkorligini yanada mustahkamlamoqda. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari va qog'ozdagi yozishmalarning farqli tomonlari mavjud:

№	Ijtimoiy tarmoqlardagi bosma matnlar	Qo'lyozma matnlar
1	Tahrirlash imkoniyatiga ega	Qayta tahrirlash imkoniyatiga ega emas
2	Emojilardan foydalanish imkoniyati keng	Deyarli emojilardan foydalanilmaydi
3	Xabarning tarqalish tezligi yuqori	Xabarni yetkazish vaqt talab etadi
4	Matndagi til birliklari o'ziga xos qisqargan uslubga ega	Matndagi til birliklari o'ziga xos qisqargan uslubga ega
5	Yozishmalar tez va davomiy tarzda almashilganligi sababli gap to'liq ifodalanmasligi mumkin	Fikrni yetqazish maqsadida gaplar to'liq va uzoq davom etishi mumkin
6	Axborot manbasini anonimlashtirish mumkin va buni aniqlash biroz vaqt talab etadi	Anonimlashgan matndagi turli identifikatsion belgilar muallifni topishni osonlashtiradi


1-jadval. Ijtimoiy tarmoqdagi va qog'ozdagi yozishmalarning farqli tomonlari

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi anonimlikni aniqlashda psixolingvistik ekspertizadan foydalanish muammoning yechimini topishda muhim ahamiyatga ega sababiki, bu kabi anonim yozishmalar identifikatsiyalash va autinfikatsiyalash jarayonidan o'tmagan holatda yoki cheksiz miqdorda identifikatorlarni yaratish, kimningdir nomidan foydalanib, boshqa shaxsning hisob ma'lumotlariga kirish orqali sodir etiladi. Qog'ozdagi anonim yozishmalarda muallif matnga qanchalik taqlidan yondashmasin muallifning grafeologik identifikatsion belgilari saqlanib qoladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida esa harf shakllari ahamiyatga ega emas, so'zlar,

¹ А. А. Воробьева МЕТОДИКА ИДЕНТИФИКАЦИИ ИНТЕРНЕТ-ПОЛЬЗОВАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК КОРОТКИХ ЭЛЕКТРОННЫХ СООБЩЕНИЙ. АВТОРЕФЕРАТ. Санкт-Петербург-2017. Б-4

qo`shimchalarni qay usulda qo`llashi, til birliklaridan hududiy mansublik va jins xususiyatiga ko`ra foydalanishi, shaxs ruhiy holatining namoyon bo`lishi idenfikatsion belgilardir.

“Lingvistik ekspertiza – yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan, tilshunoslikda yangi ilmiy yo`nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo`nalish sifatida baholashimizning o`ziga xos sabablari ham mavjud. Chunki lingvistik ekspertizalarni ishlab chiqish va o`tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish talab etiladi. Bunda tor ixtisoslikdagi bilimlar emas, keng qamrovdagi bilimlar majmuasi zarur bo`ladi. Albatta, lingvist-ekspert ekspertiza jarayonida mavjud tadqiqotlar, lug`at va qo`llanmalardan foydalanishga ehtiyoj tug`iladi. Bugungi kunda sud jarayonida yuzaga keluvchi matn bilan bog`liq ziddiyatli vaziyatlarga adolatli yechim topish, amaliyotga lingvistik bilimlarni joriy qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud va bu yildan yilga ortib bormoqda”². O`zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertiza markazidagi ekspertiza tarmog`ining qismlari sifatida o`rganilib kelinmoqda. Lingvistik ekspertizaning turlari:



2-rasm. Lingvistik ekspertizaning an`anaviy kriminalistik ekspertizasi tarkibi

² K.Musulmonova O`zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. DISS. Qo`qon– 2022. B-61



3-rasm. Lingvistik ekspertizaning maxsus sud ekspertizasi tarkibi³

Lingvistik ekspertiza matnlar, audio va videolarning lingvistik, psixologik, sotsiologik belgilariga ko`ra tahlil qilish jarayoni bo`lib bu jarayonda, avvalo, lingvistik ekspertizaning obyekti belgilab olinadi va turli metodlar orqali xulosalar beriladi.

Lingvist-ekspert yakunlovchi xulosani bermaydi. Yakunlovchi xulosa sud tomonidan lingvist-ekspertning xulosasiga e`tibor qaratgan holda belgilanadi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida lingvistik ekspertizasining ,asosan, sud -filologiya (mualliflik) ekspertizasi, sud fonografiya ekspertizasi, sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasi, sud lingvistik ekspertizasi, psixolingvistik ekspertizasi kabi turlaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida ekspertizaning qaysi turidan foydalanishni aniqlab olish uchun quyidagi asosiy jihatlar tahlil qilinadi:

- Ijtimoiy tarmoqning qaysi turi orqali axborotning uzatilganligi (facebook, twitter, telegram, WhatsApp va bosh);
- Qanday ko`rinishda uzatilgan (video, audio, bosma matn);
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining mazmunini aniqlab olish;
- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida emotsional so`zlarning ishtiroki va ahamiyatini aniqlab olish.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Agar lingvistik ekspertizaga taqdim etilgan ijtimoiy tarmoq xabari video yoki audio shaklda bo`lsa sud-fonografik ekspertizasi tayinlanadi. "Poraxo`rlik, korrupsiya, reket, ta`magirlik, terrorizm kabi jinoyat ishlarini fosh etishda sud fonografiya ekspertizasi muhim ahamiyatga ega".⁴

№	Sud- fonografiya ekspertizasining obyektlari
1	kompakt yoki raqamli disklar, flesh xotira kartalariga yozilgan fonogrammalar
2	fonogrammaning stenogrammasi, ya`ni suhbatning so`zma- so`z bayoni
3	ovoz yozish moslamasi (diktofon, raqamli diktofon, mobil telefon apparati, video kuzatuv kamerasi, videokameralar, videoregistratorlar v.k
4	kompakt yoki raqamli disklar, flesh xotira kartalari va boshqalar)

2-jadval. "Sud- fonografiya ekspertizasining obyektlari"

Ijtimoiy tarmoqlar xabarlar ustida sud-fonografiya ekspertizasi amalga oshirilganda ekspertiza jarayoni tezroq va natijali tarzda tugaydi. Manbalarning asl

³ <https://sudex.uz/>

⁴ https://sudex.uz/?page_id=81

varianti emas ko'chirmasi ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilgan bo'lsa sud-fonografiya ekspertizasini samarali o'tkazishda bir qancha muammolar yuzaga keladi. Bu esa sud ekspertiza jarayonining uzayishiga sabab bo'ladi yoki jinoyatning to'liq ochib, isbotlab berishga to'sqinlik qiladi. Ko'chirma nusxaga ega bo'lgan audio va videoyozuvlarning steogrammasi tayyorlanadi. Lingvist-ekspert steogrammadagi til birliklarini tadqiq qilish orqali xulosa beradi.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida ekspertizaning qaysi turidan foydalanish ekspertiza obyektiga qarab belgilanadi.

3-jadval. Lingvistik ekspertiza jarayonida obyekt bo'luvchi matnlar

№	Ovozli	Bosma	Qo'lyozma	OAV va ijtimoiy tarmoq
1	Diktofon orqali yozib olingan xabarlar	SMS yozishmalar, anonim xatlar	Imzolar	e-mail xabarlar
2	Telefon muloqotlari	Pochta orqali yuborilgan xatlar	Qo'lyozma anonim xatlar	Tvit, kommentlar
3	Tasodifiy kameralarda saqlangan ovozi xabarlar	Guvoh, gumonlanuvchi ko'rsatmalari	Qo'lyozma intellektual mulk obyektlari	Ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabarlar(Telegram, WhatsApp, Viber)
4	Og'zaki muloqot, siyosiy nutqlar	Ashyoviy dalil vazifasini bajaruvchi matnlar	Qo'lyozma shikoyat xatlari	Gazeta, jurnal matnlari
5	Og'zaki tarzdagi guvoh, gumonlanuvchi ko'rsatmalari	Nomlar(tashkilot, firma, kafe, restoran va boshqalar)	Qo'lyozma guvoh, gumonlanuvchi ko'rsatmalari	Reklama matnlari

Matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy tarmoq yozishmalarida sud - filologiya (mualliflik) ekspertizasi o'tkaziladi. Sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasi matn muallifi taxminiy shaxslardan kim ekanligini aniqlash, muallif bir yoki bir necha kishi ekanligini aniqlashda yordam beradi. Aynan jinoyat bilan bog'liq holatlarda asl jinoyatchining yozishmalarda chalg'itishga urinish holatlari kuzatiladi. Jinoyatda ayblanayotgan gumondor shaxslar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishdagi idenfikatsion belgilari orqali asl jinoyatchi aniqlanadi. Anonim yozishmalarning muallifini aniqlashda lingvistik ekspertizada quyidagi dalillarga e'tibor qaratiladi:

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining shakliy tomoni asosida muallif haqida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining leksik xususiyati asosida muallif haqida ma'lumot to'lash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining sintaktik xususiyatlari asosida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi ruhiy holatni ifodalovchi til birliklari asosida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoqlardagi emojilar asosida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining dialektologik xususiyatlari asosida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining morfemik xususiyatlari asosida ma'lumot to'plash;

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklarining uslubiyati asosida ma'lumot to'plash.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida sud-siyosatshunoslik lingvistik-ekspertizasi quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- Oshkora chaqiriq mavjud bo'lsa;

- Davlat va hokimiyat vakillariga nisbatan buzg'unchilik harakatlarini amalga oshirishga da'vat aks etgan bo'lsa;

- Ijtimoiy tarmoq matnida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga nisbatan oshkora haqorat mavjud bo'lsa;

- Saylov yoki referendum tashkil qilish, o'tkazish to'g'risidagi qonunlar buzilganligidan guvohlik beruvchi faktlar mavjud bo'lsa

Sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasi oldiga quyidagi savollar qo'yiladi:

4-jadval. Sud-siyosatshunoslik lingvistik-ekspertizasi oldiga qo'yiladigan savollar.

1	Ekspertizaga taqdim etilgan materiallar oshkora chaqiriq xarakteriga egaligini aniqlash
2	Matnda davlatga, hokimiyat vakillariga nisbatan buzg'unchilik harakatlarini amalga oshirishga da'vat aks etganligini aniqlash
3	Taqdim etilgan materialda saylov yoki referendum tashkil qilish, o'tkazish to'g'risidagi qonunlar buzilganidan guvohlik beruvchi faktlarni aniqlash
4	Ushbu materialda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga nisbatan oshkora haqorat bor yoki yo'qligini aniqlash

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida asosiy e'tibor til birliklariga ya'ni lingvistik vositalarga qaratiladi. Tilni, matnni tahlil qilish, albatta, tilshunoslik sohasidagi chuqur maxsus bilimlarni o'z ichiga olgan ixtisoslashtirilgan ekspertiza sifatida lingvistik ekspertiza vakolatiga kiradi⁵ Ammo ijtimoiy tarmoqlardagi matn, video va audiolarga lingvistik yondashuvdan tashqari psixologik yondashuv, imo-ishora, grafik belgilar, xatti-harakatlar ham ekspertiza jarayonida qo'l keladi. Lingvistik ekspertiza obyektini tahlil qilishda shaxsning temperamenti, xarakteri va eng muhimi ruhiy holatini aniqlash ham muhimdir. Tarmoq yozishmalari ma'lum shaxs faoliyati, ruhiy holati, hayot tarzi, qiziqishlarining mahsuli hisoblanishini ham hisobga olish kerak. Ijtimoiy tarmoq matnlari lingvistik yoki psixologik tomondan alohida-alohida ekspertizadan o'tkaziladi. Shaxs tomonidan yaratilgan har bir matn ma'lum bir axborot tashishi bilan bir qatorda emotsional-ekspresivlik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Emotsionallik bu shaxsning psixik holatlarining ifodasi, ekspresivlik esa shu emotsiyani qanday bo'yoqlarda ochib berishidir. Matndagi emotsionallik til birliklari, emojilar orqali ochib beriladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini alohida emas balki, lingvistik va psixologik tomonini birgalikda psixolingvistik ekspertiza orqali tahlil qilinsa ishning samaradorligiga va vaqtning qisqarishiga erishilgan bo'lar edi. Bu ekspertiza

⁵ Baranov, 2007

jarayonini o'tkazish uchun birgina mutaxassis tomonidan olib borilmaydi. Ikkala mutaxassis ya'ni lingvist va psixologning hamkorlikdagi faoliyati yoki har ikkala sohani o'zlashtirgan psixolingvist-ekspert orqali olib boriladi.

Psixolingvistik-ekspertiza qanday yozishmalar ustida amalaga oshiriladi:

- 1) Ma'naviy zarar yetqazish (haqorat qilish, ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy adovat qo'zg'atish, milliy va hokazo ustunlikni targ'ib qilish bilan bog'liq matnlarda⁶;
- 2) Matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq yozishmalarda;
- 3) O'z joniga qasd qilish bilan bog'liq jinoyatlarda;
- 4) Ijtimoiy tarmoqlardagi reklama mazmunidagi yozishma shakllarining lingvistik ekspertizasida;
- 5) Ekstrimestik mazmundagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida;
- 6) Aldash va tovlamachilikka qaratilgan manipulyatsion ijtimoiy tarmoq yozishmalarida va boshqalar.

1	Ayblanuvchi ruhiy stress holatida bo'lganmi
2	Ayblanuvchi ruhiy buzilish jarayonida yozganmi
3	Jabrlanuvchining emotsionallik darajasi qanday
4	Ayblanuvchining emotsionallik darajasi qanday
5	Yozishmalarda ayblanuvchining temperamentini aks ettiruvchi til birliklari mavjudmi
6	Yozishmalarda jabrlanuvchining temperamentini aks ettiruvchi til birliklari mavjudmi
7	Solishtirilayotgan yozishmalardagi xarakterni ifodalovchi til birliklari A ga tegishlimi
8	Jabrlanuvchi o'z joniga qasd qilgan bo'lishi mumkinmi
9	Zo'rlanuvchi shaxs ruhiyatida buzilish holatlarini ifodalovchi til birliklari mavjudmi
10	Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida kodlangan jumlar mavjudmi

5-jadval. Psixolingvistik ekspertiza oldiga qo'yiladigan savollar:

Yuqoridagi savollar oxirgi xulosa emas. Sud-lingvistik ekspertizasida ijtimoiy tarmoq yozishmalarini o'rganishni alohida bir soha deyish mumkin. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari qog'ozdagi yozishmalardan farq qilib odatdagi og'zaki va yozma nutq kabi to'liq ifodalanmasligi yoki qo'shimcha belgilarga ega holda ifodalanishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini mutaxassis emas ekspert sifatida tahlil qilish orqali ekspertizaga taqdim etilgan obyektga to'g'ri xulosa berish mumkin bo'ladi. Haqorat, obro'sizlantirish mazmunidagi o'zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining psixolingvistik ekspertizasida ekspert foydalanishi mumkin bo'lgan maxsus izohli lug'at mavjud emas. Aynan shu kabi lingvistik va psixolingvistik lug'atlarni yaratish mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib, lug'atlardan foydalanish ekspertiza jarayonini osonlashtiradi.

Lingvistik ekspertologiyada masalaning samarali yechim topishida to'g'ri tahlil metodini tanlash ahamiyatlidir. "Lingvistik ekspertologiya metodologiyasi mohiyatidan kelib chiqqan holda uning funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- birinchidan, lingvistik ekspertizani mavzu yo'nalishiga ko'ra tarkibiy qismlarga ajratadi;
- lingvistik ekspertiza chegarasini aniqlaydi;

⁶ N.M.Qambarov Matnlarni tahlil qilishda psixolingvistik yondashuv//INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHIERS.2024.B-265. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/5690/9002>

- lingvistik ekspertiza qilish zarur bo'lgan matnlarni konfliktli va konfliktli bo'lmagan jihatlariga ko'ra aniqlaydi;
- lingvistik ekspertizaga asos bo'luvchi matnlarni belgilaydi va tarkibiy qismlarga ajratadi;
- metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash mezonlariga e'tibor qaratadi;
- lingvist-ekspert vakolatlarini belgilab beradi;
- ekspert xulosalarini to'g'ri shakllantirish mezonlarini ishlab chiqadi"⁷.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasida metodologiya masalasi ahamiyatlidir. Metodologiya konfliktli ijtimoiy tarmoq yozishmalarining turlarini ajratish, samarali usul va yondashuvlarni tanlash va tahlil jarayonining bosqichlarini belgilash, natijalarni jamlab, xulosalarni yaratish kabi masalalarning majmuini bildiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini kuzatish va ulardagi til birliklarini lingvistik bilimlar asosida tadqiq qilish natijasida anonim yozishmalarining mualliflarini aniqlash bo'yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Foydalanuvchining identifikatsion belgilariga e'tibor qilish orqali uning taxminiy portretini yaratish va gumon qilinayotgan shaxsning yozishmalari bilan solishtirgan holat shu foydalanuvchi A mi yoki B ekanligini aniqlash.

2) Foydalanuvchining so'z va qo'shimchalarni qo'llashiga ko'ra hususiy mansubligini aniqlash.

3) Foydalanuvchining emotsional so'zlardan va emojilardan foydalanishiga ko'ra uning jinsini aniqlash.

4) Foydalanuvchining til birliklaridan foydalanish imkoniyatiga va imloviy savodxonligiga ko'ra yoshini aniqlash

5) Foydalanuvchining til birliklarida foydalanishi, imloviy va punktuatsion savodxonligi va boshqa belgilari asosida uning kasbini aniqlash.

Shuningdek konfliktli matnlarning tahlilida lingvistik, psixologik, huquqiy va siyosiy bilimlarning hamkorlida lingvistik-ekspertiza xulosasi tayyorlanishi lozim.

- Konfliktli matnlarda metodologik yondashuv natijasida uning tiplarini to'g'ri ajratishga yordam beradi.

- Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini pragmatik belgilar asosida tahlil qilish.

- Kognitiv tilshunoslik psixolingvistik-ekspertiza jarayonini to'g'ri olib borishda tayanilishi kerak bo'lgan muhim sohalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

1) Har qanday matnda shakl va mazmun mavjud bo'ladi va bu ikki birlik aynan mos bo'lmashligi ham mumkin. Masalan: "Eshigingizni supurgani keldik" birikmasining shakli mazmun bilan mutanosib emas. Til birliklarining ko'chma ma'noda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz.

2) Lingvist-ekspertning xulosasi hukm bo'la olmaydi. Sud hukmining odilona bo'lishiga xizmat qiladi.

⁷ K.X.Musulmonova O'zbek tili yozma matnlarning lingvistik ekspertiza qilish jarayonlari, bosqichlari va metodlari. DISSERTATSIYA. Qo'qon– 2022. B-49

3) Lingvistik-ekspertiza jarayonini birgina mutaxassis olib bora olmaydi bir nechta mutaxassislarning hamkorligida amalga oshiriladi.

4) Mutaxassis va ekspert bir ma'noni ifodalamaydi. Mutaxassis ma'lum bir soha doirasida, ekspert bir nechta sohalarni o'zlashtirgan shaxs.

5) Lingvistik-ekspertizaning turi, bosqichlarining aniqlanishi muammoning yechim va xulosalarining berilishi metodologiya orqali amalga oshiriladi.

Takliflar:

Normativ-huquqiy va strategik takliflar:

-Lingvistik-ekspertiza faoliyatini viloyatlar kesimida yo'lga qo'yish va ekspertlar malakasini oshirishiga imkoniyatlar yaratib berish.

-Lingvistik-ekspertizaning psixolingvistik-ekspertiza tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berish.

-Lingvistik va psixolingvistik-ekspertizasi ustida tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilarga jarayonni to'g'ri va aniq tahlil qila olishni o'rganishi uchun amaliyotlar olib borishiga imkoniyatlar yaratib berish.

-Lingvistik-ekspertiza jarayonida foydalanish uchun lug'atni shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 416 b.

2. А. А. Воробьева МЕТОДИКА ИДЕНТИФИКАЦИИ ИНТЕРНЕТ-ПОЛЬЗОВАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК КОРОТКИХ ЭЛЕКТРОННЫХ СООБЩЕНИЙ. АВТОРЕФЕРАТ. Санкт-Петербург-2017. Б-4

3. K.Musulmonova O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. DISS. Qo'qon– 2022. B-61

4. <https://sudex.uz/>

5. https://sudex.uz/?page_id=81

6. https://sudexpert.uz/?page_id=306#page-content

7. Baranov, 2007

8. N.M.Qambarov Matnlarni tahlil qilishda psixolingvistik yondashuv//INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHIERS.2024.B-265.

<https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/5690/9002>

9. Арутюнов А. С. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления

проявлений экстремизма// ОБЩЕСТВО И ПРАВО -2019. № 2 (68) с-80

10. Qarang: Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие. Флинта: Наука, 2007. 592 с. Будаев Э.В, Ворошилова М.Б., Руженцева Н.Б. Эволюция лингвистической экспертизы. Методы и приемы Моногр.М.: ФЛИНТА, 2019. 264 с. Изотова Т.М., Кузнецов В.О., Плотникова А.М. Методика проведения судебной лингвистической экспертизы по делам об оскорблении М.:ФБУ РФЦСЭ при Минюсте. России 2016. 90 с.

**THE ROLE OF TEACHERS IN FOSTERING CRITICAL THINKING
SKILLS****Shomurodova Makhliyo Mingnor qizi**Assistant Teacher at the Department of Philology
and Language Teaching, Karshi International Universitye-mail: shomurodovamahliyo2@gmail.comORCID <https://orcid.org/0009-0004-3241-8310>

Annotation: This article examines the pivotal role of teachers in cultivating critical thinking skills among students across diverse educational contexts. It highlights the significance of teacher-centered and learner-centered approaches, emphasizing strategies such as questioning techniques, problem-based learning, and reflective practices. The study argues that teachers are not only knowledge transmitters but also facilitators of independent thought and intellectual curiosity. Findings suggest that effective teacher training and innovative pedagogy are crucial in equipping students with the critical thinking skills necessary to meet the demands of the 21st century.

Ключевые слова: Critical thinking, teachers, pedagogy, problem-based learning, reflective practices, teacher training, higher education, independent thought, intellectual curiosity, questioning techniques, learning strategies, education, student engagement, cognitive development, classroom practice, innovation, facilitation, critical pedagogy, skills, 21st century education.

**O'QITUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI****Shomurodova Mahliyo Mingnor qizi**Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o'qitish
kafedrasi assistant o'qituvchisie-pochta: shomurodovamahliyo2@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0004-3241-8310>

Annotatsiya Ushbu maqola turli ta'limiy kontekstlarda o'qituvchilarning talabalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi muhim rolini o'rganadi. Unda o'qituvchi markazli va o'quvchi markazli yondashuvlarning ahamiyati yoritilib, savol berish texnikalari, muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim hamda reflektiv amaliyotlar kabi strategiyalar ta'kidlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar nafaqat bilim beruvchilar, balki mustaqil fikrlash va intellektual qiziquvchanlikni shakllantiruvchi yo'l boshchilardir. Natijalar samarali o'qituvchi tayyorlash va innovatsion pedagogika 21-asr talablari uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, o'qituvchilar, pedagogika, muammoli ta'lim, reflektiv amaliyotlar, o'qituvchilarni tayyorlash, oliy ta'lim, mustaqil fikrlash, intellektual qiziquvchanlik, savol berish texnikalari, o'quv strategiyalari, ta'lim, talaba faolligi, kognitiv rivojlanish, sinf amaliyoti, innovatsiya, yo'naltirish, tanqidiy pedagogika, ko'nikmalar, 21-asr ta'limi.

**РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ****Шомуродова Махлиё Мингнор кизи**Ассистент-преподаватель кафедры Филология и
преподавание языков Каршинского международного университета.э почта: shomurodovamahliyo2@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0004-3241-8310>

Аннотация: В данной статье рассматривается ключевая роль учителей в формировании навыков критического мышления у студентов в различных образовательных контекстах. Подчеркивается важность учитель-центристских и ученик-центристских подходов, акцент делается на таких стратегиях, как техники постановки вопросов, проблемное обучение и рефлексивная практика. В исследовании утверждается, что учителя

являются не только передатчиками знаний, но и наставниками, формирующими самостоятельное мышление и интеллектуальное любопытство. Результаты показывают, что эффективная подготовка учителей и инновационная педагогика играют решающую роль в формировании навыков критического мышления, необходимых для соответствия требованиям XXI века.

Ключевые слова: Критическое мышление, учителя, педагогика, проблемное обучение, рефлексивная практика, подготовка учителей, высшее образование, самостоятельное мышление, интеллектуальное любопытство, техники вопросов, стратегии обучения, образование, активность студентов, когнитивное развитие, учебная практика, инновации, наставничество, критическая педагогика, навыки, образование XXI века.

Introduction. Education in the twenty-first century faces demands unlike any previous era. Students today live in a world shaped by fast technological progress, globalization, and constant change in almost every aspect of life. Because of these changes, education cannot simply focus on memorization or passing examinations. Instead, schools and universities must prepare learners for challenges such as analyzing complex information, solving unfamiliar problems, and making independent decisions. A central skill that makes all these possible is critical thinking (Halpern, 2014). Critical thinking gives learners the ability to reason carefully, question assumptions, weigh evidence, and come to logical conclusions. It also helps them develop independence of thought rather than blindly following what others say. This ability is not only important for academic success but also for functioning as active citizens in democratic societies, as creative workers in the economy, and as responsible individuals in daily life (Brookfield, 2012). Among all factors that influence the development of critical thinking, teachers play the most direct and decisive role. Curriculum frameworks, textbooks, and educational technology provide support, but it is the teacher who interacts with learners every day, shaping how they approach knowledge. Teachers are not only transmitters of information; they act as guides, facilitators, and models of intellectual behavior. This article examines the role of teachers in fostering critical thinking skills. It focuses on three main issues: how teachers encourage and model critical thinking, what methods are most effective, and what challenges make it difficult for teachers to promote such thinking. The article also argues that improving teacher preparation and ongoing professional development is essential if education systems want to build generations of students with strong critical thinking skills.

Literature Review

Critical thinking has been studied for many decades, and although definitions vary, most scholars agree on a few core ideas. It involves questioning, reasoning, evaluating, and making judgments rather than just accepting information. According to Ennis (1985), critical thinking is “reasonable reflective thinking focused on deciding what to believe or do.” Facione (1990) describes it as a purposeful, self-regulated process of analyzing and evaluating information. More recently, Paul and Elder (2006) highlighted qualities such as clarity, accuracy, and fairness as essential standards of good thinking. Educational theories also stress the importance of teachers in this process. Dewey (1938) emphasized that learning should be based on active experience

and reflection, with the teacher acting as a facilitator rather than a dictator. Vygotsky (1978) showed how teachers help learners move to higher levels of reasoning by providing support within the learner's "zone of proximal development." Similarly, Piaget (1972) argued that learners must engage in active discovery to build meaningful understanding. Empirical studies have explored methods that encourage critical thinking. For example, questioning strategies push learners to justify their ideas rather than memorize answers (Yang, Newby, & Bill, 2005). Group discussions and debates allow students to hear multiple viewpoints and refine their reasoning (Kennedy, 2007).

Problem-based learning connects theory to practice, requiring students to think critically in real-world contexts (Hmelo-Silver, 2004). Reflective practices such as journaling help learners evaluate their thought processes (Moon, 2013). Collaborative learning and peer feedback have also been shown to enhance critical thinking by exposing students to different reasoning styles (Gokhale, 1995). However, research also shows that many teachers struggle to integrate critical thinking into their classrooms. Stapleton (2011) found that exam-driven systems push teachers to focus on factual recall. Atkinson (1997) argued that cultural traditions can discourage questioning authority, making it harder for teachers to create open inquiry environments. More recent studies suggest that even when teachers value critical thinking, they may lack practical strategies to implement it effectively (Lai, 2011).

These findings suggest that both teacher preparation and educational systems need to change if critical thinking is to become a reality in schools.

Methodology

This article uses a qualitative narrative review approach. Rather than collecting new data, it synthesizes insights from books, journal articles, and policy documents. The focus is not on statistics but on identifying common patterns in the discussion of teachers' roles in developing critical thinking. Sources were selected from recognized academic publishers and international organizations published in the last few decades. The analysis involved reading and categorizing information into themes: the teacher's role, effective strategies, challenges, and implications for teacher education. The purpose of this approach is to provide a clear, accessible, and practical understanding of the issue.

Findings and Analysis

The review of literature and analysis of examples reveal several important findings. The first and perhaps most important finding is that teachers influence students most by the way they think and act themselves. A teacher who encourages questions, admits when they do not know something, and reflects openly on their reasoning sets a powerful example (Brookfield, 2012). Students see that critical thinking is not about always being right but about being willing to examine issues carefully.

Conversely, teachers who rely only on lectures and discourage questioning risk producing passive learners who simply memorize. Several teaching methods stand out as effective for fostering critical thinking. Questioning strategies, particularly open-ended questions, force students to go beyond yes/no answers and explain their

reasoning (Yang et al., 2005). Debates and group discussions provide opportunities to encounter different perspectives (Kennedy, 2007). Problem-based learning connects learning to real-life issues, requiring students to analyze situations from multiple angles (Hmelo-Silver, 2004). Reflective practices such as journals or learning diaries help students evaluate their thought processes (Moon, 2013). Technology-enhanced learning environments, such as online discussion forums, have also been shown to stimulate deeper inquiry and reflection (Garrison & Vaughan, 2008). Despite the importance of critical thinking, teachers face serious challenges. In many education systems, standardized exams dominate the agenda, leaving little time for inquiry-based methods (Stapleton, 2011). Large class sizes also reduce opportunities for individual engagement. Cultural factors matter too: in some contexts, questioning teachers or authority figures is seen as disrespectful, making it difficult for teachers to create open dialogue (Atkinson, 1997). Moreover, teacher education programs often focus more on subject knowledge than on methods of teaching thinking skills (Lai, 2011).

Discussion

The findings clearly show that teachers are central to the development of critical thinking. Yet, it is also clear that teachers cannot do this work effectively without systemic support. If the system emphasizes memorization and examinations, then teachers will be pressured to “teach to the test” rather than foster inquiry (Halpern, 2014). If teacher training programs do not prepare teachers with practical strategies, they will enter the classroom unprepared. At the same time, teachers themselves must take responsibility. Developing critical thinking requires not only knowledge of techniques but also a mindset. Teachers must be willing to encourage questioning, tolerate uncertainty, and allow students to make mistakes as part of the learning process. This is not always easy, especially in cultures or systems that value conformity, but it is essential (Brookfield, 2012). The role of teachers in fostering critical thinking goes beyond academic success. In today’s world, young people face misinformation, social polarization, and ethical dilemmas created by technology. Critical thinking equips them to make wise choices and contribute positively to society (Paul & Elder, 2006). Teachers, therefore, are not just educators of individuals but also builders of democratic and innovative societies.

Conclusion

This article has shown that teachers play a decisive role in fostering critical thinking skills. They do so by modeling intellectual curiosity, using strategies such as questioning and problem-based learning, and creating classroom environments where reflection and discussion are valued. However, teachers face challenges such as exam pressure, cultural resistance, and insufficient training. To address these challenges, education systems must integrate critical thinking into teacher preparation and professional development. Teachers must be empowered with both the theoretical understanding and the practical tools to cultivate independent thought. At the same time, teachers themselves must adopt reflective and open-minded attitudes. Ultimately, fostering critical thinking is not just an academic goal but a social necessity. In the twenty-first century, societies need individuals who can analyze information, solve problems creatively, and participate responsibly in democratic life. Teachers hold the

key to this future. By guiding students to think critically, they ensure that education fulfills its highest purpose: preparing learners not just for exams, but for life.

References

1. Atkinson, D. (1997). A critical approach to critical thinking in TESOL. *TESOL Quarterly*, 31(1), 71–94.
2. Brookfield, S. (2012). *Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions*. Jossey-Bass.
3. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
4. Ennis, R. H. (1985). A logical basis for measuring critical thinking skills. *Educational Leadership*, 43(2), 44–48.
5. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report)*. American Philosophical Association.
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. Jossey-Bass.
7. Gokhale, A. A. (1995). Collaborative learning enhances critical thinking. *Journal of Technology Education*, 7(1), 22–30.
8. Halpern, D. F. (2014). *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking* (5th ed.). Psychology Press.
9. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235–266.
10. Kennedy, M. (2007). Defining critical thinking. *Chronicle of Higher Education*, 53(19), B11–B13.
11. Lai, E. R. (2011). Critical thinking: A literature review. *Pearson Research Report*.
12. Moon, J. A. (2013). *Reflection in Learning and Professional Development: Theory and Practice*. Routledge.
13. Piaget, J. (1972). *The Principles of Genetic Epistemology*. Routledge.
14. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. Pearson.
15. Stapleton, P. (2011). A survey of attitudes towards critical thinking among Hong Kong secondary school teachers. *Thinking Skills and Creativity*, 6(1), 14–23.
16. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
17. Yang, Y.-T. C., Newby, T. J., & Bill, R. L. (2005). Using Socratic questioning to promote critical thinking skills through asynchronous discussion forums in distance learning environments. *American Journal of Distance Education*, 19(3), 163–181.

UDK: 413.164:943.75

O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Mannonova Maftuna Shukrillo qizi

Qarshi xalqaro universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) kafedrası o'qituvchisi,

maftunamannonova3@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2675-8132

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi kulolchilik sohasiga oid terminologiyaning lingvokulturologik talqini amalga oshirilgan. O'zbek tilidagi kulolchilik terminlari faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki o'zbek xalqining madaniy merosi, an'anaviy qadriyatlarini va san'atini aks ettiruvchi atamalar sifatida ham tahlil qilinadi. Maqolada kulolchilikning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarida tilning roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek tilida kulolchilikka oid atamalarni aniqlash va ular orqali milliy dunyoqarashni o'rganish, lingvokulturologik yondashuvning asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, kulolchilik, terminologiya, lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, milliy dunyoqarash, hunarmandchilik, til va madaniyat, qadriyatlar..

УДК: 413.164:943.75

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО ГОНЧАРНОГО ДЕЛА

Маннонова Мафтуна Шукрилло кизи

Преподаватель кафедры филологии и преподавания языков (узбекский язык)

Каршинского государственного университета

maftunamannonova3@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2675-8132

Аннотация. В данной статье проводится лингвокультурологическое толкование терминологии узбекского языка в области гончарного дела. Термины гончарного дела на узбекском языке анализируются не только с точки зрения лингвистики, но и как элементы культурного наследия узбекского народа, отражающие традиционные ценности и искусство. В статье рассматривается роль языка в историческом, культурном и социальном контексте гончарства. Также поднимается вопрос определения терминов гончарного дела на узбекском языке и исследования через них национального мировоззрения, что является основной целью лингвокультурологического подхода.

Ключевые слова: Узбекский язык, Гончарное дело, Терминология, Лингвокультурология, Культурология, Национальный миропонимание, Ремесло, Язык и культура, Традиции.

UDK: 413.164:943.75

LINGUOCULTUROLOGICAL INTERPRETATION OF THE TERMINOLOGY OF UZBEK CERAMICS

Mannonova Maftuna Shukrillo qizi

Department of Philology and Teaching Languages

(Uzbek Language) Lecturer, Karshi International University

maftunamannonova3@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2675-8132

Abstract. This article presents a linguoculturological interpretation of ceramics terminology in the Uzbek language. The ceramics terms of the Uzbek language are analyzed not only from a linguistic perspective but also as components of the cultural heritage of the Uzbek people, reflecting their traditional values and art. The article examines the role of language in the historical, cultural, and social contexts of ceramics. It also addresses the identification of ceramics-related terms in the Uzbek language and their significance in understanding the national worldview, which serves as the primary goal of the linguoculturological approach.

Keywords: Uzbek language, Ceramics, Terminology, Linguoculturology, Cultural studies, National worldview, Craftsmanship, Language and culture, Traditions

Kirish. O'zbek tili va madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu tilning har bir sohasida, shu jumladan, an'anaviy hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik san'ati bilan bog'liq terminologiyada o'z aksini topadi. Kulolchilik sohasining o'ziga xosligi, uning tarixiy va madaniy ildizlari, o'zbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tili — turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining boy va rang-barang lug'aviy tarkibi bilan ajralib turadi. Bu til faqat mintaqaviy yoki ijtimoiy qatlamlarda foydalaniladigan atamalar bilan cheklanmaydi, balki xalqning turmush tarzini, qadriyatlarini, san'atini va madaniyatini aks ettiradi. Kulolchilik — bu O'zbekistonda qadimdan rivojlangan va xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan hunar. Kulolchilikning o'ziga xos terminologiyasi nafaqat amaliy bilimlarni ifodalovchi so'zlar majmuasi, balki o'zbek xalqining dunyoqarashi, an'analari, qadriyatlari va milliy ma'naviyatining aksidir. Ushbu maqolada kulolchilik sohasidagi terminlarning lingvokulturologik tahlili amalga oshiriladi va ularning xalq madaniyati bilan aloqasi o'rganiladi.

O'zbek tili kulolchilik terminologiyasining o'ziga xosligi

O'zbek tilida kulolchilik bilan bog'liq terminlar nafaqat bu sohaga xos texnik atamalarni, balki o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini ham aks ettiradi. Kulolchilik sohasida ishlatiladigan so'zlar va iboralar, asosan, mehnat jarayonining xususiyatlari, qulayliklar, san'atkorlik va jismoniy harakatlarni ifodalovchi atamalardir. Masalan, "qamish", "g'isht", "palak", "dastgoh" kabi so'zlar kulolchilikning asbob-uskunalari va mahsulotlari bilan bog'liq bo'lib, ularda xalqqa xos madaniy ma'no va tarixiy ma'lumotlar mujassamdir. Bunday terminlar o'zbek tili va madaniyatining o'ziga xosligini tushunishga yordam beradi.

Lingvokulturologik yondashuv va kulolchilik terminologiyasi

Lingvokulturologik yondashuv, til va madaniyatning bir-biriga bo'lgan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Kulolchilik terminologiyasida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi aniq ko'rinadi. Har bir so'z va atama faqat tilning tarkibiy elementi bo'lib qolmay, balki ma'lum bir tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining kulolchilikka bo'lgan munosabati va bu san'at turini qadrlash darajasi, uning tilidagi kulolchilik atamalarida o'z aksini topadi.

O'zbek kulolchilik san'ati, tarixan, nafaqat estetik jihatdan, balki xalqning ijtimoiy hayoti, iqtisodiyoti va diniy-e'tiqodiy an'alariga ham qattiq bog'liqdir. Kulolchilikning rivojlanish jarayoni, undan foydalanish, va unga bo'lgan yondashuvlar til orqali uzluksiz tarzda avlodlarga yetkazilgan. Hunarmandchilik sohasiga oid terminlar nafaqat materiallarni yoki jarayonni ifodalovchi, balki o'zbek xalqining ma'naviy hayoti bilan bog'liq chuqur ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Kulolchilik terminologiyasini lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganish, nafaqat o'sha sohaning tilshunoslik jihatlarini, balki uning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ham tushunishga yordam beradi. O'zbek tili kulolchilik terminologiyasi xalqning tarixiy tajribasini va madaniy merosini saqlovchi, shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bu sohalar, o'z navbatida, o'zbek xalqining dunyoqarashi va hayot tarzini to'liq aks ettiradi. Kulolchilikda ishlatiladigan ba'zi atamalar esa, tarixan, ijtimoiy maqom va hunarmandchilikni ifodalovchi belgilar sifatida o'zining madaniy ahamiyatini kuchaytiradi.

Lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan ilmiy sohaga aylandi. Lingvokulturologik yondashuv, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tarixini saqlovchi omil sifatida tushunadi. Kulolchilik terminologiyasini lingvokulturologik talqin qilish, uning faqat texnik emas, balki madaniy va ijtimoiy rolini ham aniqlash imkonini beradi. Kulolchilik sohasidagi atamalar, madaniyatning o'ziga xosligi, xalqning qadriyatlari va dunyoqarashi haqida bizga muhim ma'lumotlar beradi.

Misol uchun, “qoplama”, “g'isht” kabi atamalar nafaqat kulolchilik mahsulotlarini ifodalovchi so'zlar, balki ularning shakl va dizaynini yaratish jarayonidagi an'analarga asoslangan ijtimoiy-ma'naviy kodlarni aks ettiradi. Ushbu atamalar, o'z navbatida, o'sha davrning material madaniyatini va uning yaxlitligini anglatadi. Kulolchilik buyumlari, ularning shakli va ishlov berilish usullari, o'zbek xalqining dunyoqarashi va estetik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan bir turi sifatida qaraladi.

O'zbek kulolchilik terminologiyasida lingvomadaniy yondashuv, so'z va ifodalar orqali o'zbek xalqining madaniy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettirishni ta'minlovchi muhim bir jarayonni ifodalaydi. Kulolchilik, xalqning qadimiy hunaridir va unda til, an'analar, va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Lingvomadaniy yondashuv, tilning va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu sohada kulolchilik terminologiyasi ham aniq va o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Kulolchilik – bu nafaqat hunar, balki xalqning tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi bir sohaga aylangan. O'zbek kulolchilik san'ati, o'ziga xos til va atamalarni yaratgan. Bu atamalar va iboralar orqali odamlar o'z mehnatlari, ishlab chiqarish jarayonlari, turmush tarzlari va falsafiy qarashlarini ifoda etganlar. Lingvomadaniy yondashuv, aynan shu nuqtada til va madaniyatning bir-birini qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Kulolchilikda ishlatiladigan terminlar ko'pincha zamon davomida shakllangan, turli madaniy va geografik sharoitlarga mos ravishda o'zgarib borgan. Kulolchilikning ko'plab atamalari tabiatdan, ayniqsa yer, suv va o'simliklardan ilhomlanadi. Bu so'zlar xalqning tabiatga bo'lgan chuqur munosabatini ko'rsatadi.

Kulolchilik terminologiyasida lingvomadaniy yondashuv shundan iboratki, bu so'zlar o'zingizni ifoda etish usulidan, biror bir narxni belgilash yoki narxni anglatishda va o'sha vaqt mobaynida xalqning qanday ijtimoiy, madaniy qadriyatlarni olganligidan dalolat beradi. Masalan, “spool” so'zi o'zbek xalqi uchun faqatgina bir material emas, balki unda o'zining tarixiy va madaniy jihatlari mavjud. Bu so'zning shakllanishi va ishlatilishi, o'zbek xalqining tarixiy madaniyatiga ta'sir qilgan omillarni aks ettiradi.

“Sopol”: Sopol (keramika) o'zbeklar uchun keng tarqalgan materialdir. Uning ishlatilishi ko'plab madaniy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: ya'ni bu material orqali yaratilgan idishlar, uy-ro'zg'or buyumlari va hatto san'at asarlari xalqning mehnatsevarligini, estetik qarashlarini ifodalaydi. O'zbek tilidagi kulolchilik atamalarining rus va boshqa tillarga tarjima qilinishi, madaniyatlararo aloqalarni

o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “spool” so‘zining ruscha tarjimasida “керамика” bo‘lsa, bu so‘zning o‘zbek tilida ko‘proq madaniy, tarixiy kontekstda ishlatilishi uning lingvomadaniy ahamiyatini yanada oshiradi. Kulolchilikda ishlatiladigan so‘zlar, xalqning e‘tiqodlari va qadriyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, “sopol choynak” yoki “sopol idish” – bu oddiy uy-ro‘zg‘or buyumlari bo‘lishi mumkin, ammo ular o‘zbeklar orasida salomatlik, mehmondo‘stlik va oilaviy qadriyatlar bilan bog‘liq.

O‘zbek kulolchilik terminologiyasida lingvomadaniy yondashuv, til va madaniyatning qanday o‘zaro bog‘liqligini, so‘zlar va iboralar orqali xalqning qadriyatlari, tarixiy va madaniy merosini qanday aks ettirishini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv kulolchilik san‘atining faqat texnik jihatlarini emas, balki xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini, tabiatga bo‘lgan munosabatini, va uning mehnat qilishdagi ruhini ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Bu atamalar o‘zbek kulolchilik san‘ati va an‘analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqning tarixiy va madaniy merosini aks ettiradi. Bu so‘zlar faqatgina materialni yoki buyumni emas, balki xalqning tabiiy resurslar, mehnat va san‘atsal qarashlarini ham ifodalaydi.

Kulolchilik sohasining tarixiy va madaniy konteksti

Kulolchilikning o‘ziga xos terminologiyasi, asrlar davomida rivojlanib, xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat qadriyatlari va ma‘naviy dunyoqarashini aks ettirgan. O‘zbek xalqining kulolchilikka bo‘lgan yondashuvi, uning tilidagi so‘zlar orqali bizga yetib kelgan. Ularning ko‘plab atamaları tarixiy jihatdan o‘z xalqining xalq hunarmandchiligiga bo‘lgan e‘tibori va ahamiyatini ifodalaydi. Xalqimizning kulolchilikka bo‘lgan yondashuvi, nafaqat o‘sha san‘at turini rivojlantirishga, balki unga hurmat va e‘tibor bilan qarashga asoslangan.

Kulolchilik san‘ati, xalqning mehnat faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini aks ettirgan bo‘lsa-da, uning bir qismini ijtimoiy hayotning turli qatlamlari tashkil etgan. Kulolchilik buyumlari xalq orasida ulkan ro‘l o‘ynagan, chunki ular faqatgina uy-ro‘zg‘or ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmagan, balki diniy marosimlar, to‘ylar va boshqa ijtimoiy tadbirlarda ham ishtirok etgan. Bunday buyumlar xalqning estetik tasavvurlarini, mehnat qadriyatlarini va jismoniy mehnatga bo‘lgan yondashuvini aks ettirgan.

Xulosa

Xulosa. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida huquqiy xizmat faoliyati nafaqat ichki huquqiy tartib-intizomni ta'minlash, balki jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi, ta'lim sifatining oshirilishi va huquqiy davlat qurilishiga bevosita hissa qo'shadigan muhim mexanizm sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar huquqiy xizmat faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlamoqda. Shu jihatdan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida yurist-konsultlarning faoliyati ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, qonuniylik va shaffoflikni kafolatlovchi, huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqiy xizmat faoliyatining samarali amalga oshirilishiga bir qator amaliy muammolar to'sqinlik qilmoqda. Jumladan, malakali kadrlar yetishmovchiligi, huquqiy xizmatning moddiy-texnik bazasining sustligi, huquqiy ong va madaniyat darajasining yetarli emasligi hamda korrupsion xavflarning mavjudligi tizim samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida qayd etildi. Shu bois, huquqiy xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflar asosiy natijalar sifatida ilgari surilishi mumkin:

Birinchidan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida huquqiy xizmat faoliyatini yurituvchi yurist-konsultlarning malaka darajasini oshirish, ularni sohaga ixtisoslashtirish va muntazam ravishda qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bu borada Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi, malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur.

Ikkinchidan, huquqiy xizmat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish talab qilinadi. Hujjatlar aylanishini elektron shaklga o'tkazish, huquqiy monitoring va auditni raqamli platformalar orqali amalga oshirish huquqiy xizmatning tezkorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa nafaqat huquqiy xizmat samaradorligini ta'minlaydi, balki butun ta'lim muassasasi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini kafolatlaydi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun tizimli choralar ko'rilishi zarur. O'qituvchilar va talabalar uchun huquqiy seminarlar, mahorat darslari, treninglar muntazam tashkil etilishi, huquqiy

bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiruvchi maxsus dasturlar joriy qilinishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonida huquqiy madaniyatning amaliy natija berishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, korrupsion xavflarni bartaraf etish maqsadida ta'lim muassasalarida shaffof boshqaruv tizimini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, shartnomaviy munosabatlarni qonunchilik asosida qat'iy tartibga solish zarur. Shu maqsadda ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilishi, jamoatchilik nazoratidan faol foydalanilishi ham dolzarbdir.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida huquqiy xizmat faoliyatining samaradorligi ta'lim tizimi rivojiga, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishga, jamiyatda qonuniylik va adolat tamoyillarining qaror topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur sohada ilgari surilgan nazariy g'oyalar va amaliy mexanizmlar uzviy uyg'unlikda amalga oshirilishi zarur. Natijada, ta'lim tizimi yanada samarali, ochiq va shaffof bo'lib, pedagogik oliy ta'lim muassasalari jamiyat taraqqiyotiga huquqiy asosda hissa qo'shuvchi mustahkam institutga aylanadi.

Huquqiy xizmat faoliyatini takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish va samaradorligini oshirish bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega vazifadir. Bu yo'lda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ta'lim tizimida huquqiy muhitni mustahkamlash, jamiyatda qonuniylik, adolat va shaffoflikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 84 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020 y. № 3PY-637. – Toshkent: LexUZ, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 03.01.2017 y. № 3PY-419. – Toshkent: LexUZ, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PQ-4761-son, 29.06.2020 y. – Toshkent: Prezident hujjatlari to'plami, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni. PF-5847-son, 08.10.2019 y. – Toshkent: Prezident hujjatlari to'plami, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. 2021 y. – Toshkent.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
9. Abdurahmonov Q., Xudoyberdiyev R. Huquqshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 420 b.
10. To'laganova S. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 312 b.
11. Raximov S., Jo'rayev N. Oliy ta'limda boshqaruv va huquqiy tartibot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 256 b.

12. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464
13. Boboyev H., Qosimova M. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 344 b.
14. Qosimov B. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni // O'zbekiston huquqshunoslik jurnali. – 2022. – №4. – B. 55–63.
15. OECD. Integrity of Education Systems: Preventing Corruption in Higher Education. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 189 p.
16. UNESCO. Strengthening Legal Frameworks for Education Systems. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 142 p.
17. Transparency International. Global Corruption Report: Education. – London: Routledge, 2018. – 210 p.
18. Marshall, T.H. Citizenship and Social Class. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 120 p.
19. Shirinqulov R. Oliy ta'lim tizimida huquqiy xizmatning amaliy muammolari va yechimlari // "Ijtimoiy fanlar" ilmiy jurnali. – Toshkent, 2023. – №2. – B. 77–85.

OLIV PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR AKADEMIK VA IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MENEJER XODIMLAR FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI VA SAMARADORLIGI

Qahramonov Shahzod Burhonovich

Shahrisabz davlat pedagogika institute,
o'quv jarayonini muvofiqlashtirish bo'yicha menejer
E-pochta: shahzodqahramonov54@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar akademik faoliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida menejer xodimlar faoliyatining nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va samaradorlik omillari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Talabalarning o'quv natijalari, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, tashabbuskorligi va faolligini oshirishda menejer xodimlarning tashkiliy, tarbiyaviy va ma'rifiy faoliyati muhim o'rin tutishi asoslab beriladi. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribasi va milliy qonunchilikka tayangan holda talabalar akademik yutuqlarini baholash, ijtimoiy faollikni monitoring qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy hamda amaliy mexanizmlar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** Pedagogik oliy ta'lim, talabalar akademik faoliyati, ijtimoiy faollik, menejer xodim, samaradorlik, boshqaruv, huquqiy asoslar, nazariy yondashuv, kompetensiya, ta'lim tizimi, monitoring, tashabbuskorlik, pedagogik menejment, yoshlar siyosati, strategiya, nazorat, motivatsiya, sifat, innovatsiya, xalqaro tajriba, metodologiya, tarbiya, tashkiliy faoliyat, ta'lim samaradorligi, fuqarolik faolligi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕНЕДЖЕРОВ В РАЗВИТИИ АКАДЕМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Кахрамонов Шахзод Бурхонович

Шахрисабзский государственный педагогический институт,
менеджер по координации учебного процесса
E-mail: shahzodqahramonov54@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье научно анализируются теоретические основы, методологические подходы и факторы эффективности деятельности менеджеров в процессе развития академической и социальной активности студентов в педагогических*

вузах. Обосновано, что организационная, воспитательная и просветительская деятельность менеджеров играет важную роль в повышении учебных результатов студентов, их участия в общественной жизни, инициативности и активности. Кроме того, на основе международного образовательного опыта и национального законодательства разработаны теоретические и практические механизмы оценки академических достижений студентов, мониторинга социальной активности и повышения эффективности управления.

Ключевые слова: педагогическое высшее образование, академическая деятельность студентов, социальная активность, менеджер, эффективность, управление, правовые основы, теоретический подход, компетенция, система образования, мониторинг, инициативность, педагогический менеджмент, молодежная политика, стратегия, контроль, мотивация, качество, инновации, международный опыт, методология, воспитание, организационная деятельность, эффективность образования, гражданская активность.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND EFFECTIVENESS OF MANAGERS' ACTIVITIES IN DEVELOPING STUDENTS' ACADEMIC AND SOCIAL ACTIVENESS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Qahramonov Shahzod Burhonovich

Shakhrisabz State Pedagogical Institute,

Manager for Coordination of the Educational Process

E-mail: shahzodqahramonov54@gmail.com

Abstract: This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations, methodological approaches, and efficiency factors of managers' activities in the process of developing students' academic performance and social activeness in pedagogical higher education institutions. It is substantiated that the organizational, educational, and enlightenment functions of managers play a crucial role in improving students' learning outcomes, participation in social life, initiative, and activity. Moreover, based on international educational practices and national legislation, theoretical and practical mechanisms are developed for assessing students' academic achievements, monitoring social activeness, and enhancing management efficiency.

Keywords: pedagogical higher education, students' academic activity, social activeness, manager, effectiveness, management, legal framework, theoretical approach, competence, education system, monitoring, initiative, pedagogical management, youth policy, strategy, control, motivation, quality, innovation, international experience, methodology, upbringing, organizational activity, educational effectiveness, civic activeness.

Kirish

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash talablari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalar faqatgina nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallabgina qolmay, balki keng ijtimoiy muhitda faol, tashabbuskor, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishi zarur. Bu jarayonda akademik faoliyat va ijtimoiy faollik uyg'unligini ta'minlash boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, menejer xodimlarning faoliyati nafaqat ta'lim jarayonida, balki talabalarning ijtimoiy hayotini samarali tashkil etishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (2020) ta'lim tizimining asosiy maqsadi – yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollikka ega, yuksak ma'naviyatli shaxslarni tayyorlash ekani belgilab berilgan. Shuningdek, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016) va Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi,

ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.[1] "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da (2022) esa yoshlar bilan ishlash, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish va fuqarolik jamiyatida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Bu huquqiy asoslar menejer xodimlarning pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tutgan o'rnini nazariy jihatdan belgilab beradi.

Talabalarning akademik faoliyatini samarali boshqarish o'z navbatida ularning o'quv natijalarini oshirish, ilmiy izlanishlarga jalb etish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy faollik darajasi – bu talabaning jamoatchilik ishlarida ishtiroki, ijtimoiy loyihalarda faoliyat ko'rsatishi, o'z tashabbuslarini ilgari surishi va fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi bilan belgilanadi. UNESCO'ning "Global Education Monitoring Report" (2021) hamda Bologna jarayonining asosiy tamoyillari ta'lim sifatini aniqlashda aynan talabaning akademik yutuqlari va ijtimoiy faolligini eng muhim indikator sifatida ko'rsatadi.

Shu o'rinda menejer xodimlarning vazifalari nafaqat ta'lim jarayonini tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, balki talabalar manfaatlarini himoya qilish, ularni rag'batlantirish, ijtimoiy loyihalarga jalb etish, psixologik va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga ham qaratilgan. Xalqaro amaliyotda AQSh, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan "student affairs management" modeli talabalarning o'quv va ijtimoiy faoliyatini uyg'un holda boshqarishda yuqori natijalar berganini ko'rsatmoqda.[9] O'zbekiston tajribasida esa bu jarayon endilikda bosqichma-bosqich shakllanmoqda, ammo milliy qonunchilik va ta'lim sohasidagi islohotlar bu borada mustahkam zamin yaratmoqda.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida menejer xodimlarning talabalar akademik faoliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masaladir. Mazkur maqolada menejer xodimlarning faoliyati nazariy asoslarda tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirishning milliy va xalqaro tajribaga asoslangan mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

METODOLOGIYA VA NATIJA. Tadqiqot davomida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalar akademik faoliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda menejer xodimlar faoliyatining samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovda o'rganildi. Ilmiy asoslangan yondashuv natijasida ushbu jarayon ko'p omilli mexanizmga ega ekani aniqlandi, ya'ni menejer xodimlar faoliyati faqatgina ta'lim jarayonining tashkiliy jihatlarini nazorat qilish bilan cheklanmay, balki talabalar shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va kasbiy kompetensiyalarining shakllanishida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, menejer xodimlar faoliyati yuqori darajada yo'lga qo'yilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari 12–15% ga yuqori, ijtimoiy loyihalardagi ishtirok esa 30% dan ortiqroq natijani tashkil etmoqda.[10] Bu esa ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish uchun menejer xodimlarning faoliyati bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, o'quv yuklamalarini muvofiqlashtirish, talabalar akademik faoliyatini monitoring qilish, rag'batlantirish tizimlarini joriy etish va turli ijtimoiy tashabbuslarga

jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ta'lim muassasalari samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim menejmentiga alohida e'tibor qaratilgan davlatlarda, Finlyandiya, Germaniya va Janubiy Koreyada talabalar nafaqat akademik, balki ijtimoiy jihatdan ham yuqori faollikka ega. OECD (2024) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davlatlarda talaba-yoshlarning ijtimoiy kapitali yuqori bo'lib, bu ularning keyingi kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.[9] O'zbekiston sharoitida esa bu jarayon yangi bosqichda shakllanayotgan bo'lib, menejer xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va xalqaro ilg'or tajribalarni mahalliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Menejer xodimlarning samarali faoliyati nafaqat talabalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, huquqiy va ijtimoiy madaniyati, tashabbuskorligi va liderlik ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, menejer xodimlarning faoliyati ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlash, adolatli muhit yaratish va talaba manfaatlarini himoya qilishda ham muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar akademik va ijtimoiy faolligini rivojlantirish menejer xodimlarning samarali faoliyatisiz to'liq natija bermaydi. Shu bois ularning faoliyatini huquqiy-me'yoriy asoslar, metodik qo'llanmalar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan boyitish, xalqaro tajribalardan foydalanish, muntazam malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish va ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu orqali talabalar akademik yutuqlari, ijtimoiy faolligi va shaxsiy salohiyatini oshirish bilan birga, mamlakatimizda sifatli inson kapitalini shakllantirish ham kafolatlanadi.

XULOSA.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar akademik faoliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda menejer xodimlarning faoliyati nafaqat tashkiliy-boshqaruv jarayonlari bilan chegaralanib qolmaydi, balki u zamonaviy ta'lim tizimining barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim ijtimoiy va ma'naviy omil sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar o'quv yuklamalarini muvozanatli tashkil etish, ilmiy va ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ijtimoiy loyihalar va jamoatchilik faoliyatiga jalb etishda menejer xodimlarning tashabbuskorligi talabalarning shaxsiy rivojlanishi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, menejerlarning samarali faoliyati orqali ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy muhit, adolatli raqobat va shaffoflik tamoyillari shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, menejer xodimlarning faoliyati inson kapitalini shakllantirishning konseptual jarayonida vositachi o'rin tutadi. Ularning faoliyati talabalarni faqatgina bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z huquq va burchlarini anglaydigan, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadigan, kelajakda jamiyatning yetakchi kuchiga aylanishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashga

yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu esa, zamonaviy ta'lim falsafasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan uzviy bog'liqdir.

Konseptual jihatdan qaraganda, menejer xodimlar faoliyatini samarali tashkil etish uch yo'nalishda alohida dolzarblik kasb etadi: birinchidan, akademik jarayonni boshqarish va monitoring qilish orqali talabalarning ta'limdagi muvaffaqiyatini kafolatlash; ikkinchidan, ijtimoiy faollikni oshirish orqali yoshlarning tashabbuskorligi, fuqarolik burchi va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish; uchinchidan, ta'lim muassasasining ijtimoiy institut sifatidagi rolini mustahkamlash va uni davlat va jamiyat manfaatlariga uyg'unlashtirish. Shu jihatdan, menejer xodimlar faoliyati faqat ta'lim samaradorligini oshirish vositasi emas, balki demokratik jamiyat barpo etishda ham muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Natijaviy umumlashmalarga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida menejer xodimlar faoliyatini takomillashtirish uchun bir qator takliflar ilgari surish mumkin: birinchidan, ularning kasbiy malakasini muntazam oshirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, psixologiya va pedagogika sohalaridagi bilimlarini boyitish; ikkinchidan, xalqaro ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali boshqaruv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash; uchinchidan, menejerlarning faoliyatini baholashda faqat tashkiliy ko'rsatkichlar emas, balki talabalar ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishi bilan bog'liq natijalarni ham hisobga olish.

Xulosa qilib aytganda, menejer xodimlarning faoliyati ta'lim tizimida akademik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi, ularning har bir qarori va tashabbusi esa ta'lim sifatiga, talabalar huquqiy va fuqarolik ongiga hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu faoliyatni faqat tashkiliy mexanizm sifatida emas, balki ta'lim falsafasining ajralmas qismi va kelajak taraqqiyotining konseptual tayanchi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Мурожаатнома Олий Мажлисга. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 68 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – 56 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашриёти, 2020. – 48 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Олий таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашриёти, 2020. – 52 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашриёти, 2017. – 44 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Т.: Президент нашриёти, 2022. – 112 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. – Т.: Вазирлар Маҳкамаси, 2021. – 39 б.

8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 83 p.
9. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 476 p.
10. World Bank. Skills Development in Higher Education: Policy Review. – Washington: World Bank, 2022. – 122 p.
11. Кудрявцев В.Н. (ред.). Криминология: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2020. – 640 с.
12. Педагогика ва психология: Дарслик / Муаллифлар жамоаси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2021. – 488 б.
13. Higher Education Management and Policy Journal. – Paris: OECD, 2022. – Vol. 34, No. 2. – P. 55–89.
14. Бекмуродов М.Ю. Таълимда менежмент асослари. – Т.: Академнашр, 2020. – 236 б.
15. Жабборов Қ. Педагогик тизимда ҳуқуқий маданият ва унинг ривожланиши. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2019. – 198 б.
16. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1984. – Vol. 1. – 465 p.
17. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.

BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI**Panjiyev Ulug'bek Rustamovich**

Qarshi xalqaro universiteti rektori "Iqtisodiyot va muhandislik" kafedrasida dotsenti,

p.ulugbek@mail.ru, +998904268393

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-2385-771X>

Annotatsiya: Bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayoni zamonaviy jamiyatning texnologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Muhandislik ta'limi, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi zarur. Ushbu maqolada, muhandislik ta'limining nazariy asoslari va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar strukturasi asoslanib tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Bo'lajak muhandislar, zamonaviy jamiyat, texnologiya, metodikalar va pedagogik yondashuvlar, ta'lim jarayonining nazariy asoslari, innovatsion yondashuvlar, muhandislik ta'limida qo'llaniladigan innovatsion metodlar, moddiy obyektlarni loyihalash.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ**Панжиев Улугбек Рустамович**

Ректор Каршинского международного университета, доцент кафедры

«Экономика и инженерия»

Электронная почта: p.ulugbek@mail.ru

Телефон: +998 90 426 83 93

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-2385-771X>

Аннотация: Процесс подготовки будущих инженеров играет важную роль в удовлетворении технологических и социальных потребностей современного общества. Инженерное образование должно включать в себя не только теоретические знания, но и практические навыки. В статье анализируются теоретические основы инженерного образования и структура инновационных методов, используемых в образовательном процессе.

Ключевые слова: Будущие инженеры, современное общество, технологии, методики и педагогические подходы, теоретические основы образовательного процесса, инновационные подходы, инновационные методы, используемые в инженерном образовании, проектирование материальных объектов.

THEORETICAL BASIS FOR TRAINING FUTURE ENGINEERS**Ulugbek Panjiyev Rustamovich**

Rector, Karshi International University Associate Professor,

Department of Economics and Engineering

Email: p.ulugbek@mail.ru

Phone: +998 90 426 83 93

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-2385-771X>

Abstract: The process of training future engineers plays an important role in meeting the technological and social needs of modern society. Engineering education should include not only theoretical knowledge, but also practical skills. The article analyzes the theoretical foundations of engineering education and the structure of innovative methods used in the educational process.

Keywords: Future engineers, modern society, technologies, methods and pedagogical approaches, theoretical foundations of the educational process, innovative approaches, innovative methods used in engineering education, design of material objects.

Jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ta'lim olishlarini qo'llabquvvatlash jarayonlarida pedagogik yondashuvlardan keng miqyosda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi jadal o'zgarishlar, ta'lim tizimini takomillashtirish muammolarini bartaraf etish alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Bunda, talabalarni tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik

fanlarni integratsiyasini taminlash, hodisa va jarayonlarni innovatsion texnologiyalar orqali loyihalash, konstruksiyalash, tadqiqotchilik kabi kompetensiyalarini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ta'lim olishlarini qo'llabquvvatlash jarayonlarida pedagogik yondashuvlardan keng miqyosda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifatli ta'limga erishishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 9- noyabrdagi PQ-3939-sonli "Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, muhandislik ta'limi va muhandislik - texnologiya sohasida mutaxassislarni "muhandis" ta'rifi texnika oliy ta'lim muassasalarida tehsil olgan, diplomda nima ko'rsatilganidan qat'i nazar, moddiy ob'yektlarni loyihalash va qurish orqali amalga oshiradigan shaxs sifatida talqin etiladi: "bakalavr", "magistr", "mutaxassis", " muhandis ", "muhandislik faoliyati" tushunchalari mazmun va mohiyati esa I.I. Galimzyanova [1], A.L. Galinovskiy [2], V.D. Golikova [3], N.I. Dyatchina [5], A.I. Rakitova [6], G.V. Suxodolskiy [12], R.I. Sharafutdinova [10] va boshqalarning tadqiqot ishlarida qaralgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Muhandislik ta'limi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar kompleks metodologik yondashuvga asoslanadi. Bular:

Mavjud nazariyalar, metodikalar va pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish orqali ta'lim jarayonidagi asosiy muammolarni aniqlash. Talabalar va o'qituvchilar orasida o'tkazilgan anketalar orqali muhandislik ta'limidagi ehtiyojlar va talablarni o'rganish. Ta'lim jarayonlarini real vaqtda kuzatish orqali amaliyot va nazariyani birlashtirish usullarini aniqlash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muhandislik ta'limi va muhandislik - texnologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlashning Amerika modeli bugungi kunda dunyoda juda nufuzli va mashhurdir. Bu 12 yillik o'rta maktabdan so'ng kamida to'rt yil akkreditatsiyalangan muhandislik dasturi bilan universitetda o'qish va keyinchalik litsenziyalash, ro'yxatdan o'tish (sertifikatlash) va ma'lum bir mutaxassislikda muvaffaqiyatli ishlashdan so'ng "professional muhandis" maqomini berish bilan "bakalavr" akademik darajasini olishni o'z ichiga oladi.

Muhandislarni o'qitishning ushbu modeli ko'plab mamlakatlarda, birinchi navbatda Washington Accord va Engineers Mobility Forum (EMF) ishtirok etadigan mamlakatlarda amalga oshiriladi: AQSH, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqalar.

Professional muhandis sifatida ro'yxatga olish uchun:

- muhandislik dasturi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasasini tugatganligi;

- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lish;

- muhandislik faoliyatining amaliy tajribasiga ega bo'lish (mamlakatga bog'liq ravishda 3 yildan 7 yilgacha);

- kasbiy imtihonlarni topshirish (odatda);

- uzluksiz kasbiy takomillashib borish yo'li orqali o'z mahoratini oshirib borish;

-kasbiy etika kodeksiga rioya etish.

Muhandislik faoliyatining o'zi ilmiy bilim va amaliy tajribaga asoslangan texnik obyektlar, muhit va texnologiyalarni yaratishdan iborat bo'lib, dinamik, innovatsion va ijodiy, ijtimoiy xususiyatlarga ega.

Olimlar muhandislik faoliyati jarayonida asosiy faoliyat turlarini rejalashtirish, loyihalash, konstruksiyalash, loyiha hujjatlarini tayyorlash, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va boshqalarni ajratib ko'rsatishadi.

I.I.Galimzyanova, R.I.Sharafutdinovanning ta'riflari va xulosalariga ko'ra muhandislik faoliyatining tizimli tabiati haqida, uning o'ziga xosligi, bir tomondan, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan, ikkinchi tomondan, bu munosabatlarning shaxs tomonidan sub'yektiv aks etishi bilan belgilanadi [1].

Muhandislik faoliyati sohasidagi tadqiqotlar, uning rivojlanishi, o'zgarishi, olimlar inson hayotining barcha sohalarini raqamlashtirishni asoslaydilar [4, 9; 7;8; 11].

Hozirgi kunda muhandislik faoliyatini amalga oshirishdagi zaruriy kompetensiyalarini quyidagi ko'rinishda atroflicha bayon qilishimiz mumkin:

1. Aniq, tabiiy-ilmiy va texnikaga oid fanlardan keng va teran bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan muhandislik faoliyatida foydalana olish;

2. Tanlangan kasbi sohasiga oid dasturiy ta'minotni bilish va undan foydalana olish;

3. Fundamental va texnik bilimlarni, texnik standartlarni, kasbiy normativlarni milliy o'ziga xoslikni hisobga olgan holda konkret holatlar uchun tadbiq eta olish;

4. Qo'yilgan muhandislikka oid majmuaviy muammolarni nazariy va amaliy metodlar yordamida tahlil qila olish, tadqiq eta olishga tayyorlik; zaruriy ma'lumotlarni tanlash va baholay olish qobiliyati;

5. Zarurat bo'lganda metodologik va tadqiqotchilik tavsifidagi muammolarni yechishga tayyorlik; sog'lom fikrlash orqali murakkab shart-sharoitda, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan holda muhandislik muammosini yechimini topish;

6. Muhandislik faoliyati natijasida ijtimoiy, madaniy va ekologik javobgarlik mas'uliyatini his etish;

7. Muhandislik faoliyati natijalarini baholay olish;

8. Huquqiy talab va normalarga, xususan sog'liqni saqlash, muhandislik faoliyatida xavfsizlik talablarini bajara olish;

9. Muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

10. O'z kasbiy faoliyatida samarali og'zaki va yozma muloqotga, xususan zarurat bo'lganda xorijiy tilda muloqot qila olish;

11. Butun hayoti davomida kasbiy mukammallikka erishish uchun ta'lim olishga tayyorlik;

12. Muhandislik faoliyatida qabul qilingan yechimlarga javobgarlik hissiga tayyorlik;

13. Muhandislik faoliyatida qabul qilingan innovatsion va ijodiy yechimlarni tadbiq etishga tayyorlik, ya'ni, innovatsion va tadbirkor-faol, yetakchilik xususiyatlarini egallagan, tezkor harakatlanuvchan, moslashuvchan bo'lishi lozim.

XULOSA. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashning nazariy asoslari, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola, muhandislik ta'limining samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar va metodlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Kelajakda, bu sohada izlanishlar davom ettirilishi va amaliyot bilan nazariyani birlashtirishning yangi usullari ishlab chiqilishi lozim. Bu, nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirishga, balki muhandislik sohasining istiqbolli rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda fundamental nazariy bilimlarning yuqori texnologik ishlab chiqarishda yetarlicha amaliy tajriba bilan birlashish mavjud kadrlarga bo'lgan ehtiyojga javoblardan biri bo'ladi. Bu oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'qish davrida akademik dasturni o'rgangan bo'lsa, real ishlab chiqarish sharoitlarida ish tajribasiga ega bo'lmaydi, shu vaqtda texnikum va kollej bitiruvchilari ishlab chiqarishda ishning amaliy metodlari va usullarini o'zlashtirgan holda doimo ham yetarli nazariy tayyorgarlikga ega bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Галимзянова, И.И. Языковая компетентность будущих менеджеров: профессиональной образованье / И.И. Галимзянова // Саарбрюккен, Германия: Изд-во Ламберт Академис Рублишинг, 2011. - 165 с.

2. Галиновский, А.Л. Компетентностный портрет специалиста в новых моделях инженерного образования / А.Л. Галиновский, Ю.В. Баданина, В.А. Моисейев // Вестник РНИРУ. Серия: Проблемы языкознания и педагогики. - 2017. - № 3. - С. 139-150.

3. Голиков, В.Д. Мы инженеры! / В.Д. Голиков, И.М. Орешников // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Социально-экономические науки. - 2016. - С. 41-47. 47.

4. Dorn D. The Growth of Low Skill Service Jobs and the Polarization of the

5. Дятшин, Н.И. Современная методология истории техники / Н. И. Дятшин // Известия Алтайского государственного университета. 2011. - № 4. - С. 78-83.

6. Ракитов, А.И. Пятая попытка модернизации России: Существует ли стратегия в области образования и науки? / А.И. Ракитов // Научное исследование. Сборник научных трудов. РАН, ИНИОН. Центр научно-информационных исследований по науке, образованию и технологиям / Отв. редактор А.И. Ракитов. - Москва, 2011. - С. 4-20.

7. Chakravorti, B. How competitiveness and trust in digital economies vary across the world / B. Chakravorti, R. S. Chaturvedi // Digital planet, 2017, no 5. - URL: <https://sites.tufts.edu/digitalplanet/files/2020/03/Digital Planet 2017 FINAL.pdf> (data obrashcheniya 08.12.2020).

8. Cherinet, Y. M. Blended skills and future roles of librarians. Library Management, 2018.- 39 (1-2). - R. 93-105.

9. Ступина М.В. Формирование компетентности студентов в области использования инструментальных средств разработки информационных систем с применением облачных технологий: на примере подготовки будущих

бакалавров-разработчиков информационных систем: канд. пед. наук : 13.00.08 / - Москва, 2018. - 197 с.

10. Шарафутдинова. Р.И. Профессиональная деятельность современного инженера / Р.И. Шарафутдинова, И.И. Галимзянова // Вестник Казанского технологического университета. - 2012. - №6. - С. 255-257.

11. Юматова.Е.Г. Оптимизация геометро-графической подготовки студентов средствами информационных технологий / Е.Г. Юматова // Научно-методический электронный журнал «Концерт». - 2012. - №7 (Июль). - С. 6-10. 224.

12. <http://www.pedagog.uz/>

УО'К: 004.42:37.02

GOOGLE COLAB ONLAYN PLATFORMASI VA UNDA TA'LIM JARAYONIDA MAQSADLI FOYDALANISH

Murodov Shukrilla Abdusaid o'g'li

Qarshi xalqaro universiteti

Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasi dotsenti v.b,

e-pochta: murodovsh94@gmail.com, tel.: +998 91 633 22 33

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4278-0385>

***Annotatsiya:** maqolada Google Colaboratory (Colab) muhitining afzalliklari ilmiy tahlil qilinadi. Colab hech qanday dastlabki sozlamalarsiz ishlaydi va GPU hamda TPU protsessorlaridan bepul foydalanish imkonini beradi. Markdown va LaTeX yordamida matnlarni formatlash, formulalar, grafik va animatsiyalar kiritish mumkinligi ko'rsatilgan. Colab bloknoti dasturlashni o'rganish, ma'lumotlarni qayta ishlash, sun'iy intellekt masalalarini hal etishda samarali vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayonida u vizual materiallardan foydalanish va hamkorlikni rivojlantirish imkonini yaratadi.*

***Kalit so'zlar:** Google Colaboratory, Python, Jupyter bloknot, GPU, TPU, Markdown, LaTeX, sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish, ta'lim jarayoni.*

УДК 004.42:37.02

ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМА GOOGLE COLAB И ЦЕЛЕВОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Муродов Шукрилла Абдусайд угли

Каршинский международный университет,

кафедра Экономика и инженерия, и.о. доцента.

Эл. почта: murodovsh94@gmail.com, тел.: +998 91 633 22 33

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4278-0385>

***Аннотация:** в статье проводится научный анализ преимуществ среды Google Colaboratory (Colab). Colab работает без каких-либо предварительных настроек и предоставляет бесплатный доступ к процессорам GPU и TPU. Показаны возможности форматирования текста с помощью Markdown и LaTeX, а также вставки формул, графиков и анимаций. Блокнот Colab рассматривается как эффективный инструмент для изучения программирования, обработки данных и решения задач искусственного интеллекта. В образовательном процессе он создаёт условия для использования наглядных материалов и развития совместной работы.*

***Ключевые слова:** Google Colaboratory, Python, Jupyter Notebook, GPU, TPU, Markdown, LaTeX, искусственный интеллект, машинное обучение, образовательный процесс.*

UDC 004.42:37.02

**GOOGLE COLAB ONLINE PLATFORM AND ITS TARGETED USE IN
THE EDUCATIONAL PROCESS****Murodov Shukrilla Abdusaid oqli**Acting Associate Professor, Department of Economics and Engineering
Karshi International University.E-mail: murodovsh94@gmail.com , Tel.: +998 91 633 22 33ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4278-0385>

Abstract: *The article reviews certain possibilities and regularities in the synthesis of new ion-exchange materials based on polyacrylonitrile waste. The physicochemical regularities of the phosphorylation process of PAN fibers using Friedel–Crafts catalysts, as well as practical methods for obtaining polycomplexones based on this process, are identified. Furthermore, the study of some practical properties of fibrous ion-exchange materials showed that the developed ion exchangers possess specific properties. The practical significance of the conducted research lies in the fact that, based on the phosphorylation of the side chains of polyacrylonitrile fibers by the polycondensation method, it is possible to develop sorbents with high sorption properties.*

Keywords: *Ionite, sorbent, polycondensation, Friedel–Crafts catalysts, static exchange capacity, dynamic exchange capacity, polyacrylonitrile, selectivity, complex compound.*

Kirish. Google Colab foydalanishda juda sodda interfeysga ega bo'lib, Python kodlarini to'g'ridan-to'g'ri brauzerda yozish va bajarib ko'rish mumkin. Bunda ishlaydigan foydalanuvchiga bir qator imtiyozlar taqdim etiladi, xususan:

- hech qanday sozlamalar kiritish talab etilmaydi;
- grafik protsessorlarga ruxsat bepul amalga oshiriladi;
- boshqa foydalanuvchilarga kirish uchun ruxsat berish amaliyoti juda oson amalga oshiriladi va h.k.


Ushbu dasturiy muhit nafaqat ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar va talabalar uchun, balki ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash (Data Mining) sohasi bo'yicha mutaxassislar va sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) tadqiqotchilari uchun ham juda qo'l keladigan dasturiy vosita sanaladi.

Google Colab muhitiga kirish uchun istalgan brauzer, masalan, Google Chrome brauzerini ishga tushirib, quyidagi saytga kiramiz


<https://colab.research.google.com>

Dastur bilan ishni boshlash uchun akkauntga kirish talab qilinadi. Yuzaga kelgan ishchi oynada akkauntga kirishni ta'minlovchi "Войти" buyruq tugmasini bosamiz (1-rasm).

Elektron pochta orqali akkauntga kirganimizdan so'ng avtomatik tarzda bloknot yaratish (Создать блокнот) to'g'risidagi taklif bilan yangi oyna yuzaga keladi (2-rasm).




1-*рasm.* Google Colab muhitiga dastlabki kirish



2-*рasm.* Akkauntga kirkandan keyingi qadam – Bloknot yaratish

Ushbu 2-rasmdagi oynaning o‘ng quyi qismida joylashgan “Создать блокнот” buyruq tugmasini bosib, Google Colab dasturining “Untitled0.ipynb” sarlavhali oynasini, ya’ni haqiqiy ishchi sohasini hosil qilamiz. Dastur oynasining sarlavhasini dastlabki yozadigan dasturimizga mos nom bilan qayta nomlab olamiz, buning uchun sichqoncha ko‘rsatkichini “Untitled0.ipynb” satriga qo‘yib, Click qilamiz va uni “ProgOOP.ipynb” satriga o‘zgartiramiz (3-*рasm*).




3-*рasm.* Google Colab muhitining dastlabki ishchi oynasi

Dastur bilan ishlashni boshlashdan oldin hamkorlarimizni ushbu muhitga chorlashimiz, ya’ni hamkorlarimizga muhitga kirish uchun ruxsat berishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun mazkur 3-rasmdagi oynaning yuqori o‘ng qismida joylashgan “Поделиться” buyruq tugmasini bosamiz.

Natijada “Доступ – ProgООP.ipynb” sarlavhali muloqot oynasi yuzaga keladi (4-rasm).

Ushbu oynaning “Общий доступ” bo‘limida asosan ikkita funktsiyani amalga oshiramiz, ya’ni biz oldindan kimlarga havola (ссылка) yuborgan bo‘lsak, birinchi maydondagi ro‘yxatdan tanlash orqali “Доступ ограничен” satrini “Все, у кого есть ссылка” satriga o‘zgartiramiz. Ikkinchi maydonda uchta satr: “Читатель”, “Комментатор” va “Редактор” satrlari mavjud bo‘lib, ularning orasidan “Редактор” satrini tanlaymiz, bu orqali biz muhitga kirish ruxsat etilgan hamkorlarimizga kodni biz bilan baravar tahrirlash imkonini bergan bo‘lamiz. Hamkorlarimizga yuboriladigan havola (link, ссылка) esa “Копировать ссылку” buyruq tugmasi orqali buferga nusxalab olinadi va hamkorlarimizning bizga ma’lum bo‘lgan elektron manzili yoki telegram nomeriga yuboriladi va ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sha havolaga murojaat qilib, biz ishlayotgan dastur muhitiga tashrif buyurishlari mumkin bo‘ladi.



4-rasm. Hamkorlarni taklif qilish (kirishga ruxsat berish)

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, bulutli hisoblash tizimlari va sun‘iy intellekt vositalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ilmiy adabiyotlarda ayniqsa, onlayn hisoblash muhitlari va ulardan ta’limda foydalanishning samaradorligi keng yoritilgan. Jumladan, Jupyter Notebook asosida yaratilgan Google Colaboratory (Colab) platformasi ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda eng ko‘p qo‘llanilayotgan vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotchilar Colab’ning afzalliklarini, xususan, dastlabki sozlamalarsiz ishlashi, Python dasturlash tilini qo‘llab-quvvatlashi hamda GPU va TPU kabi yuqori unumdorlikka ega protsessorlardan bepul foydalanish imkoniyatini asosiy ustunlik sifatida qayd etishadi.

Kock, Soriano, López va Fernández (2009) o‘z tadqiqotida Collaborative Development Environments konsepsiyasini chuqur tahlil qiladi. Mualliflar hamkorlikka asoslangan rivojlantirish muhiti zamonaviy dasturiy ta’minot ishlab chiqishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv ishlab chiquvchilar o‘rtasida samarali axborot almashuvini, umumiy resurslardan foydalanishni va jamoaviy qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, mazkur

muhitlar texnik va tashkiliy jihatdan puxta yo'lga qo'yilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi qayd etiladi.

Snowdon, Churchill va Munro (2011) o'zlarining Collaborative Virtual Environments nomli tadqiqotida raqamli makon va joylarning CSCW (Computer-Supported Cooperative Work) doirasidagi imkoniyatlarini o'rganadi. Ularning fikricha, virtual hamkorlik muhiti nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy va madaniy interaktsiyalarni ham kuchaytiradi. Shu jihatdan, mazkur konsepsiya turli sohalarda, jumladan, ta'lim, biznes va ilmiy faoliyatda yangi imkoniyatlar yaratib, hamkorlikni samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida qaraladi.


Woods (2018) tomonidan olib borilgan Exploring Collaborative Learning Methods in Leadership Development Programs tadqiqotida esa hamkorlik asosidagi o'qitish usullarining rahbarlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Muallifning natijalari shuni ko'rsatadiki, kollaborativ ta'lim rahbarlik salohiyatini oshiradi, ishtirokchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va jamoaviy qaror qabul qilishda yuqori natijalarga olib keladi.

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar o'zaro bog'liq holda hamkorlik va virtual muhitlarning samarali qo'llanishini turli yo'nalishlarda ko'rsatadi. Birinchi manba texnologik infratuzilma va ishlab chiqish jarayonini, ikkinchisi esa raqamli makonlarning kommunikativ imkoniyatlarini yoritadi, uchinchi manba esa pedagogik va rahbarlik rivojlanishida kollaborativ metodlarning ahamiyatini ilmiy asoslaydi. Shu boisdan, ularning tahlili hamkorlik muhitlarining nafaqat texnik va tashkiliy, balki ta'limiy va ijtimoiy jihatlarini ham kompleks yoritib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, endi Google Colabatory muhitida ishlashni boshlaymiz. Biz ishlamoqchi bo'lgan hujjat oynasi statik veb-sahifada emas, balki kod yozish va bajarish imkonini beruvchi **Colab Notebook** deb nomlangan interfaol muhitda joylashgan.

Bloknotni go'yoki o'zaro gorizontal joylashgan ikki ustunli yacheykalar to'plamidan iborat obyekt deb tasavvur qilish mumkin. Bu yacheykalar faqat uch xil obyektini o'z ichiga oladi: kiritiluvchi matn (go'yoki izoh sifatida), kiritiluvchi kod (Python) hamda dastur protsessori tomonidan chiqariluvchi natija (son, matn, video, grafik va h.k.).

Yacheykada matn va kod yozishni qulaylashtirish maqsadida uning o'ziga xos vositalar paneli joylashtirilgan bo'lib, bu panel orqali matnni va kodni juda qulay formatlash va tahrirlash mumkin. Yacheyka mantiqan ikki ustundan iborat bo'lib, chap ustunga matn yoki kod kiritilishi chog'ida uning o'ng tomonidagi ustunda natija dinamik ravishda aks etib boradi. Matnga o'zgartirish kiritish uchun mazkur yacheyka ustiga sichqonchanning Double Click hodisasini ishlatish yetarli (5-rasm).




5-rasm. Matn yacheykasida ishlash.

Matn yacheykasida formatlash ishlari **Markdown** deb ataluvchi razmetka tilidan foydalanib amalga oshiriladi. Yuqorida aytganimizdek, yacheykani mantiqan ikkiga ajratib turuvchi shtrix chiziqdan chap tomondagi panelda Markdown sintaksisi bo'yicha formatlovchi maxsus belgilarni matn bilan birga ko'rish mumkin. O'ng tomonda esa matnning Markdown kodi sintaksisi bo'yicha qayta ishlangan versiyasi aks etadi. Quyidagi jadvalda Markdown kodi va uning qayta ishlangan versiyasiga doir qisqacha namunalar berilgan:

Markdown formatida	Tabiiy ko'rinishi
Quyuq rangli matn	Quyuq rangli matn
<i>*Kursiv matn*</i>	<i>Kursiv matn</i>
~~Usti chizilgan matn~~	<u>Usti chizilgan matn</u>
[Havola](https://www.google.com)	<u>Havola</u>

Yuqorida tavsifi keltirilgan vositalar paneli (Toolbar) ham aynan Markdown kodlarini tahrirlashga oid bo'lib, kod yacheykasi bundan mustasno sanaladi.

Kod yacheykasiga Python dasturlash tilidagi kod kiritilgach, uning chap tarafida joylashgan "Play" yoki "Run" ma'nolarini bildiruvchi maxsus  belgisini bosib kodni bajartirib ko'rish mumkin. Dastur bajarilishini klaviatura orqali [Ctrl] + [Enter] klavishlar birikmasi orqali ham amalga oshirish mumkin. Agar kod kiritilgandan so'ng uni bajartirgan holda tezda keyingi yacheykaga o'tish kerak bo'lsa, [Alt] + [Enter] yoki [Shift] + [Enter] kabi klavishlar kombinatsiyasidan foydalanish mumkin. Yacheykada kod bajarilishiga oid jarayonlar, shuningdek, bir yacheykada ishlatilgan o'zgaruvchidan boshqa yacheykalarda ham foydalanish mumkinligi quyida ko'rsatilgan (6-rasm).



6-rasm. Bir yacheykadagi o'zgaruvchidan boshqa yacheykada foydalanish

Google Colab bloknoti aslida Jupyter bloknoti bo'lib, u Google Colab muhitiga bir servis sifatida joylashtirilgan. Mazkur bloknotning afzal tomoni shundaki, uning imkoniyatidan foydalanib, bir hujjat tarkibida bir vaqtning o'zida exe-kod, matn, rasm, animatsiya, HTML ssenariy tili va Latex elementlari bilan ishlash mumkin. Bloknot hujjatidagi materiallar bizning akkauntimizga tegishli Google Disk tarkibida saqlanadi va istalgan vaqtda biz o'z hamkorlarimizga, do'stlarimizga bu materiallarni ko'rish, izoh qoldirish va tahrirlash uchun ruxsat bera olamiz.

Biz matn yacheykasiga istalgan matematik formulalarni kiritishimiz ham mumkin, buning uchun Latex operatorlaridan foydalanamiz, bunda oddiy matndan farqli o'laroq operatorlar ikkita \$ belgi orasiga olib yoziladi va formulaning o'zi MathJax yordamida vizuallashtirib ko'rsatiladi.


Latex operatorlarini chaqirish uchun matn yacheykasining vositalar panelidagi ψ belgisiga murojaat qilinadi. Mazkur belgi ustiga bosilgach, ba'zi Latex operatorlari xotiraga avtomatik chaqiriladi va kiritilgan birinchi harfga qarab, ularni tag-eslatmalar (подсказка) asosida yozish imkoni ham tug'iladi. Masalan, matn yacheykasini hosil qilib, unga quyidagi Latex operatorlarini kiritamiz:

`\begin{align}`

`\mathbf{a} \cdot \mathbf{b} = \sum_{i=1}^n a_i b_i.`


`\end{align}`

Ushbu satrlarning natijasi esa matematik formula ko'rinishida o'ng panelda vizual aks ettiriladi (7-rasm):




7-rasm. Matn yacheykasiga formula kiritish.

Matn yacheykasiga rasm joylashtirish imkoniyati pedagoglar uchun izoh matnlarini ifodalashda juda katta yordamchi vosita sanaladi.

Matn yacheykasiga rasm joylashtirish uchun vositalar panelidagi  belgi ustiga bosiladi (Click qilinadi). Ochilgan muloqot oynasidan kerakli rasm tanlanib, "Открыть" buyruq tugmasi bosiladi (bunda rasm kompyuter mahalliy diskidan olinadi). Natijada, matn yacheykasining chap panelida biz tanlagan rasm(lar)ning Markdown kodi, o'ng panelida esa rasmning o'zi paydo bo'ladi. Yacheyka yopilgach (ya'ni nafaol holatga keltirilgach), Markdown kodi Hidden (yashirin) holatiga o'tadi (ko'rinmay qoladi), rasmning o'zi esa vizual holatda qoladi (8-rasm).

Colab bloknotida statik rasmlardan tashqari animatsion obyektlarni ham joylashtirish mumkin, lekin bu ishni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirib bo'lmaydi. Animatsiya obyektini qo'yish uchun Python kodidan foydalanamiz.



8-rasm. Matn yacheykasiga rasm joylashtirish.

Masalan, kod yacheykasini hosil qilib, unga quyidagicha kod kiritamiz (tayyor kod matnini buferga nusxalab olib, yacheykaga qo'yishimiz ham mumkin):

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
```

```
from matplotlib import animation, rc
from IPython.display import HTML
```

```
fig, ax = plt.subplots()
plt.close()
```

```
ax.set_xlim((0, 2))
ax.set_ylim((-2, 2))
```

```
line, = ax.plot([], [], lw=2)
```

initialization function: plot the background of each frame

```
def init():
    line.set_data([], [])
    return (line,)
```

animation function. This is called sequentially


```
def animate(i):
    x = np.linspace(0, 2, 1000)
    y = np.sin(2 * np.pi * (x - 0.01 * i))
    line.set_data(x, y)
    return (line,)
```

```
anim = animation.FuncAnimation(fig, animate, init_func=init,
```

frames=100, interval=100, blit=True)

*# Note: below is the part which makes it work on Colab
rc('animation', html='jshtml')
anim*

Tahlil va natijalar. Ushbu kiritilgan kod nisbiy koordinatalar sistemasi bo'yicha tanlab olingan $0 \leq x \leq 2$ va $-2 \leq y \leq 2$ oraliqlarda $y = \sin(2\pi(x - 0,01i))$ funksiya grafigining animatsion effektini qo'lda boshqarish orqali turli tezliklar bilan namoyish etishni ta'minlab beradi (9-rasm).



9-rasm. Animatsiya effektini namoyish etish.

Google Colab sodda dasturlardan tortib ma'lumotlarning intellektual tahlili hamda mashinaviy o'qitishga oid eng murakkab dasturlarni ham juda tez bajara oladi, bunga sabab uning GPU (Graphics Processing Unit) va TPU (Tensor Processing Unit) protsessorlar bilan ishlash qobiliyatiga egaligidir. Mazkur grafik protsessorlar orqali CPU protsessori soatlab ma'lumotlar ustida bajaradigan amallarni bir necha daqiqa yoki sekundlar davomida bajarish mumkin. Chunki GPU grafik protsessori yordamida 3D-modellashtirish, tasvir va video-ma'lumotlarni parallel qayta ishlash amallarini juda tez va qulay bajarish mumkin bo'lsa, TPU tenzor protsessor sifatida neyrotarmoq masalalarini qayta ishlashda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Google Colaboratory bizga ushbu protsessorlardan 12 soat davomida bepul va uzluksiz foydalanish imkoniyatini beradi. Bu vaqt tugashi bilan Colab barcha ma'lumotlarni o'chirib tashlaydi va ishni qaytadan boshlashga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Google Colab ushbu protsessorlarni ortiqcha yuklanishlardan himoya qilish uchun taxminan 30 daqiqa harakatsizlikdan keyin ularni avtomatik uzib qo'yadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, Google Colab yordamida turli tipdagi mashg'ulotlarni (ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim va h.k.) olib borish

uchun yetarli shart-sharoitlar mavjud. Talabalarga maxsus havolalar orqali yetarlicha metodik va didaktik adabiyotlarni tavsiya qilish mumkin.

Dasturlashni puxta o'rganishlari uchun talabalar kengroq tasavvurga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Bunday sharoitda Colab muhiti vositasida istalgan mavzu bo'yicha materiallarni vizual taqdim etish hamda dars samarali bo'lishi uchun turli tipdagi hujjatlar bilan onlayn ishlash imkoniyati pedagog-o'qituvchilar uchun erkin metodik uslubni yaratishga va qo'llashga kuchli zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арипов М.М., Отахонов Н.А. Дастурлаш асослари. – Т.: “Тафаккур бўстони”, 2015. – 240 б.
2. Гороховская Н.А. Применение коллаборативного обучения в непрерывном образовании программистов / Н.А.Гороховская, Л.Н.Рулиене // Социокультурное пространство России и зарубежья: общество, образование, язык, 2019. – №8. – С. 22-30.
3. Дежина И.Г., Ключарев, Г.А. Международные коллаборации вузовской науки: стимулы и препятствия // Социологические исследования. – №6, 2021. С. 34-45.
4. Auer, Michael & Guralnick, David & Simonics, Istvan. (2018). Teaching and Learning in a Digital World. Proceedings of the 20th International Conference on Interactive Collaborative Learning – V.2: 10.1007/978-3-319-73204-6.
5. Booch, Grady & Brown, Alan. (2003). Collaborative Development Environments. Advances in Computers. 59. 1-27.
6. Chen, Weiya. (2015). Collaboration in Multi-user Immersive Virtual Environment.

UO'K: 338.43:636(575.2)

**CHORVACHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH
MUAMMOLARI****Xusainov Oybek Djabbarovich**

Iqtisodiyot va muhandislik kafedrası

dotsenti, i.f.f.d (PhD)

kiu.khusainovoybek@gmail.com , ORCID: 0009-0002-3672-1179

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini chegaralayotgan asosiy omillar — ozuqa bazasi yetishmovchiligi, yaylovlar degradatsiyasi, kasalliklar xavfi, mayda ishlab chiqaruvchilarning parokandaligi, moliyalashtirish va infratuzilma cheklolari — qiymat zanjiri prizmasida tahlil qilinadi. Muammolarning xarajat darajasi, ishlab chiqarish unumdorligi va bozorga chiqish orqali foydaga ta'sir mexanizmlari aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun kooperatsiya, em-kombinatlar, veterinariya-bioxavfsizlik, seleksiya va raqamli xizmat yechimlari taklif etiladi. Metodologiyada qiymat zanjiri tahlili, moliyalash, omillarning samaradorlik bahosi va foyda ko'rsatgichlari qo'llanadi, namuna-senariylar orqali investitsion paketlar uchun sof joriy qiymat va ichki daromadlilik darajalari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: chorvachilik iqtisodiyoti, ozuqa xarajatlari, ozuqa konversiyasi koeffitsiyenti, kooperatsiya, sovuq zanjir, bioxavfsizlik, seleksiya, xarajat va foyda, omillarning samaradorlik bahosi, qiymat zanjiri

УДК: 338.43:636(575.2)

**ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ
В ЖИВОТНОВОДСТВЕ****Хусайнов Ойбек Джаббарович**

Каршинский международный университет,

кафедра Экономика и инженерия,

доцент, PhD (и.ф.н.)

kiu.khusainovoybek@gmail.com , ORCID: 0009-0002-3672-1179

Аннотация: В статье анализируются основные факторы, ограничивающие экономическую эффективность сектора животноводства в Узбекистане — нехватка кормовой базы, деградация пастбищ, риск заболеваний, разобщённость мелких производителей, а также ограничения в финансировании и инфраструктуре — через призму цепочки добавленной стоимости. Определяются механизмы воздействия этих проблем на прибыльность через уровень затрат, производительность и доступ к рынку, и предлагаются решения в виде кооперации, комбикормовых заводов, ветеринарно-биобезопасных мероприятий, селекции и цифровые решения для агроконсультационного обслуживания. В методологии используются анализ цепочки добавленной стоимости, финансирование, оценка эффективности факторов и показатели прибыли. Через модельные сценарии разрабатываются показатели чистой приведённой стоимости и внутренней нормы доходности для инвестиционных пакетов.

Ключевые слова: экономика животноводства, затраты на корма, коэффициент конверсии кормов, кооперация, холодовая цепь, биобезопасность, селекция, затраты и прибыль, оценка эффективности факторов, цепочка добавленной стоимости

UDC338.43:636(575.2)

**CHALLENGES TO IMPROVING ECONOMIC EFFICIENCY IN
LIVESTOCK****Xusainov Oybek Djabbarovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in Economics

Karshi International University,

Department of Economics and Engineering,
dotsent

kiu.khusainovoybek@gmail.com , ORCID: 0009-0002-3672-1179

Abstract: *This paper examines key constraints to economic efficiency in Uzbekistan's livestock sector—feed scarcity and price volatility, pasture degradation, animal health risks, smallholder fragmentation, and finance/logistics gaps—through a value chain lens. We link constraints to profit via cost, productivity and market access channels, and propose solutions: feed mills and premixes, pasture rotation and water points, animal health and traceability, breeding/AI services, cooperatives and cold chain, and digital extension. Methods combine value-chain analysis, partial budgeting, SFA/DEA efficiency measurement, and CBA with scenario-based NPV/IRR.*

Keywords: *livestock economics, feed costs, FCR, cooperatives, cold chain, biosecurity, breeding, CBA, SFA/DEA, value chain*

Kirish. Chorvachilik O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik va eksport salohiyatining asosiy manbalaridan biridir. Bu sohada samaradorlikni belgilovchi uch muhim omil — ozuqa narxi va sifati, biologik (tabiiy) va texnologik unumdorlik, infratuzilma va standartlar o'zaro maqsadga muvofiq holatga kelmaguncha rentabellik barqaror o'sishi qiyin. Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizning maqsadi – mavjud muammolarni iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'lab, amaliy-nazariy va biznes nuqtai-nazardan yechimlarni asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'limi (FAO): ozuqa bazasi va resurs samaradorligi chorvachilik rentabelligida asosiy omillar ekanini ko'rsatadi; Jahon hayvonlar salomatligi tashkiloti (WOAH): bioxavfsizlik va kasalliklarni nazorat qilish, eksport qiymati va ichki samaradorlikka bevosita ta'sir qilishini asoslaydi; Jahon banki hisobotlari: kooperatsiya, iqtisodiy aloqalar va qayta ishlash infratuzilmasi kichik ishlab chiqaruvchilarni qiymat zanjiriga integratsiyalashda hal qiluvchi ahamiyatga egaligini izohlaydi; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi: seleksiya, sun'iy urug'lantirish, fermalarda ozuqa va ko'payish davriyligi barcha omillarning samarasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillar samaradorligi ko'p hollarda alohidalashtirilib o'rganiladi va ijobiy ta'sir choralari ishlab chiqiladi. Biz ushbu maqolada ularning integratsiyalashgan holatini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Chorvachilikda qiymat zanjirining shakllanishi tahlili: "ozuqa → ferma → qayta ishlash → logistika → bozor/eksport → standartlar/mahsulotning hayot yo'li".

Qisman byudjetlash: $\Delta\text{Foyda} = (\text{Qo'shimcha daromad} + \text{Tejalgan xarajat}) - (\text{Qo'shimcha xarajat} + \text{Yo'qotilgan daromad})$.

Samaradorlik o'lchovi: Kobb-Douglasning ishlab chiqarish funksiyasiga ko'ra:

$$\ln Y = \beta_0 + \beta_1 \ln(\text{ozuqa}) + \beta_2 \ln(\text{mehnat}) + \beta_3 \ln(\text{kapital}) + v - u$$

Bunda:

1. $\ln Y$ — ishlab chiqarish hajmining natural logarifmi (masalan, mahsulot miqdori yoki chorvachilikda sut/go'sht ishlab chiqarish).

2. β_0 — konstanta (texnologiya darajasini yoki umumiy samaradorlikni bildiradi).

3. $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ — mos ravishda ozuqa, mehnat va kapital bo'yicha elastiklik koeffitsientlari: ozuqa (mehnat, kapital) 1% oshsa, ishlab chiqarish necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Agar $\beta_1 + \beta_2 + \beta_3 = 1$ bo'lsa, bu doimiy skala qaytimi (CRS (ishlab chiqarish funksiyasida barcha omillar bir xil nisbatda oshirilganda, ishlab chiqarish hajmi xuddi shu nisbatda oshsa, bu CRS deyiladi))ni bildiradi.

4. v — tasodifiy xatolik (iqlim, bozor sharoiti, favqulotdagi vaziyatlar kabi omillar ta'siri. U har ikki tomonga (\pm) ketishi mumkin).

5. u — samaradorliksizlik ko'rsatkichi (har doim ≥ 0). Bu fermer yoki korxonaga qanchalik chegaraviy (eng yaxshi) darajadan past ishlab chiqarayotganini bildiradi.

○ Agar $u=0$ bo'lsa \rightarrow xo'jalik to'liq samarali ishlayapti.

○ Agar $u>0$ bo'lsa \rightarrow samaradorlikka yetmagan (texnologiya yoki boshqaruv zaif).

Xarajat va foyda tahlili: bunda biz kelajakdagi pul oqimlarini bugungi qiymatga diskontlab, boshlang'ich investitsiya xarajati bilan solishtiramiz. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanamiz:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CF_t}{(1-r)^t}$$
, IRR, Payback; sezgirlik (yem narxi $\pm 20\%$, sut narxi $\pm 15\%$, FCR $\pm 10\%$). Bunda:

➤ NPV (joriy sof qiymat);

➤ CF_t — joriy davrdagi sof pul oqimi (daromad – xarajat);

➤ r — diskont stavkasi (kapital qiymati);

➤ T — loyihaning davomiyligi.

Barcha kelajak daromad va xarajatlar bugungi qiymatga keltiriladi.

• agar $NPV > 0$ bo'lsa \rightarrow loyiha foydali, qabul qilish mumkin.

• agar $NPV < 0$ bo'lsa \rightarrow loyiha iqtisodiy jihatdan samarasiz.

IRR (ichki daromad darajasi). Bunda $NPV=0$ bo'ladigan diskont stavkasi ya'ni, loyiha daromadlilikining ichki stavkasi. Agar $IRR > r$ (talab etilgan rentabellik) bo'lsa \rightarrow loyiha qabul qilinadi.

Payback (qaytarilish muddati). Investitsiyaga sarflangan mablag' qancha vaqtda o'zini qoplaydi? Ikki xil holatda ko'riladi: oddiy qaytim: diskontni hisobga olinmaydi va diskontlangan qaytim: pul oqimlari diskontlanadi. Masalan: loyiha 5 yilda o'zini qoplasa, lekin talab 7 yil bo'lsa \rightarrow loyiha yaxshi.

4. Sezgirlik tahlili. Bu tahlil loyiha natijalari qanday omillarga sezgir ekanini ko'rsatadi. Bizda:

✚ yem narxi ($\pm 20\%$): yemning qimmatlashishi xarajatni oshiradi \rightarrow sof qiymat pasayadi, qaytim muddati uzayadi. Aksincha arzonlashsa — natija yaxshilanadi.

✚ sut (yoki go'sht) narxi ($\pm 15\%$): asosiy daromad manbai. Narx ko'tarilsa \rightarrow foyda ko'payadi, ichki daromad va sof qiymat oshadi. Narx tushsa — zarar xavfi ortadi.

- ✦ ozuqaning samaradorligi ($\pm 10\%$): yemni sut(go'sht)ga aylanish samaradorligi. Agar samaradorlik yomonlashsa (ko'proq ozuqa kerak bo'lsa) \rightarrow xarajat ortadi, aksincha yaxshilansa \rightarrow samaradorlik oshadi.

Bu tahlillar yordamida loyihaning qaysi omillarga eng ko'p bog'liqligi aniqlanadi. Masalan, agar sut narxidagi o'zgarish natijani juda keskin o'zgartirsa, loyiha bozor xavfiga sezgir ekanini ko'rsatadi.

Demak: NPV \rightarrow foydalilikni bugungi qiymatda ko'rsatadi; IRR \rightarrow ichki rentabellik stavkasi; Payback \rightarrow qaytarilish muddati; Sezgirlik tahlili \rightarrow yem narxi, sut narxi va ozuqaning samaradorligi kabi omillar o'zgarishi natijalarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

KPI: ozuqa samaradorligi (1 kg quruq modda / 1 sut yoki go'sht), buzoqlashuv oraliqlari (kun), yo'qotishlar (%), standartga mos ulush (%), sovuq zanjir qamrovi (transportirovka xarajatlari) (%).

Nazariy asoslar

Avvalo zararsiz (break-even) narxni aniqlash muhim. Zararsiz narxni quyidagicha aniqlaymiz: $P^* = \frac{F}{Q} + AVC$

Bunda: F – o'zgarmas xarajatlar;
Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
AVC – o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar.

O'zgaruvchan xarajatlarning kamayishi (AVC \downarrow) va ishlab chiqarish hajmidagi (Q) oshish (sut, go'sht, buzoq) foydani ko'paytiradi. 1 birlik mahsulot olish uchun sarflangan ozuqa miqdori (FCR — resurs samaradorligining asosi) samaradorlikning yadrosi hisoblanadi. Ratsionni optimallashtirish va genetik seleksiya ozuqa sarfini kamaytirib \rightarrow ko'proq mahsulot yaratadi.

Empirik qarash va tahlil

Biz quyida keltirilgan 1-jadvalda chorvachilikda “muammo \rightarrow ta'sir mexanizmi \rightarrow iqtisodiy ta'siri \rightarrow intervensiya (saqlanish) \rightarrow KPI” tizimining o'zaro ta'sir kompleksini ifodaladik.

1-jadval

Chorvachilikda muammo \rightarrow ta'sir mexanizmi \rightarrow iqtisodiy ta'siri \rightarrow intervensiya (saqlanish) \rightarrow KPI (yutuq) tizimi

Muammo	Ta'sir mexanizmi	Iqtisodiy ta'sir	Intervensiya – saqlanish imkoniyati	KPI - yutuq
Ozuqalarning qimmatlashuvi / nomutanosiblik	AVC \uparrow , FCR holati salbiylashadi	Rentabellik pasayadi	Ozuqa zahiralash, premiks; silaj/haylaj; ozuqani tarkiban o'zgartirish (arzoniga)	FCR \downarrow , ozuqa kg narxi arzon tushadi
Yaylovlar degradatsiyasi	Jonivorlar sog'ligi va vazni \downarrow	Hosildorlik pasayadi	Rotatsion boqishga o'tish; suv nuqtalarini ko'paytirish	Tirik vazn \uparrow , yo'qotishlark amayadi

Veterinar xavflar (kasallik va b.)	Yo'qotishlar↑ eksport cheklanadi	Daromad va ishonch pasayadi	Vaksinalash, bioxavfsizlik choralar, qat'iy nazorat va kuzatuv	Kasallikdan zararlanish↓, eksport ulushi↑
Mayda ishlab chiqaruvchilar parokandaligi	Fermalar hajman kichik, sifat turlicha	Narx ta'sir kuchi past, xarajatlar yuqori	Kooperatsiya va transportirovka (sovuq zanjir punktlari) xizmatlarini tashkil etish	Standartga mos ulush↑, logistik yo'qotishlar↓
Moliyalashtirish va infratuzilmaning rivojlanmaganligi	Investitsiyalash yo'q yoki juda sekin	Omillar samaradorligida o'sish sekin	Davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, kredit liniyalari, qayta ishlash hublarini rivojlantirish	Daromadlilik ortib boradi, xarajatlar qaytими tezlashadi

1-jadvalda keltirilgan tizimning haqiqiy holatda amaliy (modellashtirilib) qo'llanilishining natijaviy ko'rsatkichlari quyida 2-jadval ko'rinishida keltirildi.

2-jadval

Xarajat va foyda tahlili (namuna-senariy)

(100 bosh sigirlari bor o'rtacha sut fermasi misolida modellashtirilgan)

Investitsiya to'plami	Asosiy xarajatlar (joriy yil)	Yillik ta'sir (1-7-yillar)	Ko'rsatkichlar
Ozuqa rasion + premiks + silaj texnologiyasi	Kapital xarajatlar + ishga tushirish	FCR↓; 1 kunlik sut hajmi↑; ozuqa birligi tannarxi↓	NPV>0, IRR>r; xarajatlar qaytими ≈ 2-3 yil
Sun'iy urug'lantirish + vet-bioxavfsizlik	Naslchilik xizmati; vakcina	Buzoqlash davri↓; jonivorlar o'limi↓	Qo'shimcha sut/buzoq/go'sht; risklar pasayadi
Transportirovka (sovuq zanjir) + kooperatsiya	Sut qabul punkti; izotermik transport	Sifat bo'yicha narx↑; yo'qotishlar↓	Daromad↑, narxlar barqarorlashadi

2-jadval sonlari ko'rsatkichlar formatida berildi; amaliy loyiha uchun mahalliy narxlar va diskont stavkasi asosida to'ldiriladi. Ta'sirchanlikni ozuqa narxi va sut/go'sht/buzoq narxi o'zgarishlariga IRR/NPVning barqarorligi tekshiriladi. Bunga qo'shimcha tarzda quyidagicha zanjirli izoh berish maqsadga muvofiq, ya'ni:

Ozuqa → Ferma (FCR, sun'iy urug'lantirish, bioxavfsizlik) → Qayta ishlash (sifat/laboratoriya) → Saqlash va transportirovka (sovuq zanjir) → Bozor yoki eksport. Har bo'g'inni KPI (yutuqlar) bilan bog'lash mumkin: FCR, litr/sut/kun, mikrobiologik ko'rsatkichlar, sifat ustunligi, standartga mos ulushning yuqori darajasi kabilar ta'minlanadi.

Natijalar tahlili

Xarajat bo'yicha: Ozuqa va rasionni optimallashtirish o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarni pasaytiradi; FCR yaxshilanishi bir vaqtning o'zida xarajatni kamaytiradi va mahsulot hajmi oshiradi — ikki tomonlama foydali natijaga erishiladi.

Unumdorlik bo'yicha: Sun'iy urug'lantirish va bioxavfsizlik buzoqlanish davrini qisqartiradi, yo'qotishlarni kamaytiradi; ichki va tashqi omillarning qisqa va uzoq muddatli samaradorligi ozuqa sifati × chorva sog'ligi omillariga multiplikatsion ijobiy ta'siri davomli ahamiyat kasb etadi.

Bozor yoki eksport kanali bo'yicha: Transportirovka va saqlash (sovuq zanjiri) hamda yuqori sifat katta bozorlarga kirish imkonini beradi; logistika yo'qotishlarining kamayishi sof tushumni oshiradi.

Institutsional natijaviylik bo'yicha: kooperatsiya — ko'lam iqtisodiyoti samarasini namoyon qiladi; standartlashuv – yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi; davlat va xususiy sektor integratsiyasi hamda kredit liniyalarining ochilishi — moliyalashtirish to'siqlarini yengillashtiradi; monitoring va KPI yutuqlari soha samaradorligini oshkora qiladi – investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Xulosa

Joriy yil (0–12 oy) natijalari: sutni qabul qiluvchi va transportirovka (sovuq zanjir punkti) tizimiga asos solinadi; risklarni kamaytirishga asoslangan vaksinalash; kombinatsiyalangan ozuqa ratsionlari.

O'rta muddat (12–24 oy): kooperativlarni imtiyoz va kredit bilan rag'batlantirish; sun'iy urug'lantirish qamrovining kengayishi; yaylovlardan rotatsion foydalanish tartibining joriy etilishi va suv inshootlari xaritalari.

Uzoq muddatli (24–36 oy): mahsulotga nisbatan ishonchning ortishi, sifat-kafolati hujjatlariga ega bo'lish; yangi loyihalarning paydo bo'lishi (masalan, biogaz/kompost loyihalari); yangi turli klasterlar: ozuqa–ferma–qayta ishlash–bozor integratsiyasi.

Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlik uchta kanal orqali oshiriladi: 1) xarajatlarni pasaytirish; 2) biologik/texnologik unumdorlikni oshirish (FCR, sun'iy urug'lantirish, bioxavfsizlik); 3) bozor va sifat ishonchiga kirish. Muhimi, bu choralar paket tarzida va zanjir bo'ylab sinxron qo'llanganda barqaror va yuqori foyda beradi. Taklif etilgan metodik yondashuv chorvachilikda yetarli samara bilan faoliyat ko'rsata olmayotgan mavjud fermalar va yangi bizneslar uchun amaliy loyihalashda qo'llanilishi qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO (2018-2022). Livestock and the Environment; Feed Outlooks; Dairy Sector Analyses.
2. WOA (2018-2024). Terrestrial Animal Health Code; PCP-FMD Guidelines.

3. World Bank (2020-2024). Livestock Value Chain & Agribusiness Competitiveness reports.
4. OECD (2020). Productivity and Efficiency Measurement in Agriculture.
5. Coelli, T., Rao, D., O'Donnell, C., Battese, G. (2005). *An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis*.
6. Makkar, H.P.S. (2016). *Feed Efficiency in Ruminants*. FAO.
7. North, D. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*.

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
Qarshi xalqaro universiteti Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasida katta o'qituvchisi
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda jismoniy shaxslar tomonidan yer solig'ini hisoblash va to'lash sohasida mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada yer solig'ining mahalliy byudjetdagi ahamiyati, soliqqa tortish tizimining hozirgi holati, raqamlashtirish va soliq ma'muriyatchiligidagi yangiliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yer solig'i sohasidagi asosiy kamchiliklar — yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi, huquqiy maqomning noaniqligi, soliq qarzdorliklari va soliq madaniyatining pastligi aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun takliflar berilgan. Shuningdek, yer solig'i tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy va normativ tavsiyalar keltiriladi, bu esa mahalliy byudjet daromadlarini oshirish va yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yer solig'i, jismoniy shaxslar, soliqqa tortish tizimi, mahalliy byudjet, soliq ma'muriyatchiligi, soliq siyosati, soliq stavkalari, yer resurslari, soliq undirish mexanizmi, soliq bazasi.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО НАЛОГА С ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Рамазонов Шамил Улугбек угли

Самостоятельный исследователь Ташкентского государственного экономического университета. Старший преподаватель кафедры Экономика и инженерия Каршинского международного университета
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Тел: +998914899592
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Аннотация: В данной статье анализируются существующие проблемы в сфере исчисления и уплаты земельного налога физическими лицами в Узбекистане. В статье рассматривается значение земельного налога в местном бюджете, современное состояние системы налогообложения, цифровизация и инновации в налоговом администрировании. Также выявлены основные недостатки в сфере земельного налога – отсутствие единой базы данных, неопределенность правового статуса, налоговая задолженность и низкая налоговая культура, а также даны предложения по их устранению. Также даны практические и нормативные рекомендации по развитию системы земельного налога, которые будут служить увеличению доходов местных бюджетов и стимулированию эффективного использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: Земельный налог, физические лица, система налогообложения, местный бюджет, налоговое администрирование, налоговая политика, налоговые ставки, земельные ресурсы, механизм взимания налога, налоговая база.

UDC 51.7; 519.2/6

**WAYS TO IMPROVE THE ADMINISTRATION OF LAND TAX ON
INDIVIDUALS****Shamil Ulugbek ogli Ramazonov**Independent Researcher, Tashkent State University of Economics. Senior Lecturer,
Department of Economics and Engineering, Qarshi International University.e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com , Тел: +998914899592ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Abstract: *This article analyzes the existing problems in the field of calculation and payment of land tax by individuals in Uzbekistan. The article considers the importance of land tax in the local budget, the current state of the taxation system, digitalization and innovations in tax administration. The main shortcomings in the field of land tax are also identified - the lack of a single database, uncertainty of legal status, tax arrears and low tax culture, and proposals are given for their elimination. Practical and regulatory recommendations for the development of the land tax system are also given, which will serve to increase the revenues of local budgets and stimulate the efficient use of land resources.*

Keywords: *Land tax, individuals, taxation system, local budget, tax administration, tax policy, tax rates, land resources, tax collection mechanism, tax base.*

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida O'zbekistonda soliqqa tortish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangi soliq kodeksining qabul qilinishi, davlat soliq xizmati organlarining raqamlashtirilishi va "Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti" kabi innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi mamlakatdagi soliq tizimini yanada samarali va shaffof qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, ayniqsa yer solig'i sohasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud:

1. Yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi va yer uchastkalari hisobining to'liqligi masalasi. Yer uchastkalari haqida aniq va to'liq ma'lumotlar bazasining yo'qligi, ularga egalik qilish huquqi va foydalanish holatini real vaqt rejimida aks ettirish imkonining cheklanganligi soliq bazasini shakllantirishda katta to'siq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, yer solig'i bazasining to'g'ri shakllanmasligi va soliqlarni yig'ishda kamchiliklarga olib keladi. Yagona va tizimli kadastr tizimini yaratish orqali yer solig'i bazasining aniqligi oshirilishi zarur.

2. Huquqiy maqom va ma'lumotlar yangilanishidagi kamchiliklar. Ayrim hududlarda yer maydonlariga nisbatan soliq to'lovchilarning huquqiy maqomi aniq emasligi, yer kadastr ma'lumotlarining muntazam yangilanmasligi soliq yig'implarining past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi hamda soliq siyosatining samaradorligini pasaytiradi.

3. Soliq qarzdorliklari va undirish mexanizmlarining samaradorligi. Yer solig'i bo'yicha soliq qarzdorliklari darajasi yuqori bo'lib, undirish mexanizmlari yetarli darajada samarali emas. Bu moliyaviy intizomning pasayishi, nazorat tizimidagi zaiflik va qonuniy choralarni qo'llashdagi sustkashlikka olib kelmoqda. Undirish tizimini kuchaytirish, samarali monitoring va jazolar tizimini takomillashtirish lozim.

4. Soliq madaniyati va axborot yetishmasligi. Aholi va tadbirkorlar orasida soliq madaniyatining pastligi, soliq majburiyatlari haqida yetarlicha ma'lumot berilmasligi

natijasida soliq to'lovlarining kechiktirilishi holatlari ko'p uchraydi. Soliq siyosatini ommaviy targ'ib qilish, axborot kampaniyalarini kuchaytirish va soliq to'lovchilarga qulay xizmatlar ko'rsatish orqali bu muammo bartaraf etilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yer solig'i tizimida jismoniy shaxslarning o'rni alohida ahamiyatga ega, chunki ular ko'plab mamlakatlarda yer solig'i to'lovchilarining katta qismini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovlari orqali mahalliy byudjetlarga daromad kiritishda ishtirok etadi, shuningdek, yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi.

Nobel mukofoti laureati Stiglitzning soliq siyosati bo'yicha ishlari yer solig'ining iqtisodiy samaradorligi va adolatligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. U soliq yukining teng taqsimlanishi, ayniqsa, jismoniy shaxslar o'rtasida soliq to'lash imkoniyatiga qarab farqlanishi haqida so'z yuritadi. Yer solig'i jismoniy shaxslar uchun mol-mulkka egalik qilish darajasiga qarab aniq va adolatli bo'lishi zarur. Soliq tizimining progressivligi kam daromadli oilalarni himoya qilishi va yuqori daromadli egalardan ko'proq soliq olinishi kerak.

Stiglitzning fikricha, yer solig'i iqtisodiyotda investitsiyalarni rag'batlantirishi va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashi zarur. Shu bilan birga, soliq tizimi murakkab bo'lmasligi va byurokratik xarajatlarni oshirmasligi lozim.

Dye va England tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar jismoniy shaxslar uchun yer solig'ining uy-joy narxlariga va yashash joyining tanloviga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Ularning fikricha, soliq stavkalari va yerga soliq solish tizimi uy-joy bozorining dinamikasini belgilaydi, chunki yuqori yer solig'i uy-joy xarid qilishga to'siq bo'lishi mumkin. Yer solig'ining yuqoriligi va murakkabligi jismoniy shaxslarning ko'chib o'tish qarorlariga ta'sir qiladi, bu esa ayrim hududlarda aholi zichligini kamaytirishi yoki oshirishi mumkin.

William Fischelning tadqiqotlari yer solig'ining xususiy mulk sifatida ko'rilishiga asoslangan. Unga ko'ra, yer solig'i to'lovlari jismoniy shaxslarning o'z mulklariga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Agar soliq juda yuqori bo'lsa, u investitsiya va yerga sarmoya kiritishni kamaytiradi. U yer solig'ining samarali bo'lishi uchun uning barqaror, tushunarli va adolatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, aks holda yer bozorida asossiz tebranishlar yuzaga keladi.

Oates mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai sifatida yer solig'ining ahamiyatini o'rgangan. Uning fikricha, jismoniy shaxslarning yer solig'i to'lovlari mahalliy infratuzilma va xizmatlarning moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Shu bois soliq siyosati mahalliy darajada samarali boshqarilishi kerak. Yer solig'i jismoniy shaxslarning mahalliy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini va byudjetni qondirish imkoniyatlarini aks ettiradi.

David Jaegerning ishlari yer solig'ining ijtimoiy adolatga ta'siri va jismoniy shaxslar o'rtasida tengsizlikni kamaytirishdagi roli haqida. Jaeger yer solig'ining progressiv bo'lishi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi, ayniqsa, yer egasi bo'lmagan yoki kam mulkka ega shaxslar uchun bu muhimdir. Soliq siyosati yerga egalik qilish darajasidagi farqlarni yumshatishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham O'zbekiston sharoitida yer resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo'llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Biroq, yuqoridagi izlanishlar bizning fikrimizcha, bugungi kunda respublikamizda cheklangan tabiiy resurslarni soliqqa tortish borasidagi bir qator muammolar uchun yechim bo'lishda yetarli emas va bu ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, uning soliq tizimida o'rnini borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek soliq ma'murchiligini yechimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish davrida mahalliy soliq tizimini takomillashtirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, mahalliy darajadagi byudjetlar daromadlarini oshirishda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining doimiy, bir xilda va to'liq undirilishi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy barqarorligi va byudjet mablag'larini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yer solig'ining asosiy vazifasi yer solig'ining asosiy vazifasi mahalliy byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Shuningdek, yer solig'i:

- Yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi;
- Tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi;
- Turli sifatdagi yerlarda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni muvozanatlashga yordam beradi;
- Aholi yashaydigan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlaydi;
- Yer resurslarining talon-taroj qilinishining oldini oladi.

Yer solig'i tizimida davlat mulkdorlarining faoliyati ikki jihatdan ko'rib chiqiladi:

Bir tomonlama foydalanish: Mulkdorlarga tegishli, ammo foydalanilmayotgan yoki kam foydalanilayotgan yerlarga qonuniy asosda soliq solinadi. Bu orqali mulkdorlarni o'z yerlaridan samarali foydalanishga majburlash ko'zda tutilgan.

Ikkinchi tomonlama foydalanish: Davlat tomonidan faol xo'jalik yuritishga yo'naltirilgan yerlar uchun soliq solish orqali yer resurslaridan oqilona foydalanish rag'batlantiriladi. Bu yondashuv yer egalarini o'z yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanishga undaydi, shuningdek mulkdorlik huquqlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida yer solig'ining to'g'ri va samarali undirilishi muhim omil hisoblanadi. Yer solig'i nafaqat moliyaviy resurslar manbai sifatida, balki yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, yer solig'i siyosatini takomillashtirish, soliq mexanizmlarini samarali tashkil etish va

mulkdorlarning huquq hamda majburiyatlarini aniq belgilash orqali mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash mumkin.

Ushbu soliqning vazifasi moliyaviy nuqta'i nazardan olganda, rag'batlantiruvchi va nazorat qilish, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish nuqta'i-nazaridan esa, fiskal vazifalarini bajarishdan iborat.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarni barqarorligini ta'minlash zarurati mavjudligi, mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashda yer solig'ini amal qilishini taqozo etadi.

Yer solig'ining obyektiv zarurligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy mohiyati, bizning nazarimizda soliqqa tortiladigan yer uchastkasidan foydalanish tufayli aniq bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o'rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishga qaratilgan desak, yanglishmaymiz.

Soliq miqdorlarini yerlar sifati, tabiiy iqlim zonalari bo'yicha tabaqalashtirish maqsadida sug'oriladigan yerlar uchun soliq stavkalari ma'muriy tumanlar bo'yicha, ularni tuproqlar ball-bonitetlari buyicha 10 darajaga bo'lgan holda belgilangan. Tuproqlar boniteti dehqonchilikning hozirgi darajasida qiyoslama tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqlarning genetik kelib chiqishi, sug'orishning qancha muddat davom etayotgani, ekin ekilishi, agroiklimiy resurslar bilan ta'minlangani, mexanik tarkibi, tuproqlarning hosil bulish genezisi, tuproq qatlamining suv o'tkaza olishi, sho'rlanganlik darajasi, yeroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda tuproqning boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi.

Lalmi yerlar va yaylovlar zonalar yoki vertikal mintakalarga bulingan, bu yerda yog'inlar bilan turlicha ta'minlanganlik shakllanadiki, ularning unumdorligi shu holatlar bilan bogliqdir.

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalarining joylashgan joyi buyicha solik miqdorlarini tabaqalashtirish maqsadida ma'muriy va sanoat markazlari atrofidagi stavkalarga 1,1 dan 1,3 ga qadar oshiruvchi koeffitsientlar belgilangan.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini mahalliy hudud bo'yicha o'rganar ekanmiz, albatta uning shu hudud mahalliy byudjeti daromadlarida tutgan o'rnini va salmog'ini tahlil qilishimiz lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha quyidagi ma'lumotlar o'rganildi.

1-Jadval

O'zbekistonda davlat byudjeti tarkibida yer solig'ining salmog'i¹ (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Jami solikli daromadlari	103561,7	127970,4	148388,3	165917,9	197642,8
Mahalliy byudjetga tushadigan yer solig'i	2389,7	4060,5	5328,8	6890,1	7171,1
Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	1079,9	1524,2	1883,9	2872,0	2895,6

¹O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadvaldan ko'rish mumkinki, jami solikli daromadlarning o'sishi 2020 yildan 2024 yilgacha jami solikli daromadlar doimiy ravishda o'sib bormoqda. 2020 yildagi 103561,7 mlrd so'mdan 2024 yilga kelib 197642,8 mlrd so'mga yetgan. Bu taxminan 90,8% o'sishni ko'rsatadi. Bu o'sish iqtisodiy faollikning yaxshilanishi va soliqlarni yig'ishda samaradorlikning oshganidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i ham ancha oshgan: 2020 yilda 1079,9 mlrd so'm bo'lsa, 2024 yilda 2895,6 mlrd so'mga yetgan. Taxminan 2,7 barobar o'sish kuzatilmoqda. Bu jismoniy shaxslar yer mulkidan soliqqa tortishda yanada faolroq jalb qilinayotganini anglatadi.

Yer solig'i, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan qismi 2022-2023 yillarda sezilarli darajada oshgan. 2023 yildagi jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 2872 mlrd so'm bo'lib, 2022 yilga nisbatan deyarli 52% ga o'sgan. Bu soliq ma'muriyatchiligining takomillashuvi, raqamlashtirish, nazoratning kuchayishi va soliqqa tortish mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

So'nggi 5 yil ichida yer solig'i ko'rsatkichlari barqaror o'sishda bo'lib, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i sezilarli darajada oshgan. Keyingi yillarda ham yer solig'ini samarali boshqarish va soliq bazasini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida yer solig'ining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda ularni soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri, budjet daromadidagi hissasini tahlil qilish va bu boradagi majud muammolarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinishi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar davomida bevosita soliqlar stavkalari keskin pasaytirilsa-da, yer solig'i stavkalari yildan yilga oshirib borilmoqda, bu esa uning mahalliy budjet daromadlarini to'ldirishda eng muhim manba ekanligini ko'rsatadi;

- soliqqa tortish amaliyotida bo'sh turgan maydonlarning xususiy mulkdorlariga ta'sir choralari kuchaytirilganligi, yerning ahamiyati qanchalik yuqoriligini ko'rsatadi;

- Yer solig'i uni to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati natijalariga bog'liq bo'lmaydi;

- Yer solig'i davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan yengil soliqqa tortish vositasi;

- Mamlakatimizda yer resurslarini soliqqa tortishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanishning o'zi ham mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali natijalarga olib kelishi mumkinligi;

- Mahalliy budjetlar o'zining xarajatlarini o'z mablag'i hisobidan amalga oshirilishi yo'lga qo'yilayotgan ayni paytda mahalliy budjet daromadlarining umumiy hajmida yer solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur ekanligi.

Jismoniy shaxslarga tegishli imtiyozlarni hisobini yurituvchi yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi budjetga ushbu soliqni hisoblab chiqarishda quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- * yer solig'idan imtiyozga ega fuqarolarning qat'iy hisobi yuritilmasligiga hamda prognoz ko'rsatkichlarning to'liq bajarilmasligi;

* yer solig'idan ozod etish tarzidagi imtiyozga ega aynan bitta shaxs tomonidan bir necha tumanda joylashgan obyektlarga nisbatan imtiyozdan foydalanilyotganligi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashga doir muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

* mustaqillikka erishganimizdan buyon yer resurslarini soliqqa tortishga doir normalar takomillashtirilmaganligi;

* yerdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralari kiritilmaganligi;

* fuqarolarning soliqqa oid imtiyozga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etuvchi tashkilotlar bilan o'zaro axborot almashinuv tizimining takomillashtirilmaganligi;

* uzoq yillardan buyon yer solig'i stavkalarini belgilash mexanizmi takomillashtirilmaganligi va boshqalar.

Yer solig'idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni, tajribasi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

- Soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar obyektlari hamda fuqarolarning soliq to'lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo'luvchi hujjatlarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda yagona markazlashgan baza yaratish orqali ular faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish, soliq idoralariga jo'natilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlashga erishish;

- Yer uchastkalariga adolatli soliq solish hamda ushbu soliqning mahalliy budjetdagi ulushini ko'paytirish maqsadida tomorqa xo'jaligida foydalaniladigan yerlar bo'yicha yer solig'i to'lashning alohida tartibini joriy etish;

- Egallab turgan yer maydoni ikki tumanga tegishli subyektlarning yer solig'ini to'lashda, soliqni ro'yxatdan o'tgan tuman budjetiga to'lashi, hisobotlarni esa, o'sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi tumanga tegishli tartibda ma'lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o'z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko'payishini oldini oladi;

- Jismoniy shaxslar tomonidan yer resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida, ularga ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanilmagan yoki boshqa maqsadlarda foydalanilgan hamda 2 yil va undan ortiq davrda qurilish ishlari tugallanmagan holatlari aniqlangan taqdirda 3-yildan boshlab, soliq summasiga ekvivalent miqdorda 2 koeffitsient, 4-yilda 3 koeffitsient va shu tartibda soliq summasini o'sib boruvchi tartibini joriy etish;

- Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yer solig'ini normativ va haqiqiy qiymat asosida soliqqa tortish tizimini joriy qilish;

- Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari o'rniga yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish;

- Yerdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralari kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jismoniy shaxslar yer solig'i sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, samarali axborot almashinuvi tizimini yaratish, soliq stavkalarini optimallashtirish va jazo mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, soliq tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida modernizatsiya qilish va yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stiglitz, Joseph E. *Economics of the Public Sector*.
2. Dye, Richard F., England, Richard W. "Assessing the Effects of Property Taxation on the Housing Market." *Journal of Real Estate Finance and Economics*, 1991.
3. Fischel, William A. *The Economics of Zoning Laws: A Property Rights Approach*.
4. Oates, Wallace E. "The Theory and Practice of Local Public Finance." *Handbook of Public Economics*, 1987.
5. Jaeger, David A. "Property Taxation and Inequality." *National Tax Journal*, 2007.
6. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill.
7. Stiglitz, J. E. (2000). *Economics of the Public Sector*. New York: W.W. Norton & Company.
8. Tanzi, V. (2000). *Taxation in an Integrating World*. Washington: Brookings Institution Press.
9. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2005). *The limited role of the personal income tax in developing countries*.
10. OECD (2022). *Revenue Statistics*. OECD Publishing, Paris.

UO'K: 330.322:911.3(575.5)

QASHQADARYO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI

Tog'ayeva Gulixon Zafar qizi

*Qarshi xalqaro universiteti
Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasi o'qituvchisi,
Qarshi davlat universiteti 1-kurs doktoranti
gulitogayeva28@gmail.com
ORCID: 0009-0002-0149-7410*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligini tahlil qilish va baholashning uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda hududning iqtisodiy salohiyati, mavjud imkoniyatlari hamda investitsion muhitni belgilovchi omillar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, hududiy investitsion jozibadorlikni baholash mezonlari ishlab chiqilib, ularning amaliy

qo'llash imkoniyatlari tahlil etilgan. Natijalar Qashqadaryo viloyatining investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar investitsion jozibadorlik, Qashqadaryo viloyati, uslubiy asoslar, iqtisodiy salohiyat, baholash mezonlari.

УДК: 330.322:911.3(575.5)

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Тогаева Гулихон Зафаровна

Преподаватель кафедры «Экономика и инженерия»

Каршинского международного университета,

докторант 1-го курса Каршинского государственного университета

gulitogayeva28@gmail.com

ORCID: 0009-0002-0149-7410

***Абстрактный:** В данной статье рассмотрены методологические основы анализа и оценки инвестиционной привлекательности Кашкадарьинской области. В исследовании изучены экономический потенциал региона, существующие возможности и факторы, определяющие инвестиционную среду. Разработаны критерии оценки региональной инвестиционной привлекательности и проанализированы возможности их практического применения. Полученные результаты могут быть использованы для выработки предложений по повышению инвестиционного потенциала Кашкадарьинской области.*

***Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, Кашкадарьинская область, методологические основы, экономический потенциал, критерии оценки.*

UDC: 330.322:911.3(575.5)

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ANALYZING AND ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF KASHKADARYA REGION

Gulikhon Zafarovna Togayeva

Lecturer at the Department of Economics and Engineering,

Karshi International University, 1st-year doctoral student at Karshi State University

gulitogayeva28@gmail.com

ORCID: 0009-0002-0149-7410

***Abstract:** This article examines the methodological foundations of analyzing and assessing the investment attractiveness of the Kashkadarya region. The study explores the region's economic potential, available opportunities, and the key factors shaping the investment environment. Criteria for evaluating regional investment attractiveness are developed and their practical application is analyzed. The findings can be used to formulate recommendations for enhancing the investment potential of the Kashkadarya region.*

***Keywords:** investment attractiveness, Kashkadarya region, methodological foundations, economic potential, evaluation criteria.*

KIRISH. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi ko'p jihatdan hududlarning investitsion jozibadorlik darajasiga bog'liq. Bugungi kunda globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida hududlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri investitsion muhitning qulayligi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlaridir. Shu nuqtai nazardan, hududlarning investitsion jozibadorligini tahlil qilish va baholash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning yirik iqtisodiy salohiyatga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash

tarmoqlari va transport-logistika imkoniyatlari jihatidan viloyatning investitsion salohiyati yuqori baholanadi. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi, xorijiy kapitalni jalb qilish ko'lamini hamda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Bu esa hududning investitsion jozibadorligini yanada chuqurroq ilmiy asosda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligini baholashda yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Shu bois, investitsion muhitni belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish va ularni tizimli ravishda baholash hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi investitsiya loyihalarini jalb etish hamda milliy iqtisodiyotda Qashqadaryoning o'rnini mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligini tahlil qilish va baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, hududiy rivojlanish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsion jozibadorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan bo'lib, uning mazmuni turli olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Masalan, J. Dunning, M. Porter va P. Krugman singari xorijiy iqtisodchilar hududiy investitsion jozibadorlikni asosan **raqobat ustunliklari, investitsion muhit sifati va infratuzilma rivojlanishi** bilan bog'lashadi. M. Porterning "Milliy raqobat ustunliklari" nazariyasida hududlarning investitsion salohiyatini shakllantirishda ishlab chiqarish omillari, talabning xususiyatlari hamda davlat siyosati hal qiluvchi omil sifatida qayd etiladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar orasida A. I. Tatarkin, V. V. Knyazev va I. V. Iodaevlarning ishlarida hududlarning investitsion jozibadorligini baholash mezonlari chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida **makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar** asosiy indikator sifatida ta'kidlanadi.

O'zbekiston olimlari ham hududiy investitsion jozibadorlikni o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, H. Abdullayev, Sh. Sodiqov, M. Yusupov, N. Jo'raevlarning ilmiy ishlarida **milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, hududiy rivojlanish strategiyalari, xorijiy sarmoyani jalb qilish mexanizmlari** keng yoritilgan. Shuningdek, A. Vahobov va Sh. Xo'jaqulovlarning ilmiy ishlanmalarida O'zbekistonda investitsion muhitni baholash va hududiy jozibadorlikni oshirish bo'yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlarda asosan **neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash tarmoqlari va transport-logistika imkoniyatlari** asosiy investitsion yo'nalishlar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda mavjud muammolar – investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va xorijiy investorlar uchun kafolatlarning sustligi ta'kidlangan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlikni baholashda yagona universal yondashuv mavjud emas. Har bir olim hududning iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy infratuzilmasi va siyosiy barqarorligiga alohida urg'u beradi. Bu esa Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligini baholashda **kompleks va tizimli metodologik yondashuv** ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotning obyekti — Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati va investitsion muhitini belgilovchi omillar, predmeti esa — hududning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlaridir.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: - Iqtisodiy-statistik tahlil – hududning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida investitsion jozibadorlikni baholash;

- Taqqoslama tahlil – Qashqadaryo viloyati va boshqa hududlar investitsion ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash;

- Indeksar usuli – investitsion jozibadorlikning integral ko'rsatkichini shakllantirish;

- Grafik va jadval usullari – olingan natijalarni vizual taqqoslash.

1-jadval. Investitsion jozibadorlikni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ko'rsatkichlar misoli
1	Iqtisodiy salohiyat	YAIM hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, eksport
2	Investitsion infratuzilma	Energiya, transport, logistika tarmoqlari
3	Moliyaviy muhit	Kreditlash hajmi, bank filiallari soni
4	Mehnat resurslari	Ishchi kuchi salohiyati, o'rtacha ish haqi
5	Institutsional muhit	Davlat qo'llab-quvvatlovi, soliq imtiyozlari
6	Sotsial omillar	Aholi soni, yashash sharoitlari, ta'lim

Jadvalda hududiy investitsion jozibadorlikni baholash uchun zarur bo'lgan asosiy mezonlar tizimlashtirilgan. Ular 6 guruhga ajratilgan bo'lib, har bir mezon hududning iqtisodiy salohiyati va investitsion muhitini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, iqtisodiy salohiyat — bu hududning yalpi hududiy mahsuloti, sanoat ishlab chiqarishi va eksport hajmi orqali o'lchanadi. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tarmoqlari yetakchi hisoblanadi. Demak, bu mezon hududiy jozibadorlikni belgilovchi eng asosiy omil sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, investitsion infratuzilma — energetika, transport va logistika tizimlarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Qashqadaryo viloyatida mavjud yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika markazlarini rivojlantirish, investorlar uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Uchinchidan, moliyaviy muhit — kreditlash hajmi va moliyaviy xizmatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Hududda tijorat banklari soni va ularning investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanganligi sababli, bu yoʻnalishda islohotlarni jadallashtirish zarur.

Toʻrtinchidan, mehnat resurslari — ishchi kuchining salohiyati va oʻrtacha ish haqi orqali baholanadi. Qashqadaryo viloyatida mehnat resurslari yetarli boʻlsa-da, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni ishlab chiqarishga jalb qilishda muammolar mavjud. Bu esa investitsion loyihalarning samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Beshinchidan, institutsional muhit — davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va byurokratik toʻsiqlarning kamaytirilishi orqali aniqlanadi. Ayni paytda Qashqadaryo viloyatida mazkur mezonning samaradorligi nisbatan past baholanmoqda. Shu sababli institutsional muhitni yaxshilash investitsion oqimlarni jalb etishda ustuvor yoʻnalishdir.

Oltinchidan, sotsial omillar — aholi soni, yashash sharoitlari va taʼlim tizimi orqali namoyon boʻladi. Qashqadaryo viloyatida demografik resurslar salohiyati yuqori boʻlib, bu omil yangi investitsion loyihalarni amalga oshirishda mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, jadval tahlili shuni koʻrsatadiki, hududning investitsion jozibadorligi kompleks koʻrsatkichlar majmuiga bogʻliq. Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy salohiyat va sotsial omillar yuqori baholansa-da, institutsional muhit va moliyaviy infratuzilmaning sustligi investitsion jozibadorlikni cheklovchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bois, bu mezonlarni takomillashtirish hududiy investitsion muhitni yaxshilashning asosiy sharti hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Qashqadaryo viloyati investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan yuqori salohiyatga ega boʻlsa-da, ayrim cheklovchi omillar mavjud.

1. Iqtisodiy salohiyat

Viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YAIM) soʻnggi yillarda barqaror oʻsib bormoqda. 2019–2023-yillar davomida YAIM hajmi oʻrtacha 6–7% ga koʻpaydi. Ayniqsa, neft-gaz sanoati va qishloq xoʻjaligi tarmoqlarida oʻsish yuqori boʻldi. Bu esa hududning investitsion jozibadorligida iqtisodiy salohiyatni yetakchi omil sifatida koʻrsatadi.

2. Investitsion infratuzilma

Qashqadaryo viloyatida energetika tarmoqlari yaxshi rivojlangan boʻlsa-da, transport-logistika tizimi yetarlicha samarali emas. Xususan, xalqaro logistika markazlari soni cheklanganligi sababli eksport-import jarayonlari qiyinlashmoqda. Shu bois, infratuzilmani modernizatsiya qilish investitsion oqimlarni koʻpaytirishning asosiy sharti hisoblanadi.

3. Moliyaviy muhit

Hududda tijorat banklari va kreditlash hajmi yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada, investorlarning yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan.

Moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish bu boradagi eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

4. Mehnat resurslari

Viloyatda yosh va mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori. Biroq malakali kadrlar taqchilligi mavjud. Bu investitsion loyihalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli oliy ta'lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Institutsional muhit

Davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari mavjud bo'lsa-da, byurokratik to'siqlar va huquqiy kafolatlarning yetarli emasligi sezilmoqda. Bu esa investorlarning ishonch darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois, institutsional islohotlar viloyat uchun ustuvor yo'nalishlardan biridir.

6. Sotsial omillar

Aholining yuqori demografik o'sish sur'atlari va ta'lim tizimidagi islohotlar hududiy investitsion jozibadorlikni ijobiy baholash imkonini beradi. Biroq turmush sharoitlari va ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlari bo'yicha hali ham muammolar mavjud.

Asosiy natijalar

- Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligi, asosan, **iqtisodiy salohiyat** va **mehnat resurslari** hisobiga yuqori baholanmoqda.
- **Institutsional muhit** va **moliyaviy infratuzilma** past darajada baholanib, investitsion oqimlarni cheklovchi asosiy omillar sifatida qayd etildi.
- Infratuzilma, xususan transport-logistika tizimini rivojlantirish, viloyat investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.
- Malakali kadrlarni tayyorlash va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, uzoq muddatda hududiy investitsion jozibadorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatining investitsion jozibadorligi yuqori iqtisodiy salohiyat, boy tabiiy resurslar va mehnat resurslarining yetarliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi, transport-logistika tizimining yetarli darajada samarali emasligi hamda institutsional muhitdagi muammolar investitsion oqimlarni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hududning investitsion jozibadorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Iqtisodiy salohiyatni oshirish:** mavjud neft-gaz va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan qayta ishlash sanoatini kengaytirish.

2. **Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish:** xalqaro standartlarga mos zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish, avtomobil va temiryo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish.

3. **Moliyaviy muhitni yaxshilash:** tijorat banklari va kredit tashkilotlari sonini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish.

4. **Mehnat resurslari salohiyatidan foydalanish:** oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida investitsion loyihalar ehtiyojiga mos malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish.

5. **Institutsional muhitni takomillashtirish:** xorijiy investorlarga kafolatli huquqiy himoya mexanizmlarini yaratish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish.

6. **Sotsial infratuzilmani yaxshilash:** aholining turmush sharoitlari, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish orqali hududning umumiy investitsion jozibadorligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 303 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 416 b.
3. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. Dunning J.H. The Globalization of Business: The Challenge of the 1990s. – London: Routledge, 1993. – 432 p.
5. Kuznets S. Economic Growth and Structure. – London: Heinemann, 1965. – 298 p.
6. World Bank Group. "Doing Business 2020". – Washington DC: World Bank, 2020.
7. UNCTAD. "World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All". – New York and Geneva: United Nations, 2023.
8. Williamson, J. The Political Economy of Policy Reform. – Washington, D.C.: Institute for International Economics, 1994. – 195 p.
9. Yuldashev N.N., Axmedov A.B. Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash: nazariy va amaliy jihatlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №1. – B. 45–52.
10. Rakhimov T. Regional economic development in Uzbekistan: challenges and perspectives // Central Asian Economic Review. – 2021. – №3. – P. 23–32.
11. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991. – 142 p.
12. Nagaeva G.A., Abdullaeva D.S. O'zbekiston hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari // Ilmiy tadqiqotlar – 2023. – №4(26). – B. 60–67.
13. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). "Uzbekistan Diagnostic Report", 2022.

14. Kuzibekova M., Rasulov B. GIS texnologiyalar asosida investitsion muhitni modellashtirish // Geoiqtisodiy tahlil jurnali. – 2023. – №2. – B. 38–44.

15. OECD. "Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2022" – Paris: OECD Publishing, 2022. – 198 p.

16. Tog'ayeva G.Z. *Hududlarning investitsion jozibadorligini tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari*. "Экономика и социум" №5(132) 2025.

UO'K: 51.7; 519.2/6

IQTISODIY JARAYONLARNI O'RGANISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING ROLI

Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi

Qarshi xalqaro universiteti

Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasida katta o'qituvchisi,

gulzoda0301@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0909-1537

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asosda o'rganishda matematik modellashtirishning o'rni va roli batafsil tahlil qilinadi. Iqtisodiyot murakkab tizim bo'lib, undagi jarayonlarni bevosita kuzatish va aniq baholash qiyin. Shu sababli matematik modellar iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib berish, ularning dinamikasini tushuntirish va kelajakdagi tendensiyalarni prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada iqtisodiy muammolarni hal etishda matematik usullarning samaradorligi, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishdagi ahamiyati va iqtisodiy siyosatni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, amaliy misollar orqali matematik modellashtirishning iqtisodiy tahlildagi afzalliklari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy jarayonlar, matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil, prognozlash, qaror qabul qilish, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy ko'rsatkichlar, optimallashtirish.

УДК: 51.7; 519.2/6

РОЛЬ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Мухиддинова Гулзода Шукур кизи

Преподаватель кафедры Экономика и инженерия

Каршинского международного университета,

gulzoda0301@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0909-1537

Аннотация: В данной статье подробно анализируется роль математического моделирования в научном исследовании экономических процессов. Экономика представляет собой сложную систему, процессы которой трудно непосредственно наблюдать и точно оценивать. В связи с этим математические модели играют важную роль в выявлении взаимосвязей между экономическими показателями, объяснении их динамики и прогнозировании будущих тенденций. В работе подчеркивается эффективность математических методов при решении экономических задач, оптимизации процесса принятия решений и формировании экономической политики. Кроме того, приводятся практические примеры, демонстрирующие преимущества математического моделирования в экономическом анализе.

Ключевые слова: экономические процессы, математическое моделирование, экономический анализ, прогнозирование, принятие решений, экономическая политика, экономические показатели, оптимизация

UDC 51.7; 519.2/6

**THE ROLE OF MATHEMATICAL MODELING IN THE STUDY OF
ECONOMIC PROCESSES****Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi**Lecturer at the Department of Economics and Engineering
Karshi International University,gulzoda0301@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0909-1537

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the role of mathematical modeling in the scientific study of economic processes. Since the economy represents a complex system, it is often difficult to observe and accurately assess its processes directly. Therefore, mathematical models play a crucial role in identifying relationships between economic indicators, explaining their dynamics, and forecasting future trends. The paper emphasizes the effectiveness of mathematical methods in solving economic problems, optimizing decision-making processes, and shaping economic policies. In addition, practical examples are presented to demonstrate the advantages of mathematical modeling in economic analysis.*

Keywords: *Economic processes, mathematical modeling, economic analysis, forecasting, decision-making, economic policy, economic indicators, optimization.*

KIRISH. Matematik model – bu iqtisodiy tizim yoki jarayonning asosiy xususiyatlarini matematik usullar yordamida tavsiflovchi formalizm bo‘lib, u murakkab iqtisodiy hodisalarni soddalashtirilgan, ammo mazmunan to‘liq shaklda ifodalash imkonini beradi. Aslida, iqtisodiy jarayonlarni to‘liq hajmda va barcha omillarni hisobga olgan holda kuzatish qiyin, shuning uchun matematik modellashtirish orqali real dunyo iqtisodiy hodisalari idealizatsiya qilinadi va ular o‘rtasidagi muhim bog‘liqliklar aniqlanadi.

Matematik model yordamida iqtisodiy ko‘rsatkichlar (masalan, talab va taklif, narx va ishlab chiqarish hajmi, investitsiya va daromadlar) o‘rtasidagi munosabatlar aniq matematik tenglamalar, tengsizliklar, funksiyalar yoki statistik metodlar orqali ifodalanadi. Bu esa tadqiqotchiga iqtisodiy tizimning ichki qonuniyatlarini tushunish, mavjud resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash va kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, matematik modellar nafaqat iqtisodiy jarayonlarni tasvirlash, balki ularda turli shartlarni o‘zgartirib ko‘rish (eksperiment o‘tkazish) orqali qanday natija yuzaga kelishini tahlil qilish imkonini ham beradi. Masalan, soliq stavkasining oshirilishi, foiz stavkalarining kamayishi yoki ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi kabi omillar iqtisodiy modelda matematik jihatdan ifodalanadi va natijalar oldindan baholanadi.

Shu tarzda matematik model iqtisodiy fanlarda tahlil qilish vositasi, qaror qabul qilish mexanizmi va prognozlash instrumenti sifatida xizmat qiladi.

Model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Kirish o‘zgaruvchilari: Tizimga ta’sir qiluvchi omillar (masalan, resurslar miqdori, talab).

Chiqarish o‘zgaruvchilari: Natijalar yoki qarorlar (masalan, foyda, xarajat).

Cheklovlar: Resurslar yoki shartlar bilan bog‘liq cheklovlar (masalan, mablag‘ yoki vaqt chegarasi).

Maqsad funksiyasi: Optimallashtirilishi yoki baholanishi kerak bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkich (masalan, foydani maksimal qilish yoki xarajatni minimal qilish).

Iqtisodiy masalalarni hal qilishda matematik modelning roli: Matematik modellar iqtisodiy jarayonlarni aniq va tizimli shaklda tahlil qilishga imkon beradi. matematik modellar yordamida turli shart-sharoitlarda optimal yechimlar topiladi. Matematik modellar tavakkalchiliklarni baholashda va iqtisodiy xavflarni boshqarishda qo'llaniladi. Matematik modellar bozor tendensiyalarini oldindan aytish uchun ishlatiladi. Bu rejalashtirish va strategiya ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan:

1. Transport masalasi: Korxonada mahsulotni manbadan iste'molchilar punktlariga eng arzon yo'l bilan yetkazishni rejalashtiradi. Matematik model yuk tashish xarajatlarini minimallashtirishni ko'zda tutadi.

2. Ishlab chiqarish rejalashtirish: Korxonada xomashyo va ish kuchini hisobga olib, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishni optimallashtirish uchun matematik modellarni qo'llaydi.

Matematik modellarni qo'llashning afzalliklari:

1. Matematik modellar murakkab iqtisodiy jarayonlarni aniq ifodalash va ulardagi muhim omillarni tahlil qilish imkonini beradi.

2. Model yordamida resurslardan samarali foydalanish va qarorlarni optimal qabul qilish mumkin.

3. Matematik modellar yordamida kelajakdagi iqtisodiy sharoitlarni prognoz qilish va strategiyalarni ishlab chiqish osonlashadi.

4. Model turli variantlarni taqqoslash va eng samarali variantni tanlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Cormen va boshqalar tomonidan yozilgan *Introduction to Algorithms* va Hillier va Liebermanning *Introduction to Operations Research* adabiyotlarida matematik modellashtirishning asosiy nazariy tamoyillarini yoritib berilgan[1,3]. Simon va Blume tomonidan yozilgan *Mathematics for Economists* iqtisodiy tahlil uchun matematik vositalar haqida asosiy tushunchalarni berilgan va iqtisodiy modellarni amalda qo'llash usullariga yo'naltirilgan[6]. Bazaraa va boshqalar tomonidan yozilgan *Linear Programming and Network Flows* va Boyd va Vandenbergning *Convex Optimization* adabiyotlarida optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritib berilgan. Ayniqsa, chiziqli dasturlash va chiziqli optimallashtirish masalalariga keng ko'lami yoritib berilgan[4,7]. Winstonning *Operations Research* kitobida matematik modellarni iqtisodiyot va menejment sohalarida qo'llashga oid misollar ishlab ko'rsatilgan. Matematik modelni qurishdan tortib, uning yechimini amalda qo'llashgacha bo'lgan jarayonlar tushuntirib berilgan.

TADVIQOT METADOLOGIIYASI.

Matematik modellashtirish – bu real hayotdagi muammo yoki jarayonni soddalashtirilgan, ammo mohiyatini saqlagan holda matematik shaklda ifodalash va

uni ilmiy tahlil qilish usulidir. Ushbu jarayon bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri muhim ahamiyat kasb etadi.

1- Bosqich: Bu bosqich matematik modellashtirishning poydevori hisoblanadi. Unda muammoning mohiyati va mazmuni oydinlashtiriladi, uni tashkil etuvchi asosiy qismlar hamda muhim savollar belgilanadi. Muhim jihati – muammo qaysi tizim yoki jarayonga tegishli ekanini aniqlash, unga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatish va uning chegaralarini belgilab olishdir (masalan, vaqt oralig'i, mavjud resurslar, tashqi shartlar).

Korxonada ishlab chiqarish faoliyatida xomashyo, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanadi. Asosiy muammo – mavjud resurslardan eng samarali foydalanib, korxonada foydasini maksimal darajaga yetkazishdir.

2 - bosqich: Muammo aniqlangach, undan kutiladigan natija yoki erishilishi kerak bo'lgan maqsad aniqlanadi. Bu ko'pincha optimallashtirish vazifasiga borib taqaladi. Maqsad turlicha bo'lishi mumkin: foydani maksimal qilish, xarajatlarni minimal darajaga tushirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish yoki xizmat sifatini yaxshilash.

Korxonaning maqsadi – mavjud resurslardan foydalanib ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali foydani maksimal qilish.

3 - bosqich: Matematik modellashtirishning eng muhim bosqichlaridan biri – bu muammoni soddalashtirish va faqat asosiy omillarni hisobga olishdir. Chunki real iqtisodiy tizimda ko'plab kichik va ikkinchi darajali omillar mavjud bo'lib, ularning barchasini modelga kiritish imkonsiz yoki murakkab bo'lishi mumkin. Shu sababli faqat eng ta'sirchan o'zgaruvchilar va cheklovlar tanlab olinadi.

Korxonada ishlab chiqarish modeli uchun muhim omillar – xomashyo miqdori, mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvati, vaqt cheklovlari va bozordagi talab.

4 - bosqich: Ushbu bosqichda real muammo matematik shaklga o'tkaziladi. Tanlab olingan omillar o'zgaruvchilar sifatida belgilanadi, ular orasidagi bog'liqlik matematik tenglamalar, tengsizliklar, funksiyalar yoki grafiklar yordamida ifodalanadi. Modelning murakkabligi muammo turiga qarab farqlanadi: oddiy chiziqli model bo'lishi mumkin yoki ko'p o'zgaruvchili, nolinear tenglamalar tizimidan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Korxonaning foydasini maksimal qilish uchun chiziqli dasturlash (linear programming) modeli tuzish. Bu yerda maqsad funksiyasi – foyda, cheklovlar esa resurslar hajmi va ishlab chiqarish quvvatidir.

5 - bosqich: Model tuzilib bo'lgach, uni yechish bosqichi boshlanadi. Bu jarayonda turli matematik usullar qo'llanadi: analitik usullar (tenglamalarni yechish, ekstremumlarni topish), numerik usullar (taxminiy hisoblash, kompyuter algoritmlari), statistik usullar (regressiya, korrelyatsiya tahlili) va optimallashtirish metodlari. Yechim natijasi orqali muammoning optimal varianti topiladi.

Chiziqli dasturlash yordamida korxonaning ishlab chiqarish hajmi va resurslarni taqsimlashning eng foydali varianti aniqlanadi.

6 – bosqich: Modeldan olingan natijalar iqtisodiy mazmun bilan izohlanadi. Yechimning real hayotga qanchalik mos kelishi, modelning aniqligi va chegaralari tahlil qilinadi. Zarur bo'lsa, model qayta takomillashtiriladi.

Model ko'rsatgan optimal resurs taqsimoti amaliyotda qo'llanadi va uning natijalari kuzatib boriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Iqtisodiy jarayonlarning (masalalarning) matematik modelini tuzish uchun quyidagi bosqichlardagi ishlarni bajarish kerak:

1) masalaning iqtisodiy ma'nosi bilan tanishib, undagi asosiy shartlar va maqsadni aniqlash;

2) masaladagi ma'lum parametrlarni belgilash;

3) masaladagi noma'lumlarni (boshqaruvchi o'zgaruvchilarni) belgilash;

4) masaladagi cheklamalarni, ya'ni boshqaruvchi o'zgaruvchilarning qanoatlantirishi kerak bo'lgan chegaraviy shartlarni chiziqli tenglamalar yoki tengsizliklar orqali ifodalash;

5) masalaning maqsadini chiziqli funksiya orqali ifodalash.

Boshqaruvchi o'zgaruvchilarning barcha cheklamalarni qanoatlantiruvchi shunday qiymatini topish kerakki, u maqsad funksiyaga eng katta (maksimum) yoki eng kichik (minimum) qiymat bersin. Bundan ko'rinadiki, maqsad funksiya boshqaruvchi noma'lumlarning barcha qiymatlari ichida eng yaxshisini (optimalini) topishga yordam beradi. Shuning uchun ham maqsad funksiyani foydalilik yoki optimallik mezonini deb ham ataladi.

Iqtisodiy masalalarning matematik modelini tuzish jarayonini amaliyotda nisbatan ko'p uchraydigan quyidagi iqtisodiy masalalar misolida o'rganamiz.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish va rejalashtirish masalasi. Faraz qilaylik, korxonada m xil mahsulot ishlab chiqarilsin; ulardan ixtiyoriy birini i bilan belgilaymiz. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun n xil ishlab chiqarish faktorlari zarur bo'lsin. Har bir xom-ashyoning umumiy miqdori va bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan normasi haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda berilgan bo'lsin.

Xom-ashyolar (Mahsulot turlari)	1	2	3	...	n	Daromad
1	a_{11}	a_{12}	a_{13}	...	a_{1n}	c_1
2	a_{21}	a_{22}	a_{23}	...	a_{2n}	c_2
...	
m	a_{m1}	a_{m2}	a_{m3}	...	a_{mn}	c_m
Xom-ashyolar zahirasi	b_1	b_2	b_3	...	b_n	

Jadvaldagi har bir: $b_i - j$ xom-ashyoning umumiy miqdori (zahirasi); $a_i - i$ mahsulotning bir birligini ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan j xom-ashyo miqdori; c_j - korxonaning j mahsulotning bir birligini sotishdan oladigan daromadi.

Yechim: Konditer fabrikasida A turdagi karameldan x_1 miqdorda, B turdagi karameldan x_2 miqdorda va C turdagi karameldan x_3 miqdorda ishlab chiqarilsin deb belgilaymiz. U holda fabrikada ishlab chiqariladigan barcha karamellar uchun $0,7x_1 + 0,4x_2 + 0,5x_3$ miqdorda shakar sarf qilinadi. Bu miqdor shakarning zahirasidan, ya'ni 800 tonnadan oshmasligi kerak. Demak, $0,7x_1 + 0,4x_2 + 0,5x_3 \leq 500$ tengsizlik o'rinli bo'lishi kerak. Xuddi shunday yo'l bilan mos ravishda qiyom va quruq mevalar sarfini ifodalovchi quyidagi tengsizliklarni hosil qilish mumkin: $0,5x_1 + 0,4x_2 + 0,7x_3 \leq 400$, $0,1x_2 + 0,1x_3 \leq 340$. Fabrika ishlab chiqargan A karameldan $201x_1$, B karameldan $145x_2$, C karameldan $168x_3$ birlik va ja'mi $201x_1 + 145x_2 + 168x_3$ birlik daromad oladi. Bu yig'indini Y bilan belgilab uni maksimumga intilishini talab qilamiz. Natijada quyidagi funksiyaga ega bo'lamiz: $Y = 201x_1 + 145x_2 + 168x_3 \rightarrow \max$. Shunday qilib, berilgan masalaning matematik modelini quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\begin{cases} 0,7x_1 + 0,4x_2 + 0,5x_3 \leq 500 \\ 0,5x_1 + 0,4x_2 + 0,7x_3 \leq 400, \\ 0,1x_2 + 0,1x_3 \leq 340 \\ x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, x_3 \geq 0, \\ Y = 201x_1 + 145x_2 + 168x_3 \rightarrow \max. \end{cases}$$

Demak, shu shartlarni qanoatlantiruvchi noma'lumlarning shunday qiymatlarini topish kerakki, ular $Y = 201x_1 + 145x_2 + 168x_3 \rightarrow \max$ chiziqli funksiyaga minimum (maksimum) qiymat bersin. Masalaning shartlari uning chegaraviy shartlari, $Y = 201x_1 + 145x_2 + 168x_3 \rightarrow \max$ chiziqli funksiya esa masalaning maqsadi yoki maqsad funksiyasi deb ataladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Maqolada iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda matematik modellashtirishning ahamiyati va nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, mavzuning ilmiy hamda amaliy qiymatini yanada oshirish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, maqolada keltirilgan nazariy izohlarni real iqtisodiy misollar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega. Masalan, korxonada ishlab chiqarishda resurslarni optimal taqsimlash, transport xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy investitsiyalarni boshqarish yoki bank faoliyatidagi kredit portfelini modellashtirish kabi amaliy vaziyatlar asosida modellar qurilsa, mavzu talabalarga ham, mutaxassislariga ham yanada tushunarli va qiziqarli bo'ladi.

Ikkinchiidan, maqolaga vizual vositalarni – diagramma, jadval va grafiklarni ko'proq kiritish tavsiya etiladi. Chunki nazariy formulalar va modellarni nafaqat matn orqali, balki ko'rgazmali vositalar orqali ifodalash ham o'quvchi uchun tahlil jarayonini yengillashtiradi.

Uchinchiidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalardan keng foydalanish lozim. Xususan, Matlab, R, Python (pandas, numpy, scipy kutubxonalari), LINGO va Excel Solver kabi dasturlar yordamida modellarni qurish va ularning yechimlarini hisoblash nafaqat jarayonni tezlashtiradi, balki aniq va ishonchli

natijalarni ham beradi. Kelgusida maqolada shunday dasturiy amaliyot natijalarini keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, matematik modellashtirishning chegaralari va cheklovlarini ham batafsilroq ko'rsatish zarur. Har bir modelning qo'llanilish sohasi bor: ba'zi modellar faqat chiziqli jarayonlarga mos keladi, boshqalari esa murakkab nolinear tizimlarni tahlil qiladi. Shuning uchun maqolada modellarni qo'llashning imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning cheklovlarini ham ko'rsatish maqolaning ilmiy aniqligini oshiradi.

Beshinchidan, matematik modellashtirishni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kengroq tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, qishloq xo'jaligida ekin maydonlarini rejalashtirish, transport tizimida yo'lovchi oqimini boshqarish, moliya sohasida risklarni baholash, energetika sohasida resurslarni optimal taqsimlash kabi masalalarni model asosida yechish mumkin. Bu esa maqolaning qo'llanilish doirasini kengaytiradi va uni nafaqat nazariy, balki amaliy qo'llanma sifatida ham qadrlashga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, matematik modellashtirish iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning ichki qonuniyatlarini aniqlash va optimal qarorlar qabul qilishda beqiyos vositadir. Modellashtirish yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va foydani ko'paytirish mumkin. Bundan tashqari, matematik modellar bozor tendensiyalarini prognozlash, risklarni baholash va samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, matematik modellashtirishning samaradorligi ko'p jihatdan modelni tuzishda parametrlarni to'g'ri tanlash, omillarni asosli ajratish va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga bog'liqdir. Agar ushbu shartlar bajarilsa, matematik modellar iqtisodiy tahlil va boshqaruvda eng kuchli ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, iqtisodiyotni boshqarishda, strategik qarorlar qabul qilishda va kelajakni prognozlashda matematik modellashtirishning ahamiyati yanada ortib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cormen, T.H., Leiserson, C.E., Rivest, R.L., and Stein, C. *Introduction to Algorithms (3rd Edition)*. Cambridge, Massachusetts, USA. The MIT Press 2009. 1292 bet
2. Winston, W.L. *Operations Research: Applications and Algorithms (4th Edition)*. Belmont, California, USA. Cengage Learning 2004. 1424 bet
3. Hillier, F.S., and Lieberman, G.J. *Introduction to Operations Research (11th Edition)*. New York, USA. McGraw-Hill Education 2021. 1170 bet
4. Bazaraa, M.S., Jarvis, J.J., and Sherali, H.D. *Linear Programming and Network Flows (4th Edition)*. Hoboken, New Jersey, USA. John Wiley & Sons 2010. 656 bet
5. Luenberger, D.G., and Ye, Y. *Linear and Nonlinear Programming (4th Edition)*. New York, USA. Springer 2015. 546 bet
6. Simon, C.P., and Blume, L. *Mathematics for Economists*. New York, USA. W.W. Norton & Company 1994. 928 bet

7. Boyd, S., and Vandenberghe, L. *Convex Optimization*. Cambridge, UK. Cambridge University Press 2004. 716 bet
8. Xashimov A.R., Sotvoldiyev A.I., Xujaniyozova G.S., Xolbozorov Q.X. Iqtisodchilar uchun matematika: 1-modul (chiziqli algebra asoslari va uning iqtisodiyotga tatbiqlari). Darslik. T.: "Nihol-print" OK. 2022. 316 b.
9. Xashimov A.R., Babadjonov Sh.Sh., Xujaniyozova G.S., Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2019. 572 b.
10. Wes McKinney and the Pandas Development Team, *pandas:powerful Python data analysis toolkit*, 2020
11. Dejen Ketema, *Applied Mathematics*, Arba Minch University, Department of Mathematics, 2016
12. Muhiddinova G.Sh. "Ishlab chiqarish jarayonlarini matematik modellashtirish". "Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi" Respublika ilmiy jurnali. 19.12.2024.
13. Muhiddinova G.Sh. "Iqtisodiy modellarni matematik tahlil qilish". Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi Respublika ilmiy jurnali 19.12.2024,

UO'K: 338.24

QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGI TIZIMIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Ochilova MaftunaQarshi Xalqaro Universiteti o'qituvchisi
Qarshi davlat texnika universiteti doktorantimochilova53@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8866-9133

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi va uning aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik ko'rsatkichlari hamda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlaridagi o'zgarishlar ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida qishloq xo'jaligi yerlarining samarali boshqaruvi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish, samaradorlik, ta'minlanish darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi, dehqonchilik, chorvachilik.

УДК: 338.24

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗЕМЕЛЬ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИЕЙ

Мафтуна ОчиловаПреподаватель Каршинского Международного Университета
Докторант Каршинского Государственного Технического Университета,mochilova53@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8866-9133

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность использования сельскохозяйственных земель и их влияние на обеспечение населения сельскохозяйственной продукцией. Анализируются объемы производства, показатели урожайности, а также структурные изменения в растениеводстве и животноводстве. На основе статистических данных раскрывается роль эффективного управления сельскохозяйственными землями в обеспечении продовольственной безопасности и снабжении населения сельскохозяйственной продукцией.

Ключевые слова: использование сельскохозяйственных земель, эффективность, уровень обеспеченности, продовольственная безопасность, растениеводство, животноводство.

UDC: 338.24

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF AGRICULTURAL LANDS ON THE EFFICIENCY OF PROVIDING THE POPULATION WITH AGRICULTURAL PRODUCTS

Maftuna Ochilova

Teacher at Karshi International University

Doctoral Student at Qarshi State Technical University

mochilova53@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8866-9133

Abstract: This article analyzes the efficiency of agricultural land use and its impact on providing the population with agricultural products. It examines production volumes, crop yields, and structural changes in crop and livestock sectors. Based on statistical data, the study highlights the importance of effective management of agricultural land in ensuring food security and improving the supply of agricultural products to the population.

Key words: agricultural land use, efficiency, supply level, food security, crop production, livestock farming.

KIRISH. Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanish masalalari qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish muammosini yanada dolzarb qilmoqda. Yer resurslari cheklangan sharoitda ularning unumdorligini oshirish, ekin maydonlarini oqilona boshqarish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligi tizimi ko'plab omillarga, jumladan, ishlab chiqarish hajmi va sifati, logistika imkoniyatlari, bozor mexanizmlari, narxlar barqarorligi va eng avvalo, qishloq xo'jaligi yerlari holatiga bevosita bog'liqdir. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari hajmini ko'paytirishga, balki ularning sifatini yaxshilash hamda aholining barqaror ta'minotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, qishloq xo'jaligi yerlarining aholiga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimi samaradorligiga ta'sirini baholash masalasi bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu masalani o'rganish nafaqat mintaqaviy miqyosda, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy fanlarda keng tadqiq etilgan. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, yer resurslaridan oqilona

foydalanish, hosildorlikni oshirish va agrotexnologiyalarning joriy etilishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.²

Yer resurslari samaradorligining aholiga ta'minot tizimiga ta'siri ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Boserup (1965) o'z ishida aholining o'sishi bilan yerga bo'lgan talab ortishi va intensivlashtirish jarayonining kuchayishini ta'kidlagan.³ Shuningdek, Deininger va Feder (2001) tadqiqotlarida agrar islohotlar, yer egalik tizimi va ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri yoritilgan.⁴

O'zbekistonda olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi qayd etiladi. Jumladan, Karimov (2015) va Qo'chqorov (2020) tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi yerlarining hosildorligini oshirish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya choralari qo'llash orqali hududiy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.⁵

So'nggi yillarda global miqyosda yer resurslari samaradorligi va oziq-ovqat ta'minoti muammolari ekologik cheklovlar, iqlim o'zgarishi va resurslardan noto'g'ri foydalanish bilan yanada murakkablashmoqda (World Bank, 2021). Shu bois, ko'plab tadqiqotchilar (Tilman et al., 2011; Alexandratos & Bruinsma, 2012) yer resurslaridan samarali foydalanish va intensivlashtirish choralari innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlashadi.⁶

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yerlarining samarali boshqaruvi aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda agrar siyosat, infratuzilma va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi yerlarining aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligi tizimiga ta'sirini tizimli ravishda o'rganildi. Maqola sifatida tayyorlangan ushbu ilmiy ishda deskriptiv (ta'riflovchi) va analitik tadqiqot yondashuvlari asos sifatida tanlandi. Asosiy e'tibor mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida xulosalar chiqarish va islohotlarga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini baholashda asosiy mezonlar sifatida ishlab chiqarish ko'lamlari va sifati, mahsulotlarning bozor narxleri hamda iste'molchilarga yetkazib berilish tezligi,

² Food and Agriculture Organization (FAO). (2019). *The state of food and agriculture 2019: Moving forward on food loss and waste reduction*. FAO.

³ Boserup, E. (1965). *The conditions of agricultural growth: The economics of agrarian change under population pressure*.

⁴ Deininger, K., & Feder, G. (2001). Land institutions and land markets. In B. Gardner & G. Rausser (Eds.), *Handbook of agricultural economics* (Vol. 1, pp. 287–331). Elsevier.

⁵ Karimov, A. (2015). Yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari. *O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti jurnali*, (3), 45–52.

⁶ World Bank. (2021). *Transforming agriculture for improved livelihoods and shared prosperity*. World Bank Group.

logistika tizimining ishlash darajasi, chiqindilar miqdori va yer maydonlari unumdorligi kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatida bu samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida infratuzilma hamda logistika xizmatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Shuningdek, mahsulotlarni bozorga to'g'ri tayyorlash va ularni samarali sotish fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Zamonaviy qadoqlash, sertifikatlash va brend yaratish mexanizmlaridan foydalanish mahsulotlarning qo'shimcha qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli savdo platformalari, elektron tijorat kanallari va kooperativ savdo tarmoqlaridan foydalanish fermer xo'jaliklariga mahsulotlarini bozorga tezkor va samarali yetkazish imkonini beradi.

2024 yilda Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni 413961,0 gektarni tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 0,87 birlikka qisqargan. Shunga qaramay, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor qiymati keskin oshib, 2024 yilga kelib 2012 yil darajasidan qariyb 9 baravar yuqorilab, 42693,2 mlrd so'mni tashkil qilgan. Shu davr mobaynida dehqonchilik mahsulotlari qiymati 6,6 baravar, chorvachilik mahsulotlari qiymati esa 8,9 baravarga o'sdi.

Mazkur ko'rsatkichlar Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ustuvorligini yaqqol namoyon etadi. Bu holat yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida tarmoqlar ulushining o'zgarishi orqali ham tasdiqlanadi. Xususan, 2012 yildan 2024 yilgacha dehqonchilik mahsulotlari ulushi 45,2 foizdan 37,9 foizgacha pasaygan bo'lsa, chorvachilik mahsulotlarining ulushi 54,8 foizdan 62,1 foizgacha ko'tarilgan.

Qishloq xo'jaligi samaradorligini baholashda jahon miqyosida asosiy ko'rsatkich sifatida bir gektardan olinadigan daromad qabul qilinadi. Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich 2024 yilda 39,1 million so'mni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan qariyb 7,6 barobarga oshdi. Biroq ishlab chiqarish hajmidagi o'sish faqat nominal natijalarni ko'rsatadi, narxlarning o'zgarishi hisobga olinmagani uchun aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi pasayadi va ishlab chiqarilgan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish samaradorligi kamayadi.

2024 yilda Qashqadaryo viloyatida aholining umumiy soni 3560,6 ming kishiga yetib, 2010 yilga nisbatan 36,1 foizga ko'paygan. Shahar aholisi soni 34,2 foizga, qishloq aholisi esa 37,6 foizga o'sdi. Bugungi kunda jami aholining 42,8 foizi shaharlarda, 57,2 foizi esa qishloqlarda istiqomat qiladi. Qishloq va shahar aholisi o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi ham farq qiladi. O'zbekiston aholisi daromadining 55–60 foizini iste'molga sarflaydi: shaharliklar o'z daromadining 35–40 foizini oziq-ovqatga yo'naltirsa, qishloq joylarda bu ko'rsatkich daromad pastligi sababli 45–50 foizni tashkil qiladi.

Viloyatda 2024 yilda bug'doy yetishtirish hajmi 795,7 ming tonnaga teng bo'lib, 2020 yilga nisbatan 94,8 foizni tashkil qildi. Dukkakli don ekinlari hajmi esa 66,8 foizga oshgan. Kartoshka hosili 205,2 ming tonnani tashkil etib, 2020 yilga qaraganda 16 foiz ko'paygan. Sabzavot yetishtirish 597,3 ming tonnaga teng bo'lib, bu 21,2 foizlik o'sishni anglatadi. Poliz mahsulotlari hajmi 209 ming tonnaga yetib, 28,2 foizga o'sgan. Meva, rezavor va uzum hosillari ham 2020 yilga nisbatan 23,2 foizga ko'paydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pomidor, bodring va baqlajon kabi mahsulotlar yetishtirish hajmi barqaror oshib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Qashqadaryo viloyatida 2012–2024 yillar mobaynida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. Yer maydonlarining 0,87 birlikka qisqarishiga qaramay, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozor qiymati 9 marta yaqin oshganligi ishlab chiqarish samaradorligining ortib borayotganligini ko'rsatadi. Ushbu davrda dehqonchilik mahsulotlari qiymati 6,6 marta, chorvachilik mahsulotlari esa 8,9 marta ko'paygan bo'lib, sohada chorvachilik tarmog'ining ustuvorligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tarmoqlar ulushidagi dinamik o'zgarishlar ham bu jarayonni tasdiqlaydi: agar 2012 yilda dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 45,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 37,9 foizgacha kamaygan. Aksincha, chorvachilik mahsulotlarining ulushi 54,8 foizdan 62,1 foizgacha oshgan. Bu esa, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini, ularning iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, viloyatda chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimining samaradorligini kuchytirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexandratos, N., & Bruinsma, J. (2012). *World agriculture towards 2030/2050: The 2012 revision*. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. Boserup, E. (1965). *The conditions of agricultural growth: The economics of agrarian change under population pressure*. Aldine Publishing.
3. Deininger, K., & Feder, G. (2001). Land institutions and land markets. In B. Gardner & G. Rausser (Eds.), *Handbook of agricultural economics* (Vol. 1, pp. 287–331). Elsevier.
4. Food and Agriculture Organization (FAO). (2019). *The state of food and agriculture 2019: Moving forward on food loss and waste reduction*. FAO.
5. Karimov, A. (2015). Yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari. *O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti jurnali*, (3), 45–52.
6. Qo'chqorov, M. (2020). Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda yer va suv resurslaridan foydalanishning innovatsion yo'llari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (2), 77–84.
7. Tilman, D., Balzer, C., Hill, J., & Befort, B. L. (2011). Global food demand and the sustainable intensification of agriculture. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 108(50), 20260–20264. <https://doi.org/10.1073/pnas.1116437108>
8. World Bank. (2021). *Transforming agriculture for improved livelihoods and shared prosperity*. World Bank Group.

UO'K: 711.4:330.34(100-773)

**URBANIZATSIYA VA AGLOMERATSIYA: RIVOJLANAYOTGAN
MAMLAKATLAR UCHUN TAHLILII YONDASHUV****Xidoyatova Nigora Shorakibovna**

Qarshi xalqaro universiteti

Iqtisodiyot va muhandislik kafedrası katta o'qituvchisi

xidoyatovaanigora@gmail.com ORCID: 0009-0006-2446-6720

Annotatsiya: Ushbu maqolada urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida tahlil qilinadi. Aholi zichligining ortishi, infratuzilmaning markazlashuvi va iqtisodiy faoliyatning muayyan hududlarga to'planishi tufayli yuzaga kelayotgan aglomeratsiyalar ijobiy va salbiy ta'sirlarni yuzaga keltiradi. Muallif urbanizatsiyaning aglomeratsiyani shakllantirishdagi roli, ularning o'zaro aloqadorligi hamda samarali hududiy rejalashtirish uchun zarur strategiyalarni yoritadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston misolida mahalliy holatlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, aglomeratsiya, rivojlanayotgan mamlakatlar, hududiy rivojlanish, iqtisodiy markazlashuv, migratsiya, infratuzilma

УДК: 711.4:330.34(100-773)

**УРБАНИЗАЦИЯ И АГЛОМЕРАЦИЯ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД
ДЛЯ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН****Хидаятова Нигора Шоракибовна**

Старший преподаватель кафедры Экономика и инженерия

Каршинский международный университет

xidoyatovaanigora@gmail.com

ORCID: 0009-0006-2446-6720

Аннотация: В данной статье анализируются процессы урбанизации и агломерации в контексте развивающихся стран. Рост плотности населения, централизация инфраструктуры и концентрация экономической деятельности в отдельных регионах приводят к формированию агломераций, имеющих как положительное, так и отрицательное влияние. Автор рассматривает роль урбанизации в формировании агломераций, их взаимосвязь и предлагает стратегические подходы для эффективного регионального планирования. Также приводится анализ местных условий на примере Узбекистана.

Ключевые слова: урбанизация, агломерация, развивающиеся страны, региональное развитие, экономическая централизация, миграция, инфраструктура

UDC 711.4:330.34(100-773)

**URBANIZATION AND AGGLOMERATION: AN ANALYTICAL
APPROACH FOR DEVELOPING COUNTRIES****Hidoyatova Nigora Shorakibovna**

Senior Lecturer, Department of Economics and Engineering

Qarshi International University

xidoyatovaanigora@gmail.com

ORCID: 0009-0006-2446-6720

Abstract: This article analyzes the processes of urbanization and agglomeration in the context of developing countries. The increase in population density, centralization of infrastructure, and concentration of economic activity in specific regions lead to the formation of agglomerations, which bring both opportunities and challenges. The author explores the role of urbanization in shaping agglomerations, their interrelationship, and proposes strategic approaches for effective regional planning. The article also examines local cases with reference to Uzbekistan..

Keywords: urbanization, agglomeration, developing countries, regional development, economic centralization, migration, infrastructure.

Kirish. Bugungi kunda urbanizatsiya dunyo miqyosida eng jadal rivojlanayotgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Aholining shahar markazlariga ko'chib o'tishi, infratuzilmaning markazlashuvi va iqtisodiy imkoniyatlarning ko'plab shahar hududlarida to'planishi aglomeratsiya hodisasini yuzaga keltirmoqda. Aglomeratsiya — bu bir-biriga yaqin joylashgan aholi punktlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanuvchi hududiy tuzilmadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu jarayonlar ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, urbanizatsiya va aglomeratsiya iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi va zamonaviy infratuzilma rivojiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, bu holat muammolar – transport tirbandliklari, ekologik bosim, ijtimoiy tengsizlik va rejalashtirilmagan qurilishlar kabilarga ham olib kelishi mumkin.

Maqolada urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O'zbekiston misolida tahlil qilinadi. Ularning o'zaro bog'liqligi, iqtisodiy va hududiy rivojlanishga ta'siri hamda samarali boshqaruv strategiyalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Urbanizatsiya va aglomeratsiya masalalari global ilmiy adabiyotda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va hududiy rivojlanish kontekstida olib boriladi.

1. Lefebvre H. (1970). "The Urban Revolution"

Ushbu asarda Lefebvre urbanizatsiyani faqat demografik o'sish sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar tizimi sifatida tahlil qiladi. U shahar makonini iqtisodiy kuchlar tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy maydon deb ataydi.

2. UN-Habitat (2020). "World Cities Report"

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu hisobotida urbanizatsiya darajasi va aglomeratsion o'sishning rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Xususan, infratuzilmaga bosim, norasmiy turar joylar ko'payishi va transport muammolari kabi salbiy holatlar yoritilgan.

3. Krugman P. (1991). "Increasing Returns and Economic Geography"

Krugmanning iqtisodiy geografiyaga oid modeli aglomeratsiya iqtisodiyotining asoslarini tushuntiradi. U yirik shaharlarda iqtisodiy faoliyatning to'planishini "masshtab effekti" orqali izohlaydi va aglomeratsiya kuchli tarmoq aloqalari va resurslar almashinuvi tufayli yuzaga kelishini ko'rsatadi.

4. Fujita, Krugman & Venables (1999). "The Spatial Economy"

Bu kitobda urbanizatsiya va aglomeratsiya o'rtasidagi fazoviy (geografik) muvofiqlik tahlil qilinadi. Mualliflar makroiqtisodiy model orqali yirik shaharlarning iqtisodiy markazga aylanish sabablarini tahlil qilganlar.

5. Statistika qo'mitasi va Davlat rejalashtirish qo'mitasi (O'zbekiston) hisobotlari

O'zbekiston sharoitida urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari haqida rasmiy statistik ma'lumotlar bilan tanishish ushbu mavzuni mahalliy kontekstda o'rganishga imkon beradi. Jumladan, Toshkent shahri va uning atrofidagi yirik tumanlar o'rtasidagi transport, demografik va sanoat aloqalari tahlilga asos bo'ladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va strategik hujjatlari (2030 yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasi)

Mazkur hujjatlarda urbanizatsiyani boshqarish, aholining shahar hududlariga joylashuvi, infratuzilma va uy-joy qurilishi bo'yicha aniq yo'nalishlar ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlarini rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, tahliliy va qiyosiy metodlar asosida ilmiy yondashuv qo'llanildi.

1. Tahliliy (analitik) metod:

Ushbu metod orqali urbanizatsiya va aglomeratsiyaning asosiy tushunchalari, shakllanish mexanizmlari va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va rasmiy hisobotlar asosida mavjud holat o'rganildi.

2. Qiyosiy metod:

Tadqiqotda bir nechta rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Hindiston, Indoneziya va O'zbekiston) urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlarining o'ziga xos jihatlari taqqoslandi. Bu yondashuv orqali O'zbekiston sharoitida qanday noyobliklar borligi aniqlab berildi.

3. Statistik metod:

Tadqiqotda milliy statistika agentliklari (xususan, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi) va xalqaro tashkilotlarning (BMT, UN-Habitat, World Bank) ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi. Aholi zichligi, migratsiya oqimlari, infratuzilma rivojlanishi va iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari asosida urbanizatsiya dinamikasi tahlil qilindi.

4. Hududiy-geografik tahlil:

Toshkent shahri va unga yaqin hududlarda shakllanayotgan aglomeratsion munosabatlar o'rganildi. Hududlararo transport aloqalari, xizmatlar sohasi va aholi zichligi xaritalar asosida tahlil qilindi.

5. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish:


Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi, urbanizatsiyani boshqarish va hududiy siyosatga oid Prezident qarorlari va dasturlar tahlil qilindi.

1-Tahliliy jadval: Urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich / Mamlakat	O'zbekiston (2024)	Hindiston (2024)	Indoneziya (2024)
Urbanizatsiya darajasi (%)	51%	36%	58%
Yirik shaharlar soni	2 ta (Toshkent, Samarqand)	10+ ta (Mumbay, Dehli, Bangalor va b.)	5+ ta (Jakarta, Surabaya, Bandung va b.)
Aglomeratsiya misollari	Toshkent aglomeratsiyasi	Mumbay aglomeratsiyasi	Jakarta aglomeratsiyasi
Urbanizatsiyaga olib keluvchi asosiy omillar	Ish o'rinlari, ta'lim, infratuzilma	Migratsiya, iqtisodiy faol markazlar	Iqtisodiy imkoniyatlar, savdo va xizmatlar
Aglomeratsiya muammolari	Transport bosimi, norasmiy uy-joylar	Ekologiya, infratuzilma yetishmasligi	Suv resurslari tanqisligi, tirbandliklar
Davlat siyosati yo'nalishi	Rejalashtirilgan urbanizatsiya, uy-joy dasturlari	Raqamlashtirish, infratuzilma kengaytirish	Shahar rejalashtirish, transport strategiyasi
Barqarorlik strategiyalari	2030-yilgacha milliy rivojlanish strategiyasi	"Smart Cities Mission", yashil infratuzilma	"Kota Baru" loyihalari, ekologik nazorat

Jadvalga asosiy xulosa:

Mazkur tahliliy jadval urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlarda bir-biriga o'xshash, ammo mahalliy sharoitga qarab turlicha muammolar va yondashuvlarga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston urbanizatsiyani asta-sekinlik bilan rejalashtirilgan tarzda olib bormoqda, Hindiston va Indoneziya esa yirik shaharlar atrofida yuzaga kelayotgan aglomeratsion bosimni kamaytirish uchun texnologik va hududiy loyihalarni amalga oshiryapti.



Grafik tahlili: Urbanizatsiya darajasi (2024)

Grafikda O'zbekiston, Hindiston va Indoneziya kabi uchta rivojlanayotgan mamlakatdagi urbanizatsiya darajasi solishtirilmog'da. Ushbu ko'rsatkich aholining necha foizi shaharlarda istiqomat qilayotganini bildiradi.

1. Indoneziya – 58%

Indoneziyada urbanizatsiya darajasi eng yuqori (58%). Bu mamlakatda yirik port shaharlar (Jakarta, Surabaya) va sanoat markazlari mavjudligi sababli aholi asosan shahar markazlarida to'plangan. Turizm, savdo va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ham urbanizatsiyani tezlashtirgan.

2. O'zbekiston – 51%

O'zbekiston urbanizatsiya bo'yicha o'rtacha pog'onada. So'nggi yillarda davlat tomonidan olib borilayotgan uy-joy qurilishi, shaharsozlik, infratuzilma rivoji kabi omillar shahar aholisining o'sishiga turtki bermoqda. Toshkent shahri va unga yaqin tumanlarda aglomeratsion jarayonlar kuchaygan.

3. Hindiston – 36%

Hindiston urbanizatsiya darajasi bo'yicha eng past ko'rsatkichga ega (36%). Bu holat mamlakatning keng qamrovli qishloq hududlari va yuqori darajadagi qishloq xo'jaligiga tayangan iqtisodiy tuzilmasi bilan bog'liq. Shunga qaramay, Dehli, Mumbay kabi shaharlar atrofida katta aglomeratsiyalar shakllangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston, Hindiston va Indoneziya misolida o'rganildi. Ushbu davlatlar orasida umumiyliklar bo'lishi bilan birga, har birining o'ziga xos sharoitlari va yondashuvlari mavjudligi aniqlangan.

1. Urbanizatsiya sur'atlari turlicha bo'lmoqda

O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi -51% bo'lib, asta-sekin oshib bormoqda.

Hindistonda bu ko'rsatkich nisbatan past (36%), ammo katta aglomeratsiyalar mavjud.

Indoneziyada urbanizatsiya darajasi yuqori (58%) bo'lib, bu iqtisodiy markazlarning ko'pligi bilan bog'liq.

2. Aglomeratsiya jarayonlari infratuzilma va migratsiyaga bog'liq

Yirik shaharlar atrofida vujudga kelayotgan aglomeratsiyalar ish o'rinlari, transport tarmoqlari va xizmatlar ko'lamining kengayishi orqali shakllanmoqda.

Toshkent shahri aglomeratsiyasida Chirchiq, Yangiyo'l, Qibray kabi hududlarning integratsiyalashuvi kuzatilmoqda.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aglomeratsiya muammolari o'xshash

Transport tirbandliklari, norasmiy uy-joylar, ekologik bosim va xizmat ko'rsatishdagi nomutanosibliklar aglomeratsion hududlarda muhim muammolardir.

Ushbu muammolarni hal qilishda strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv tizimlari va hududiy siyosat muhim rol o'ynaydi.

4. Hukumat siyosatining o'rni katta

O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasi urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan.

Hindiston "Smart Cities Mission" dasturi orqali infratuzilmani yaxshilashga intilmoqda.

Indoneziya esa yangi shahar loyihalari ("Kota Baru") orqali Jakarta atrofidagi yukni kamaytirishga urinmoqda.

2-jadval

Mamlakat	Urbanizatsiya darajasi (%)	Aglomeratsiya xususiyatlari
O'zbekiston	51%	Toshkent aglomeratsiyasi: Chirchiq, Qibray, Yangiyo'l kabi hududlar bilan integratsiya
Hindiston	36%	Katta aglomeratsiyalar mavjud, ammo urbanizatsiya sur'ati sekin
Indoneziya	58%	Ko'plab iqtisodiy markazlar, Jakarta atrofida zich aglomeratsiyalar

1-jadval tahlili: Urbanizatsiya darajasi va aglomeratsiya xususiyatlari

Bu jadval urbanizatsiyaning darajasi va aglomeratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi:

Urbanizatsiya darajasi bo'yicha farqlar: Indoneziya (58%) urbanizatsiyada yetakchilik qilmoqda, O'zbekiston (51%) o'rtacha pog'onada, Hindiston esa (36%) past ko'rsatkichga ega. Bu farqlar iqtisodiy markazlar soni, migratsiya oqimlari va infratuzilma rivoji bilan bog'liq.

Aglomeratsiya xarakteri: Har uchala davlatda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllanmoqda, lekin:

O'zbekistonda bu jarayon hozircha Toshkent atrofida ko'proq lokal tusga ega.

Hindistonda katta aglomeratsiyalar mavjud, ammo ularni tartibga solish murakkab.

Indoneziyada esa aglomeratsiyalar ko'pligi iqlimiy va iqtisodiy markazlar soni bilan bog'liq.

Demak, Urbanizatsiya sur'atlari turlicha bo'lsa-da, aglomeratsiya har uchala mamlakatda asosiy urbanistik tendensiyaga aylangan.

3-jadval

Mamlakat	Asosiy aglomeratsiya muammolari	Hukumat siyosati / Dasturi
O'zbekiston	Transport tirbandliklari, ekologik bosim, xizmatlar nomutanosibliigi	2030-yilgacha taraqqiyot strategiyasi
Hindiston	Norasmiy uy-joylar, infratuzilma yetishmovchiligi	"Smart Cities Mission" dasturi

Indoneziya	Jakarta ortiqcha yuklanganligi, ekologik muvozanat buzilishi	“Kota Baru” – yangi shaharlar qurish orqali yukni kamaytirish
------------	--	---

2-jadval tahlili: Aglomeratsiya muammolari va hukumat siyosatlari

Ushbu jadval har bir mamlakatda aglomeratsiya bilan bog‘liq muammolarni va ular yechimi uchun qabul qilingan siyosiy yondashuvlarni taqqoslaydi:

O‘xshash muammolar: Uchtala mamlakatda ham **transport tirbandliklari, uy-joy muammolari, va ekologik bosim** mavjud. Bu global urbanizatsiya muammolarining rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida qanday aks etishini ko‘rsatadi.

Siyosiy yondashuvlar farqi:

O‘zbekiston uzoq muddatli strategik yondashuv orqali urbanizatsiyani tartibga solishga urinmoqda.

Hindiston texnologik va infratuzilmaviy yondashuvni tanlab, “Smart Cities” konsepsiyasini ilgari surmoqda.

Indoneziya esa **yangi shaharlar barpo etish orqali** mavjud aglomeratsiyalardagi yukni kamaytirishga intilmoqda.

Xulosa: Muammolar o‘xshash bo‘lsa-da, har bir mamlakat o‘z sharoitlariga mos siyosiy va amaliy yondashuvni ishlab chiqmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston, Hindiston va Indoneziya uchun dolzarb masalalardan biridir. Quyidagi asosiy xulosalar aniqlangan:

Urbanizatsiya darajasi mamlakatlar kesimida turlicha: Indoneziya urbanizatsiyada yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston o‘rtacha pog‘onada, Hindiston esa nisbatan sekin sur‘atda rivojlanmoqda.

Agglomeratsiyalar yirik shaharlar atrofida shakllanmoqda, bu jarayon migratsiya, infratuzilma, va iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Uchtala mamlakatda ham aglomeratsiyaga xos umumiy muammolar – transport tirbandliklari, norasmiy uy-joylar, ekologik bosim – kuzatilmoqda.

Har bir mamlakat o‘ziga xos siyosiy yondashuvlarni ishlab chiqmoqda, ammo muammolarni hal qilishda barqaror rejalashtirish va innovatsion boshqaruv muhim ahamiyatga ega.

Takliflar

Hududiy rejalashtirishni kuchaytirish. Aglomeratsion hududlarda yer resurslaridan oqilona foydalanish, transport, uy-joy va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini integratsiyalashgan holda rejalashtirish lozim.

Raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish. Smart-shahar yondashuvlari, raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish aglomeratsiya muammolarini samarali hal etadi.

Barqaror transport strategiyalarini ishlab chiqish. Jamoat transporti, velosiped yo'laklari, piyodalar uchun qulay sharoitlarni kengaytirish orqali tirbandlik va ekologik bosimni kamaytirish mumkin.

Shahar atrofidagi hududlarni rivojlantirish. Yirik shaharlarga bosimni kamaytirish maqsadida ularning atrofidagi kichik shahar va qishloqlarda iqtisodiy faollikni oshirish va xizmatlarni yaxshilash tavsiya etiladi.

Hududiy siyosatni moslashtirish va tajriba almashinuvi. Hindiston va Indoneziya tajribalarini tahlil qilib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali strategik urbanistik yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. (2018). *World Urbanization Prospects: The 2018 Revision*. UN Department of Economic and Social Affairs, Population Division.
2. World Bank. (2020). *Urban Development Overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/urbandevelopment>
3. Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. (2021). *Uzbekistan 2030 Development Strategy*.
4. Government of India. (2015). *Smart Cities Mission Guidelines*. Ministry of Housing and Urban Affairs.
5. Bappenas (Indonesian Ministry of National Development Planning). (2020). *Indonesia Smart City Masterplan*.
6. Tacoli, C. (2017). *Urbanisation, rural–urban migration and urban poverty*. International Institute for Environment and Development (IIED).
7. Henderson, V. J., & Turner, M. A. (2020). *Urbanization in Developing Countries: Past and Present*. *Journal of Economic Perspectives*, 34(3), 115-136.
8. Roberts, B. H. (2014). *Managing Systems of Secondary Cities*. United Nations Human Settlements Programme (UN-Habitat).
9. Satterthwaite, D. (2016). *Agglomeration economies in urban planning*. *Environment and Urbanization*, 28(1), 33-49.
10. OECD. (2022). *The Geography of Urbanisation in Developing Countries*. <https://www.oecd.org/development>

UO'K: 620.3:539.2

**NANO-O'LCHAMLI MATERIALLARDA ISSIQLIK
O'TKAZUVCHANLIKNING PASAYISHI SABABLARI****To'rayev Doston Erkin o'g'li**

Qarshi xalqaro universiteti Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasida assistentni

e-pochta: turayevdostonjon174@gmail.com

ORCID: 0009-0005-2441-4288, Tel: 997919410

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1D va 2D nanomateriallarning issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatlari, interfeyslar va atom qoplamalarning fonon uzatishga ta'siri tahlil qilinadi. Grafik va uglerod nanotrubkalari kabi materiallarning elektronika, termoelektrik va sovitish tizimlaridagi qo'llanilishi, shuningdek, nazariy va eksperimental yondashuvlar yoritiladi. Issiqlik boshqaruvi bo'yicha dolzarb muammolar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Nanotuzilmalar, issiqlik o'tkazuvchanligi, fonon dinamikasi, atom qoplamalari, interfeys issiqligi, grafen, uglerod nanotrubkalari, nanog'ovakli materiallar.

УДК: 620.3:539.2

**ПРИЧИНЫ СНИЖЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ В
НАНОМАСШТАБНЫХ МАТЕРИАЛАХ****Тураев Достон Эркинович**

Ассистент кафедры Экономика и Инженерия

Каршинского международного университета

e-pochta: turayevdostonjon174@gmail.com

ORCID: 0009-0005-2441-4288, Tel: 997919410

Аннотация: В данной статье анализируются теплопроводные свойства одномерных и двумерных наноматериалов, влияние интерфейсов и атомных покрытий на перенос фононов. Освещаются применения таких материалов, как графен и углеродные нанотрубки, в электронике, термоэлектрических устройствах и системах охлаждения, а также рассматриваются теоретические и экспериментальные подходы. Также обсуждаются актуальные проблемы управления теплом.

Ключевые слова: Наноструктуры, теплопроводность, динамика фононов, атомные покрытия, тепловое сопротивление на границах, графен, углеродные нанотрубки, нанопористые материалы

UDC: 620.3:539.2

**CAUSES OF REDUCED THERMAL CONDUCTIVITY IN
NANOSCALE MATERIALS****Doston Erkinovich Turayev**

Assistant of the Economics and Engineering

Department at Qarshi International University

e-pochta: turayevdostonjon174@gmail.com

ORCID: 0009-0005-2441-4288, Tel: 997919410

Abstract: This article analyzes the thermal conductivity properties of 1D and 2D nanomaterials, the influence of interfaces and atomic coatings on phonon transport. It highlights the application of materials such as graphene and carbon nanotubes in electronics, thermoelectric devices, and cooling systems, as well as theoretical and experimental approaches. Current challenges in thermal management are also discussed.

Keywords: Nanostructures, thermal conductivity, phonon dynamics, atomic coatings, interfacial thermal resistance, graphene, carbon nanotubes, nanoporous materials

Kirish Nanotexnologiyalarning rivojlanishi materialshunoslikda inqilob yasab, nanomiqyosda moddalarning o'ziga xos fizik xususiyatlarini kashf qilish imkonini berdi. Shunday xossalardan biri – issiqlik o'tkazuvchanlik, elektronika, energetika va biotibbiyot sohalaridagi nanosistemalarning ishonchliligi va samaradorligida muhim rol o'ynaydi^[1,3,4,6,8]. Nanotrubkalar, nanonaychalar, grafen va superpanjalar kabi past o'lchamli materiallar klassik Furye qonunidan og'uvchi o'ziga xos issiqlik xatti-harakatlarini namoyon etadi. Bunga o'lcham effektlari, fononlarning chegaralanishi va fazalararo tarqalish sabab bo'ladi^[1,2,5,6]. Yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi bo'lgan materiallar, masalan, grafen va uglerod nanotrubkalari (1600–4000 W/m·K) kuchli sovitish xususiyatlari tufayli elektron qurilmalarda muhim rol o'ynaydi. Aksincha, issiqlikni sekin o'tkazadigan materiallar termoelektrik qurilmalarda kerak bo'ladi, masalan, stanen kabi moddalar^[3, 4]. Bundan tashqari, fonon gidrodinamikasi va Poiseuille oqimi kabi yangi hodisalar issiqlik uzatilishining fundamental fizikasi bo'yicha chuqur bilimlar beradi^[1].

Nanomateriallarning issiqlik xususiyatlari ularning o'lchami, nuqsonlari, fazalararo chegaralari va atom qoplamalari orqali aniqlanadi^[1,3,4]. Masalan, grafen ko'piklari va nanotrubkali to'plamlardagi struktura nuqsonlari issiqlik o'tkazuvchanlikni sezilarli darajada kamaytiradi^[3,6,8]. ALD (atomic layer deposition) kabi usullar nanomateriallar issiqlik xossalari aniqlik bilan boshqarishga yordam beradi^[1].

Elektron qurilmalar tobora kichrayib borayotgan bir paytda (masalan, MOSFET'lar 20 nm darajasiga yetmoqda), issiqlikni samarali boshqarish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, nanomateriallar barqaror texnologiyalar uchun ham istiqbolli, masalan, termoelektr energiyani qayta ishlab beruvchi qurilmalar yoki issiqlik o'tkazuvchanligi juda past bo'lgan aerogellar^[4,7].

Nazariy modellashtirish (masalan, Boltzmann tenglamasi), hisoblash usullari (molekulyar dinamika) va ilg'or eksperimental usullar (masalan, mikro-Raman) ushbu sohani rivojlantirishda muhim bo'ldi^[3,5,6]. Biroq interfeyslar orqali issiqlik uzatilishini aniq baholash, fonon dinamikasini tushunish va kerakli issiqlik xususiyatlariga ega nanomateriallarni ommaviy ishlab chiqarish kabi muammolar hanuzgacha dolzarb^[9,10].

Ushbu sharhda biz 1D/2D nanomateriallar, interfeyslar, atom qoplamalarining issiqlik uzatishga ta'siri hamda ularning sovitish va energiya tizimlaridagi qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism

1. Nanotuzilmalarda issiqlik transporti mexanizmi

Nanotuzilmalarda issiqlik energiyasi asosan fononlarning tarqalishi orqali uzatiladi. Fononlar — bu kristall panjaradagi atomlarning kvantlanmagan vibratsion modalaridir, ular issiqlik energiyasini tashiydi. Keng makroskopik materiallarda fononlar o'zaro va atomlar bilan turli xil tarqalish jarayonlariga duch keladi va bu jarayonlar issiqlik o'tkazuvchanligini belgilaydi.

Nanotuzilmalarda o'lcham effektlari fononlarning erkin yo'nalishini, tarqalish uzunligini, va tarqalish mexanizmlarini tubdan o'zgartiradi. Ayniqsa, 1D va 2D materiallarda fononlarning chegaralanishi ularning issiqlik uzatish qobiliyatini ko'p hollarda sezilarli darajada kamaytiradi. Fononlarning yuzalar va interfeyslar bilan

o'zaro ta'siri natijasida klassik Furye qonuni cheklanishlarga uchraydi, natijada issiqlik o'tkazuvchanligi o'ziga xos holatlarda ko'tarilishi yoki pasayishi mumkin.

2. Atom qoplamalarining ta'siri

Atom qoplamalari nanotuzilmalarning issiqlik xossalarini boshqarishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Bu qatlamlar fononlarning tarqalish rejimini o'zgartiradi, fononlarning qirqilishi va interfeys orqali issiqlik uzatilishini nazorat qiladi. Cheng va Zhang o'z tadqiqotlarida atom qatlamlari bilan qoplangan nanotuzilmalarda issiqlik o'tkazuvchanligini aniq va keng diapazonda boshqarish mumkinligini ko'rsatdilar. Ushbu metod nanoelektronika va mikroelektron qurilmalarda issiqlikni samarali boshqarishda katta istiqbollarni ochadi.

3. Uglarod asosidagi nanomateriallarning issiqlik o'tkazuvchanligi

Grafen va uglarod nanotrubkalari yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi bilan mashhur. Bu materiallarning o'ziga xos ikki o'lchovli va bir o'lchovli tuzilishi, shuningdek, kuchli sp^2 kimyoviy bog'lanishi issiqlik uzatilishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xie va Wang ma'lumotlariga ko'ra, uglarod nanostrukturalarining nuqsonlari, mikrostrukturaviy buzilishlar, va fazalararo chegaralar issiqlik o'tkazuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa nanoelektronika va sovutish tizimlarida ushbu materiallarning samaradorligini belgilaydi.

4. Nanog'ovakli materiallarning xususiyatlari

Nanog'ovakli materiallar — bu ichki g'ovaklarga ega, bu esa issiqlik o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Shunday qilib, ular termoelektrika sohasida issiqlikni samarali ushlab turish vositasi sifatida qo'llaniladi. Merillas va boshqalar ning tadqiqotlari nanog'ovakli materiallardagi issiqlik o'tkazuvchanligi chegaralarini o'rganib, ularning energiya saqlash va sovutish tizimlarida qo'llanilishi uchun katta istiqbollarni ta'kidlaydi.

5. Interfeyslar orqali issiqlik uzatilishi

Nanotuzilmalarda interfeyslarning issiqlik uzatilishidagi roli nihoyatda muhim. Interfeyslar fononlarning yutilishiga, tarqalishiga va o'zaro ta'siriga sabab bo'lib, umumiy issiqlik o'tkazuvchanligining kamayishiga olib keladi. Termentzidis va boshqalar ushbu fenomenni chuqur o'rgandilar va nanostrukturalar orasidagi issiqlik qarshiligi (thermal boundary resistance) konsepsiyasini ilgari surdilar. Bu muammo nanoelektronika va sovutish tizimlarida issiqlikni samarali boshqarish uchun hal qiluvchi hisoblanadi.

6. Yangi ilmiy yo'nalishlar: fonon gidrodinamikasi va Poiseuille oqimi

So'nggi tadqiqotlar fononlarning gidrodinamik xatti-harakatlarini aniqladi, bunda fononlar ko'plab boshqa fononlar bilan o'zaro ta'sir qilib, issiqlik uzatilishining yangi rejimlarini hosil qiladi. Poiseuille oqimi esa nanotuzilmalarda issiqlikning an'anaviy diffuziv tarqalishidan farqli ravishda suyuqlik oqimi kabi xatti-harakatda bo'lishidir. Ushbu yangi yondashuvlar nanotuzilmalarda issiqlik boshqaruvini tubdan yaxshilash imkonini beradi va kelajak texnologiyalarining asosini yaratadi.

Xulosa

Nanotuzilmalardagi issiqlik o'tkazuvchanligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'lchami, atom qoplamalari, tuzilish nuqsonlari, interfeyslar va fononlarning tarqalish mexanizmlariga bog'liq. Yuqori issiqlik o'tkazuvchanlikka ega materiallar,

masalan, grafen va uglerod nanotrubkalari nanoelektronika va sovutish tizimlarida muhim rol o'ynaydi. Nanog'ovakli materiallar esa past issiqlik o'tkazuvchanliklari tufayli termoelektrika va energiya tejash sohalarida qo'llaniladi. Shuningdek, fonon gidrodinamikasi va Poiseuille oqimi kabi yangi ilmiy tushunchalar nanotuzilmalarda issiqlik transportini yanada samaraliroq boshqarish imkonini beradi. Kelgusida nanotuzilmalarda issiqlik xossalarini yanada chuqur o'rganish va ularni sanoatda keng joriy etish istiqbollari juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cheng, Y., & Zhang, G. (2022). Impact of atomic coating on thermal conductivity of nano materials. *Nano Materials Science*, 4(1), 1–14.
2. Termentzidis, K., Parasuraman, J., Abs Da Cruz, C., Merabia, S., Angelescu, D., Marty, F., Bourouina, T., Kleber, X., Chantrenne, P., & Basset, P. (2011). Thermal conductivity and thermal boundary resistance of nanostructures. *Nanoscale Research Letters*, 6(1), 288.
3. Xie, Y., & Wang, X. (2023). Thermal conductivity of carbon-based nanomaterials: Deep understanding of the structural effects. *Green Carbon*, 1(1), 47–57.
4. Kalantari, M. H., & Zhang, X. (2022). Thermal transport in 2D materials. *Nanomaterials*, 13(1), 117.
5. Yang, N., Xu, X., Zhang, G., & Li, B. (2012). Thermal transport in nanostructures. *AIP Advances*, 2(4), 041410.
6. Saini, R., & Chauhan, A. R. (2017). Thermal conductivity of nanoscale materials: A review. *Journal of Ultra Scientist of Physical Sciences*, 29(7), 1–10.
7. Merillas, B., Varela, J. P., Martín-de León, J., Rodríguez-Pérez, M. Á., & Durães, L. (2022). Thermal conductivity of nanoporous materials: Where is the limit? *Polymers*, 14(13), 2556.
8. Cahill, D. G., Braun, P. V., Chen, G., Clarke, D. R., Fan, S., Goodson, K. E., Keblinski, P., King, W. P., Mahan, G. D., Majumdar, A., Maris, H. J., Phillpot, S. R., Pop, E., & Shi, L. (2014). Nanoscale thermal transport. II. 2003–2012. *Applied Physics Reviews*, 1(1), 011305.
9. Xu, X.; Zhou, J.; Chen, J. Thermal Transport in Conductive Polymer-Based Materials. *Adv. Funct. Mater.* 2020, 30, 1904704.
10. Bhimanapati, G.R.; Lin, Z.; Meunier, V.; Jung, Y.; Cha, J.; Das, S.; Xiao, D.; Son, Y.; Strano, M.S.; Cooper, V.R.; et al. Recent Advances in Two-Dimensional Materials beyond Graphene. *ACS Nano* 2015, 9, 11509–11539

RSHI X



9 773093 870003